

Fazliddin Sharipov

**HOZIRGI O‘ZBEK
ADABIY TILI**
(O‘zbek morfologiyasining taraqqiyoti)

O‘quv qo‘llanma

60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili

60111400 – O‘zbek tili va adabiyoti

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2024**

UO‘K: 00

KBK: 00

Sh 00

Sharipov F.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili (O‘zbek morfologiyasining taraqqiyoti)
[Matn] : o‘quv qo‘llanma / F. Sharipov. – Toshkent: Bookmany print,
2024. – 102 b.

O‘quv qo‘llanmada o‘zbek tilshunosligining zamonaviy fan yo‘nalishi darajasida shakllanishi va rivojlanishining bosqichida asosiy sathlardan biri bo‘lgan zamonaviy o‘zbek morfologiyasining taraqqiyot bosqichlari haqida ma’lumotlar berilgan.

O‘quv qo‘llanma oliy o‘quv yurtlarining 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili, 60111400 – O‘zbek tili va adabiyoti bakalavriyat ta’lim yo‘nalishlarida o‘qitilayotgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanining o‘quv dasturiga muvofiq yaratilgan. Undan bakalavriyat ta’lim yo‘nalishi talabalari, magistrantlar hamda mazkur davr tilshunosligi bo‘yicha izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar foydalanishi mumkin.

Mas’ul muharrir:

Bahtiyor Mengliyev – filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Sulton Normamatov – filologiya fanlari doktori, professor

Azamat Pardayev – filologiya fanlari doktori, professor

Guliston davlat universitetining 2023-yil 28-fevraldagi O‘quv-uslubiy kengashning 7-sonli bayonnomasi hamda universitet rektorining 2022-yil 28-noyabrdagi 28-sonli buyrug‘i bilan nashr etishga ruxsat berilgan. Guvohnoma № 28-06.

ISBN 978-9910-761-70-6

© Sharipov F.

© “Bookmany print” nashriyoti, 2024.

KIRISH

Ma'lumki, o'zbek tilshunosligi tarixi murakkab tarixiy davrlarni o'z boshidan kechirdiki, uning rivojlanish bosqichlarini belgilash va har bir davr bosqichini keng ko'lamda tadqiq etish fan oldida turgan dolzarb masala hisoblanadi. XXI asrga kelib tilning barcha jabhalari, jumladan, morfologiyani o'rganish borasida bir qancha sezilarli nazariy o'zgarishlar amalga oshirilgani ko'zga tashlanadi. Xususan, morfologik tadqiqotlarda an'anaviy faktografik yondashuvlardan struktur tadqiqotlarga o'tilganligi, nazariy morfologiyada lison va nutqning farqlanishi, yangicha asos takomillashtirilgani morfologik lisoniy sistema va munosabatlarning shu choqqacha kuzatilmagan qirralari ochilayotganligi, invariant va variant; ma'no va shakllarning morfologik kategoriyalar misolida izchil ajratilishi, umumiy grammatik ma'no va xususiy grammatik ma'nolar talqinining turli tilshunoslik oqimlarida mushtaraklik kasb etib borayotganligi, til morfologik immanent imkoniyatlarining nutqiy voqelanishi va unda barqaror (statik) hamda o'zgaruvchan (dinamik) holatlarning belgilanishi, shuningdek, bunday sabablarining aniqlanayotganligi yuqorida zikr etilgan amaliy qo'llanishga kirib kelayotgan morfologik bazalarni shakllantirishda ishonchli nazariy asos vazifasini o'tamoqda. Nazariy va amaliy uyg'unligi o'z kuchini ko'rsatmoqda. XXI asr birinchi choragidagi eng muhim yutuq morfologik shakllar lug'atlarining yaratilayotganligidir. Zotan, barcha so'z turkumlari, so'zlarning dialektal variantlari, uslubiy ko'rinishlari bo'yicha morfologik shakllar lug'atining yaratilishi natijasidagina hozirgi davr uchun juda muhim bo'lgan o'zbek tilini sun'iy intellekt uchun modellashtirish imkoniyati vujudga keladi. Bu bir necha bosqichdan iborat bo'lib, dastlab morfologik qonuniyatlar ochiladi, bu qonuniyatlar asosida morfologiyada umumiy va xususiy jihatlar farqlanadi. Lison va nutq dixotomiyasiga asoslangan morfologik shakllar lug'ati yuzaga keladi. Bu esa, pirovardida, morfologik analizatorlarning vujudga kelishiga zamin tayyorlaydi. Shunday qilib, XX asr oxiri va XXI asr boshiga kelib, xuddi XIX asr oxiri XX boshida bo'lganidek, barcha jabhalar qatori tilshunoslikda ham yangicha qadamlar tashlandi, yangicha yondashuv, yangicha

morfologik asosli zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari yuzaga keldi. Bu bosqichda dastlab tilshunoslik obyektlariga yangicha yondashuv substantzial yo‘nalishda borishini taqozo etdi. Bu tahlilning bosh tamoyili asosida tilimiz qurilishini yoritishda lisoniy birliklarga umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab va ularning voqelanishi natijasida hosil bo‘lgan nutqiy birliklarga alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat sifatida munosabatda bo‘lish kerakligi yanada oydinlashdi. Zotan, bu tasodifiy bo‘lgan dialektika qonunlarining tildagi tajallisidir. Shu yo‘nalishda yaratilgan tadqiqot natijalari bugungi kunda ijtimoiy sohalar va axborot-kommunikatsiya tizimida kuchli ehtiyojga aylanayotgan o‘zbek tili morfologik analizatorini yaratish zarurati kun tartibiga qo‘yilgan. Hozirgi paytda o‘zbek tili morfologik ta’limotini nazariy, amaliy yutuqlarini sarhisob qilish, tasniflash hamda morfologik analizator uchun zarur nazariy tilshunoslik bazasini shakllantirish dolzarb vazifa bo‘lib turibdi.

I BOB. O‘ZBEK TILI MORFOLOGIYASINING SISTEM- STRUKTUR BOSQICHI

1-mavzu: Lison va nutqning farqlanishi

Reja:

1. Strukturalizm maktablari haqida.
2. Lison va nutq masalasini tilshunoslikdagi o‘rni.
3. Lisoniy munosabat to‘g‘risida.

Tayanch so‘z va iboralar: *strukturalizm maktablari, fahmiy va nazariy bilish, lison va nutq, paradigma, lisoniy munosabat, lisoniy ziddiyat.*

Jahon tilshunoslik fani ham hozirgi taraqqiyot bosqichga etib kelgunga qadar uzoq tarixiy o‘lish davrini bosib o‘tdi.

Strukturalizm – struktural lingvistika XX asrning 20-yillari oxirlarida yuzaga keldi. U Praga, Amerika va Kopengagen strukturalizmi kabi uchta maktabga bo‘linadi.

Praga maktabi ta’limotining asosiy g‘oyalari quyidagilar:¹

- 1) tilshunoslik – o‘z obyektiga ega bo‘lgan mustaqil fan;
- 2) til – sistema;
- 3) til – funksional sistema, ya’ni til muayyan maqsadga yo‘naltirilgan ifoda vositalar sistemasi;
- 4) fonologiya – nazariy fonologiya. Fonemaning so‘z va morfemalarni farqlash qobiliyatiga egaligi. Fonema tilning eng kichik fonologik birligi. Nutq tovushlari fonemaning moddiy simvollari, belgilari, fonemaning nutqdagi reallashishi. Demak, fonema bilan tovush farqlanadi;
- 5) sinxroniya va diaxroniya;
- 6) til belgisi bo‘lgan so‘z – mustaqil birlik. U vazifasiga, nomlanishiga ko‘ra nominativ faoliyat mahsuli, jamiyatda funktsiya bajaradi;
- 7) tilning morfologik sistemasi morfema bilan belgilanadi.
- 8) gapning aktual bo‘linishi masalasi.

¹ Расулов Р. Умумий тилшунослик. – Тошкент: Фан технологиялар, 2007. – Б.113–114.

Amerika strukturalizmi XX asrning 20-30-yillarida mahalliy aholi tilini o'rganish natijasida maydonga kelib, Frants Boas asoschi sifatida tan olinadi. Amerika strukturalistlari tilga belgilar sistemasi sifatida qaraydilar. Aniqrog'i, ular tilni nutqda qo'llanuvchi tovushlar, ularning nomi sifatida tushunadilar. Ayni vaqtda ular tilda faqat tovush emas, balki ma'noni ham farqlaydilar.²

Kopengagen strukturalizmi XX asr 30-yillarining boshlarida Daniyada tashkil topgan, Lui Elmslev asoschi sifatida, glossematika nomini beradi.

Glossematiklarda til sinxron – bir davrdagi sof munosabatlarning mavhum sistemasi sifatida beriladi. Bunda har bir aniq tilning o'ziga xosligi, xususiyatlari inkor qilinadi. Ular “tilshunos tilning real elementlari orasidagi o'zaro munosabatini emas, balki tildagi zamon va makon chegarasi bo'lmagan munosabatlar strukturasinigina tekshirishi lozim”, degan universal ta'limotni yaratmoqchi bo'ladilar. Shunday qilib, “munosabatlar lingvistikasi” birinchi o'ringa qo'yilib, real tillar, ularning tovush materiyasi va ma'no masalasi ikkilamchi hodisa, deb qaraladi.³

L.Elmslev F.de Sossyurning til va nutq antinomiyasiga munosabat bildirar ekan, u nutqni individual jarayon sifatida tushunib, unga sxema – til sxemasi, norma – til me'yori va uzus – til uzusini zid qo'yadi.⁴

Strukturalizm maktablari bir-biridan tashkil topgan joy nomiga, tilni struktura hodisa sifatida olib, uni tuzilishiga ko'ra tahlil qilishi, qo'llanadigan metodlariga ko'ra, lisoniy hodisalarga qaysi pozitsiya nuqtai nazaridan yondashishiga ko'ra o'zaro farqlanadi. Lekin bir umumiy g'oyaga ko'ra birlashadilar:

- 1) tilshunoslik fanining tekshirish ob'ekti – til;
- 2) til – muayyan munosabatdagi, o'zaro bog'liq bir-birini talab qiladigan belgilar, elementlar sistemasi;
- 3) til – sinxron tadqiqot ob'ekti;
- 4) til – alohida yaruslardan tashkil topgan struktura;
- 5) til va nutq farqli;

² Ўша манба. – Б.116.

³ Усмонов С. Умумий тилшунослик. –Тошкент: Ўқитувчи, 1972; Кондрашов Н.А. История лингвистических учений. – Москва. 1979; Лоя Я.В. История лингвистических учений. – Москва. 1968.

⁴ Расулов Р. Умумий тилшунослик. –Тошкент: Фан технологиялар, 2007. – Б. 118.

6) fonema – til birligi, tovush – nutq birligi.

Bu g'oya vakillari til va nutqning farqlanishini alohida tadqiq qilgan dastlabki olimlardir. Ta'kidlash lozimki, qayd etilgan qarashlardagi *til* atamasi, o'zbek tilshunosligida farqlangan *nutq* bilan birga, *til*ni tashkil etadigan *lison* atamasi mohiyatiga ega.

Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida ham tilga olimlarimiz tomonidan turli xildagi munosabatlar bildirilmoqda. Bu munosabatlar dastlab S.N.Ivanov,⁵ Sh.Rahmatullayev,⁶ H.Ne'matov,⁷ R.Yunusov,⁸ I.Abdurahmonov⁹ tadqiqotlarida bayon etilgan, keyinchalik R.Sayfullayeva,¹⁰ R.Rasulov,¹¹ B.Mengliyev,¹² Sh.Shahobiddinova,¹³ M.Abuzalova,¹⁴ M.Qurbonova,¹⁵ R.Bobokalonov,¹⁶ B.Bahriddinova,¹⁷ N.Musulmanova,¹⁸

⁵ Иванов С.Н. Курс турецкой грамматики. Ч.I. – Ленинград: ЛГУ, 1975; Шу муаллиф. Родословное древо – тюрк Абдул – Гази – Хана. Грамматический очерк. Имя и глагол. – Ташкент: Фан, 1969. 204 с.

⁶ Раҳматуллаев Ш. Семема – мустақил тил бирлиги. // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент, 1984. №5.

⁷ Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. –Тошкент: Ўқитувчи, 1995. 128 б.; Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 32 б.

⁸ Юнусов Р. Полисемия и синонимия имен существительных места в современном узбекском литературном языке: Дисс. кан. филол. наук. – Ташкент, 1974.

⁹ Абдурахмонов И. Полисемия и антонимия прилагательных протяженности в современном узбекском литературном языке. Дисс. кан. филол. наук. – Ташкент, 1973.

¹⁰ Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек адабий тилида қўшма гапларнинг шакл-вазифавий (формал-функционал) талқини: Филол. фан. док.... дис. автореф. – Тошкент, 1993.

¹¹ Расулов. Р. Глаголы состояния в узбекском языке и их валентность: Дисс... докт. филол. наук. – Ташкент, 1989.

¹² Менглиев Б. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва синтактик имокониятлари: Фил. фан. ном. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1996; Шу муаллиф. Лисоний тизим яхлитлигида сатҳлараро муносабатлар: Филол. фан. док.... дис. автореф. Тошкент, 2002.

¹³ Шахабитдинова Ш.Х. Грамматик маъно талқини хусусида: Фил. фан. ном. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1993; Шу муаллиф. Умумийлик ва хусусийлик диалектикаси ҳамда унинг ўзбек тили морфологиясида акс этиши: Филол. фан. док... дис. автореф. – Тошкент, 2001.

¹⁴ Абузалова М. Ўзбек тилида содда гапларнинг энг кичик қурилиш қолип ва унинг нутқда воқеланиши: Фил. фан. ном. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1994.

¹⁵ Қурбонова М. Ўзбек тилшунослигида формал-функционал йўналиш ва содда гап қурилишининг талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – 51 б.

¹⁶ Бобокалонов Р. Ўзбек тилида семантик-функционал шаклланган сўз-гаплар. Филол. фан. номзоди... дис. автореф. – Тошкент, 2000. -196.

¹⁷ Баҳриддинова Б.М. Феъл луғавий шакли тизими. Тур категорияси: Филол. фан. номзоди... дис. – Самарқанд, 2002.

¹⁸ Мусулмонова Н.Р. Грамматик шаклда категориал ёндош ва ҳамроҳ маъно: Филол. фан. номзоди... дис. автореф. – Тошкент, 2007.

N.Yoʻldosheva¹⁹ kabilarning tadqiqotlarida rivojlantirildi va oʻzining yuqori choʻqqisiga erishdi. Professor H.Neʼmatov va O.Bozorovlar tomonidan 1989-yilda nashr etilgan “Til va nutq” risolasida oʻzbek tilshunosligi fan sifatida XX asrning 20 – 30-yillarida shakllana boshlaganligi va asrning oxiriga kelib yuqori choʻqqilarga chiqqanligi taʼkidlangan.

Dastlab til, lison, meʼyor va nutq munosabatlarining tahlili falsafa va fandagi ilmiy bilishning bosqichlari orqali amalga oshiriladi. Bu fahmiy va nazariy bilishlarni oʻz ichiga oladi, deyish mumkin.

Fahmiy bosqichda belgi-xususiyatini aniqlash, saralash, izchillashtirish va tasvirlash ishlarini amalga oshirish hamda asosiy eʼtibor oʻrganish manbaining tashqi, zohiriy xossalarini aniqlashga qaratilgan, nazariy bilish esa amaliy bilish jarayonida toʻplangan faktik materiallarni aqliy tafakkur yoʻli bilan umumlashtirib, ularning mohiyatini ochishga qaratilganligini kuzatamiz. Risolada oʻzbek tilshunosligi oʻzining amaliy bosqichini bosib oʻtib, tilning boʻlimlari aniqlanganligi, har bir boʻlimga doir birliklar chegaralanganligi va birliklarning zohiriy alomatlari yoritilganligini uch turga boʻlib oʻrganilgan. Tilshunoslikni oʻrganish nuqtai nazaridan dastlab borliqdagi har bir narsada ikki jihat borligini taʼkidlaydi: a)umumiylik, mohiyat imkoniyat, sabab; b)alohidalik, hodisa, voqealik, oqibat kabi. Aynan shu ikki jihatni UMIS va AHVO deb belgilaydi hamda birgalikda voqelanishga eʼtibor qaratadi.

Demak, sezgi aʼzolar yordamida his qilish AHVOni ifodalasa, ongdagi voqelanish UMISni bildiradi. Buni hovlidagi beshta oʻrik daraxti misolida taʼriflaydi. Bu oʻriklarning sezgi aʼzolari yordamida koʻrinishi AHVO boʻlsa, ongdagi umumiy oʻrikni UMIS, deb baholaydi. Shunda UMIS – oʻrikning umumiy jihatlarini umumlashtiradi, oʻriklar orasidan birining yoʻq boʻlishi UMISning oʻzgarmasdan turishiga sabab boʻladi. UMIS uchun oʻriklar – bitta: AHVO – barcha oʻriklarning oʻz xususiy belgisi, AHVO sifatida oʻrik takrorlanmaydi, oʻrik AHVOlari cheksiz.

¹⁹ Йўлдашева Н. Йиғиқ гапнинг формал-функционал талқини: Филол. фан. номзоди... дис. автореф. – Тошкент, 2010.

UMIS va AHVOning ifodalanishi sintaksisda barchasi uchun umumiy bo‘lgan holat ($W^{q.k}+W^{e.q}$) qolip sifatida belgilansa, UMIS hisoblanadi, bu bir nechta so‘z birikmasida takrorlanib, turli ma’nolarni ifodalash (tegishlilik, qarashlilik, mansublik, belgisi) AHVO sifatida qabul qilingan.

Risolada lison va nutq farqlanishiga UMIS va AHVO munosabati dialektikaning, ya’ni butun borliq-tabiat, jamiyat va inson tafakkurining asosiy yashash qonuniyatidan biri bo‘lganligi sababli, u har bir fanda o‘ziga xos tarzda xususiylashadi. UMIS ning tildagi tajallisi lison, AHVO niki esa nutq, deb yuritiladi. Lison va nutqning majmui til deyiladi, degan umumiy tavsif beriladi.²⁰ O‘zbek tilida lison o‘rnida til atamasining qo‘llanilishi tilga sistema sifatida qarashning dastlabki yillariga to‘g‘ri keladi.²¹

Har qanday lisoniy birlik psixofizik tabiatli, shakliy-tashqi tomoni, ma’lum bir vazifasi – ma’noviy qiymati mavjudligini aytadilar. Lisoniy birlik moddiylikdan holi bo‘lib, ongda “tarx”, “ramz” sifatida saqlanishini ta’kidlab, *a* unlisi misolida asoslab beriladi. Masalan, *a* fonemasining talaffuz xususiyati haqidagi umumiy tasavvur shakli, tashqi tomoni. *a* fonemasining ma’no farqlash, chegaralash tomoni ichki jihatini sanaladi. Lisoniy birliklarning ichki va tashqi tomonini ajratish, ularni mutloqlashtirish mumkin emasligi, nutq esa ma’lum bir xabarni berish uchun ishga solinishi yoki qo‘llanilishi bo‘lganligi sabab “lison – nutq qobiliyati – nutq” zanjirida nutqning faqat tashqi tomoni bo‘lishi va sezgilarimizga ta’sir qilishi aytiladi.

Umuman olganda, lison bo‘linuvchan bo‘laklarning majmui yoki turg‘un xususiy birlikning o‘zaro barqaror, doimiy bog‘lanish munosabati asosida tashkil topgan butunlik sifatida ko‘riladi.²² Shu nuqtai nazardan lison birliklari, avvalo, ikki guruhga ajratilgan: a) tashkil etuvchi eng kichik lisoniy birlik; b) eng kichik tashkil etuvchilar asosida vujudga kelgan hosila lisoniy birlik.

Tashkil etuvchi va hosila birlik orasida pog‘onali munosabat fonema, morfema, leksema, qolip qatlam hosil bo‘ladi. Shuni

²⁰ Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993.

²¹ Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Қурбонова М., Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. –Тошкент: Фан ва технология, 2009. – Б. 28.

²² Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993.

alohida ta'kidlash kerakki, tashkil etuvchining o'zi ham tashkil etuvchidan iborat, (fonema-unli, undosh – lablangan, lablanmagan) u ham nisbiy tushuncha. Chunki tashkil etuvchining eng kichigi ham (fonema) tashqi va ichki jihatlariga ajraladi.

Demak, lison – umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab kabi turlariga bo'linsa, nutq – alohidalik, hodisa, voqelik, oqibat singari turlardan iborat. Shularni inobatga olgan holda aytish mumkinki, lisoniy birlik – fonema, morfema, leksema, qolip kabi, nutqiy birlik esa tovush, qo'shimcha, so'z, yasama so'z, so'z birikmasi tarzida o'zaro zidlanadi²³ hamda bu holat o'zbek tilshunosligida lison-nutq dixotomiyasi ham o'zbek tilshunosligining keyingi taraqqiyoti uchun nazariy, o'zbek tili ta'limi uchun amaliy jihatdan konseptual xarakter kasb etdi.

Xulosa shuki, lison va nutq birliklari keltirilgan risola, o'quv qo'llanma va darsliklarda kichik elementlarigacha tushuntirib berilgan. Fonema – tovush tipi haqidagi umumiy tasavvur, umumiy andoza, cheksiz tovushning umumlashmalari qatori sifatida ongda yashaydi. Tovush esa fonemaning nutqiy varianti. Leksema nutqimizda tayyor holatda uchraydigan nomema (tovush) va semema (mazmun) birligidan iborat lisoniy birlik, tarkibidagi semema esa o'xshash (yuz, jamol: odamga xos..) va farqli (yuz, jamol: uslubiy betaraf, badiiy uslub) jihatlarini ko'rsatib turuvchi lisoniy birlik.

Tilshunoslik qonuniyati nuqtai nazaridan morfema leksemadan ajralgan holda o'z mohiyatini namoyon qila olmaydigan lisoniy birlik sifatida talqin qilingan. Morfema ham tashqi va ichki jihat yaxlitligidan iborat, yangi so'z hosil qilishga va so'zlarga qo'shimcha leksek-semantik qiymat berishi ta'kidlangan. Qolip deganda esa – so'z yasash va sintaktik (so'z birikmasi va gap) qolip nazarda tutilishi aytilgan, yasama so'z (sutchi), so'z birikmasi (yaxshi bola) va gaplarni (men bordim) hosil qilish sxemasi (asos+yasovchi; ot – tushum kelishik+fe'l+ ega+kesim) qolip

²³ Нигматов Х.Г., Абдуллаев К.М. и др. Способы синтаксической связи и актуальные вопросы тюркского синтаксиса. Тезисы формально-функционального исследования // Сов. тюркология. – 1988. – № 4. – С. 103-106; Нигматов Х.Г., Абдуллаев К.М., Банару В.И., Махмудов Н.М., Мухамедова Д.А., Нурманов А. Структура предложения и актуальные вопросы синтаксиса тюркских языков. Тезисы формально-функционального исследования // Советская тюркология. – 1984. – № 5. – С. 3-10.

sifatida berilganligini kuzatamiz. Qolip ham shakl va mazmun yaxlitligidan iborat, ot-tushum kelishigi fe'l+shakl: vositasiz to'ldiruvchili fe'lli birikma mazmuni sifatida qaraladi.²⁴

Qo'llanmada lisoniy birliklar bir-birini eslatishi va o'xshash-belgi-xususiyatga egaligi bilan ajralib turishi aytiladi. "Umumiy belgisi asosida birlashgan va bir-birini taqozo etadigan, ammo har biri o'ziga xos belgisi bilan boshqasiga qarama-qarshi turuvchi lisoniy birliklar tizimi paradigma deyiladi."²⁵ Bundan kelib chiqadiki, paradigmmani tashkil etuvchi birliklar paradigma a'zosi deyilishi, ikki a'zo, ular, asosan, bir lisoniy sathga mansub bo'lishi ta'kidlangan. Paradigmaga kiruvchi xususiyatlarni: ya'ni boshqa a'zoni esga olishi, nutq uchun paradigma a'zolaridan biri tanlanishi, biri ikkinchisidan qaysidir xususiy belgisi orqali farqlanib turishi, bir pozitsiyada (mavqeda) kelib, bir-birini ma'lum sharoitda almashtira olishi kabi holatlar keltirgan. Aynan paradigma a'zolari orasidagi munosabat paradigmatic munosabat deyilishi ham qayd etilgan.

Paradigma qamroviga ko'ra, katta va kichik yoki tashqi va ichki tarzida bo'linib, jarangli va jarangsizlar kichik yoki ichki; undoshlar tizimi katta yoki tashqi paradigma hisoblanishi keltirilgan.²⁶ Demak, lisoniy sathlar fonetik, leksik, morfologik va sintaktik paradigmalarda farqlanadi.

Lisoniy munosabat va uning turlari to'g'risida gap ketganda, birliklar orasidagi o'zaro aloqa va bog'lanishni nazarda tutgan. Chunki so'z tarkibidagi tovushlarning ketma-ket joylashishi (ism) so'zdagi asos bilan qo'shimchaning ketma-ket kelishi (ular) va so'zlarning ketma-ket kelishi (ularning ismi) chiziqsimon aloqa, sintagmatik aloqa turiga kiritilgan. Sintagmatik aloqaning sintaktik aloqadan farqli jihatlari ham tahlil qilingan, sintaktik aloqada so'z va gaplarning tobe-hokimlik munosabatini nazarda tutgan. Bo'limda pog'onali munosabatni ham keltirib o'tgan. Masalan, Halim va Karim so'zlari – ism leksemasida, ism leksemasi – nom leksemasida, nom leksemasi – ot leksemasida qamrab olinadi. Mana

²⁴ Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993; Менглиев Б. Р. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабатлар: Филол. фан. док. дис. автореф. – Тошкент, 2002.

²⁵ Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993.

²⁶ Ўша манба. – Б.38.

shu holat pog'onali munosabat ekanligi bildirilgan.²⁷

Lisoniy ziddiyat va uning turlari haqida gap borganda esa, ziddiyat – ziddiyatga kirishayotgan paradigma a'zolari ziddiyat a'zolari, bir belgi asosida qarama-qarshi qo'yilishi ziddiyat belgisi ekanligi tushuntiriladi. Ziddiyatni tizimda tutgan o'rniga ko'ra, ziddiyat a'zolarining o'zaro munosabatiga ko'ra va turli vaziyatda ziddiyatning amal qilishiga ko'ra turlari borligi izohlanadi.²⁸

Lisoniy ziddiyat, ziddiyat tizimiga munosabatiga ko'ra o'lchamli va uchrovchanlik belgilari borligi bilan farqlansa, lisoniy ziddiyat o'lchovining o'zi bir o'lchamli va ko'p o'lchamli turlarga bo'linadi.

Bir o'lchamli faqat, agar belgilar majmui tizimda zidlanuvchi ikki a'zo uchungina tegishli bo'lsa (l – yon, h – bo'g'iz), ko'p o'lchamli ziddiyatda esa, boshqa a'zoda ham uchraydi. (m – d) Uchrovchanlik belgisiga ko'ra ajralgan va muntazam ziddiyatga bo'linib, ajralganlikda boshqa ziddiyatga asos bo'lmaydi (lablanganlik-lablanmaganlik). Bir belgi esa turli a'zoni juftlab zidlasa, muntazam ziddiyatga sabab bo'ladi. Masalan, ota-ona, aka-uka.

O'quv qo'llanmada a'zolari orasidagi munosabatiga ko'ra ziddiyat turlarini: noto'liq, darajali va teng qiymatli tarzida ifodalaydi. Shuni aytish muhimki, bunda ziddiyat belgisini aniqlab, shunga nisbatan noto'liq ziddiyatga baho beriladi. Masalan, erkak jinsiga nisbatan o'g'il va bola leksemalarini oladigan bo'lsak. O'g'il leksemasi semantik tarkibi aniq berilgan, shu boisdan, uning munosabati ijobiy bo'lib, noto'liq ziddiyatni tashkil etadi. Chunki bola leksemasida “er” va “ayol” semasi aniq emasdek.

Mavzuga oid nazorat savollari.

4. Praga, Amerika va Kopengagen strukturalizm maktablarini izohlab bering.

5. Strukturalizm maktablari bir-biri bilan qaysi jihatlariga ko'ra birlashishini tushuntirib bering.

²⁷ Менглиев Б. Р. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабатлар: Филол. фан. док... дис. автореф. – Тошкент, 2002.

²⁸ Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. –Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 128 б.

6. Fahmiy va nazariy bilishlarni izohlang.
7. Lison va nutq masalasini tushuntiring.
8. Paradigma to'g'risida ma'lumot bering.
9. Lisoniy munosabat to'g'risida ma'lumot bering.
10. Lisoniy ziddiyat to'g'risida ma'lumot bering.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Усмонов С. Умумий тилшунослик. –Тошкент: Ўқитувчи, 1972.
2. Расулов Р. Умумий тилшунослик. –Тошкент: Фан технологиялар, 2007. – Б. 118.
3. Раҳматуллаев Ш. Семема – мустақил тил бирлиги. // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент, 1984. №5.
4. Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. –Тошкент: Ўқитувчи, 1993. –326.
5. Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Қурбонова М, Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан ва технология, 2009. – Б. 28.
6. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 128 б.

2-mavzu: Grammatik ma'no va grammatik kategoriya

REJA:

1. Lug'aviy va grammatik ma'nolar haqida.
2. Grammatik ma'nosiga ko'ra mustaqil va nomustaqil leksemalar.
3. So'z turkumlarini belgilashdagi semantik, morfologik va sintaktik belgilar.

Tayanch so'z va iboralar: *leksema, grammatik ma'no, mustaqil va nomustaqil leksema, lug'aviy ma'no, teng qiymatli ziddiyat, so'z turkumi, so'z shakllari, umumiy, mavhum, zarur, barqaror, invariant, uzual, ijtimoiy, aniq, tasodif, barqaror, okkazional, individual.*

Morfologiyada leksemalarni umumiy grammatik ma'nosiga ko'ra mustaqil va nomustaqil leksemaga bo'lish privativlik asosida amalga oshirilishini hisobga olib, lug'aviy ma'no ifodalay olmaslik belgisiga ko'ra nomustaqil leksemalar ijobiy ma'noni ifodalab noto'liq ziddiyatni mustaqil leksemalar bilan hosil qila oldi.²⁹ Chunki mustaqil leksemalarida "lug'aviy ma'no ifodalash yoki lug'aviy ma'no ifodalay olmaslik" belgilari mujassamlashgan. Bundan tashqari, bir belgining o'sib borishi darajali ziddiyatni tashkil etishi aytilgan. Masalan, *bet, yuz, chehra*. Bunda kamida ziddiyat a'zolari uchta tashkil etishi asos qilib olinadi.

Teng qiymatli ziddiyatda ikki a'zo biri-biriga qarshi qo'yilib, har biri o'ziga xos belgiga egalik bilan ajralib turadi. Masalan, *jarangli-jarangsiz, ota-ona*.

Umuman olganda, grammatikada so'z o'zgartirish va so'z biriktirish kabi til qoidalari, bunda so'z o'zgartirish doirasida so'z shakllari va so'z shakllarining hosil qiluvchi grammatik kategoriyalar to'g'risida so'z borsa, o'zgarish asosida farqlanuvchi so'zning grammatik guruhi – so'z turkumi hamda bu hodisalarning mahsuli, so'z birikmalar hamda gap bir vujudning ikki tomoni sifatida talqin etiladi.

²⁹ Мадраҳимов И. Сўзнинг серқирралиги ва уни тасниф қилиш асослари: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1994.

Demak, morfologiyaning obyekti soʻzning oʻzgarishi bilan bogʻliq, yaʼni soʻzning morfologik strukturasidir. Bu – grammatik morfema, grammatik morfem sistema-morfologik kategoriya, soʻzning oʻzgarish asosidagi sistema, soʻz shaklning hosil boʻlish yoʻli va usuli, vositasi, bu vositaning turlari.

Grammatik maʼno ifodalashning fonetik, leksik, morfologik va sintaktik vositalari borligini nazarda tutadi.

Lisoniy birlik grammatik maʼnodan holi qilinsa, u nutq uchun tayyor boʻlmasligini *bola* soʻzi orqali asoslangan. Chunki *bola* soʻzida kelishik, son, hokim yoki tobe uzviylik, qaysi gap boʻlagi kabi grammatik maʼnolari lisoniy sathda mavjud emas, uning lugʻaviy maʼnosi nutqqa grammatik maʼno vositasiga kiradi. Demak, har qanday leksema lugʻaviy maʼnosi ustiga grammatik maʼnolar qoʻshilsa, u nutq tarkibiga kira oladi. Hamda grammatik maʼno morfologiyada soʻz turkumlari, har bir soʻz shaklning maʼlum bir morfologik kategoriya darajasida qarama-qarshi turuvchi maʼnosi yuzaga chiqsa, sintaksis doirasida predikativlik, soʻz birikmalarida hokim va tobe uzvlarning, gap boʻlaklarining oʻzaro munosabati, hatto, soʻz yasaliş natijasida soʻzning turkumdagi oʻrni oʻzgarib ketganda ham (*aql–ot, mavhum ot, aqlli–sifat, oddiy daraja*) grammatik maʼno kuzatilishi maʼlumdir.

Soʻzlarni turkumlarga guruhlashda lugʻaviy va grammatik maʼnosiga qarab ajratilishi qadimdan mavjud. Chunki *bolaga* xos belgilar – grammatik maʼnosi: ot, birlik son, bosh kelishik, ega; lugʻaviy maʼnosi: odam jinsiga mansub boʻlgan, yosh jihatdan voyaga yetmagan shaxs yoki voyaga yetgan kishining farzandi, avlod. Albatta, bu holatlarning hammasi qadimdan olimlar tomonidan idrok etilgan hodisadir.

Umuman olganda, bir turkumga kiruvchi soʻzlarning grammatik maʼno ifodalashi yoki biror guruhning qanday grammatik shaklda boʻlishidan qatʼiy nazar barcha soʻzlarga xos boʻlgan grammatik maʼno ifodalashi bilan voqelanadi. Grammatik maʼno turlarini umumiy grammatik maʼno, oraliq grammatik maʼno, xususiy grammatik maʼno tarzida guruhlagan.³⁰ Egalik qoʻshimchasi

³⁰ Шахабитдинова Ш.Х. Грамматик маъно талқини хусусида: Фил. фан. ном. ...дисс. автореф. – Самарқанд, 1993.

keyingi soʻzni oldingi soʻzga bogʻlash vazifasini bajarishi umumiy grammatik maʼno hisoblanib, aynan shu grammatik maʼnoning turli misollarda kelishi xususiy maʼnoni tashkil etadi. Masalan, *Halimaning kitobi* birikmasidagi “kitob” soʻzini “Halima” soʻziga bogʻlanishi kabi. Biroq shuni taʼkidlamoqchimizki, egalik qoʻshimchasining keyingi soʻzni oldingi soʻzga bogʻlash vazifasini bajarishi, uning umumiy grammatik maʼnosi emas, balki grammatik vazifasidir. Oldingi soʻz bilan keyingi soʻzning maʼno munosabatini ifodalash – tegishlilik-qarashlilik maʼno munosabatini ifodalashi uning umumiy grammatik maʼnosi boʻladi.

Demak, umumiy grammatik maʼnoda lisoniy birliklarga xos barcha belgiga umumiy (barchasi), mavhum (qaysiligi aniq emas), zarur, barqaror, invariant, uzual, ijtimoiy, lisonning barcha jihatlarini qamrab olish imkoniyatiga ega boʻlgan hodisa. Lekin xususiy grammatik maʼnoda aynan oʻsha lisonga tegishli boʻlgan belgi xususiyatlarining maʼnosi beriladi. Xususiy, aniq, tasodif (nutqlari barcha soʻzlar orasidan tanlab olinadi) barqaror, okkazonal, individual kabi. Aniqrogʻi, grammatik maʼno nutq orqali kerakli tovush, qoʻshimcha, soʻz, yasama soʻz, soʻz birikmasi va gapning kerakli birliklari tanlab olinadi. Umumiy grammatik maʼno grammatik kategoriyaning maʼnosi – shakllarining maʼnosiga nisbatan olinadi. Masalan, kelishik qoʻshimchalari – oldingi soʻzni keyingi soʻzga bogʻlash, egalik qoʻshimchasi – keyingi soʻzni oldingi soʻzga bogʻlash kabi tarkibda amalga oshiriladi.³¹ Bu gaplar, fikrlarning hammasi shu sohalarida tadqiq olib borgan olimlar tomonidan allaqachon idrok etilib boʻlinganligi maʼlumdir.

Tilshunoslikda kelishik va egalik qoʻshimchasi misolida oladigan boʻlsak, “oldingi soʻzni keyingi soʻzga bogʻlash” yoki “keyingi soʻzni oldingi soʻzga bogʻlash” – umumiy grammatik maʼno hisoblansa, “oldingi otni keyingi feʼlga vositasiz toʻldiruvchi sifatida bogʻlash” yoki “keyingi otni oldingi otga bogʻlash” oraliq grammatik maʼno deb yuritiladi. Xususiy grammatik maʼno, non soʻzini emoq soʻziga vositasiz toʻldiruvchi sifatida bogʻlash” yoki “nonim soʻzini mening soʻziga egalik qoʻshimchasi yordamida bogʻlash” (UGM = Mus+Mus; OGM Ot+f; XGM: s+s). Darhaqiqat,

³¹ Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. – Ташкент: Фан, 1989.

oraliq grammatik ma'no umumiy grammatik ma'no bilan xususiy grammatik ma'no nisbatan olinib, uning mavqei nisbiy hisoblandi. Grammatik ma'noda "hamroh ma'no" tushunchasi va "yondosh ma'no" ham kuzatiladi.³² Shu sababdan kategorial ma'no shaklning mohiyati va umumiy grammatik ma'noning asosidir. Hamroh ma'no umumiy grammatik ma'noga kirmaydi. Yondosh ma'no umumiy grammatik ma'noga kiradi, lekin mohiyat tarkibiga kirmaydi.

Har qanday lisonning grammatik ma'nolari olinadi, ulardagi bir xillikdan tashqari ma'no olib tashlansa, yuqori bosqich qiyoslanish qoladi va umumiy grammatik ma'noni tashkil etadi. Umuman olganda, ma'noviy xususiyatlarni tekshirish qaysi bosqichda olib borayotganligiga bog'liq. Chunki tadqiq xususiyligidan umumiylikka qarab yo'naltirilsa, har bir bosqichga o'tish bilan xususiyligining zamiridagi grammatik ma'no chuqurlashib boraveradi. Masalan, qo'shimcha, qo'shimchalar o'rtasidagi munosabat, kategoriya o'rtasidagi munosabat, kategoriyalar o'rtasidagi munosabatning tekshirilishi – xususiyligidan umumiylikka qarab boradi.

R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva Z.Yunusova, M.Abuzalovalarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" nomli o'quv qo'llanmasida so'zshakl va uning asosiy tiplari to'g'risida ham fikr yuritiladi. Undagi so'zshakl – leksemaning nutqda voqelangan ko'rinishi bo'lib hisoblanadi, so'zning grammatik shakli esa leksemaning nutqdagi har xil ko'rinishi hamda u bir sememani ifodalab qo'shimcha ma'no ottenkasi bilan farqlash yoki sintaktik munosabat ko'rsatishga xizmat qiladi, tarzidagi fikrlar ham qayta ta'kidlangan. Yana aytamiz, bu fikrlar juda qadimdan tilshunoslikda ma'lum bo'lib, ular idrok etib bo'lingan.

So'zshakllardagi qo'shimchalar miqdoriga qarab bir grammatik ko'rsatkichli (kitob+lar) va ikki grammatik ko'rsatkichli (kitob+lar+ga) bo'lishi hamda birdan ortiq grammatik ma'noni ifodalashi mumkin. (boraman – I shaxs hamda birlik)

So'zshakllarning nutqdagi turlari sanab o'tilgan:³³

³² Мусулмонова Н.Р. Грамматик шаклда категориал, ёндош ва ҳамроҳ маъно: Филол. фан. номзоди... дис. автореф. – Тошкент, 2007.

³³ Ўша манба. – Б.146–147.

- a) affikslar yordamida hosil bo'lgan so'zshakl;
- b) nomustaqil so'z bilan ifodalanadigan so'zshakl;
- v) affiks hamda nomustaqil so'z yordamida ifodilangan shakl;
- g) so'zning takrorida hosil bo'lgan so'zshakl hamda takroriy shakl.

Sintaktik shakldagi qo'shimchasiz so'z nol shakl sifatida berilganligini ham ko'rish mumkin. Grammatik ma'noning affiksali vositalar so'f nomustaqil va nomustaqil vazifadagi so'z, so'z tartibi, takror, juftlashish, ohang, sintaktik qolip kabi turlar orqali hosil qilinishi qayta-qayta ta'kidlanishi kuzatiladi.

O'quv qo'llanmada affiksatsiya tilimizda grammatik ma'no ifodalashning eng keng tarqalgan turi sifatida ekanligi ham ta'kidlanadi. Affikslar so'z yasovchi affiks va shakl yasovchi affikslarga bo'linadi. Bu juda ko'p boshqa manbalarda ham qayd etilgan.

O'zbek tilshunosligi oldin arab, keyin rus tili grammatikalariga tayangan holda xulosa chiqarib kelgan. O'zbek substantzial tilshunosligi esa o'zbek tilining agglyutinatив tabiati va ontologik shakl yasash xususiyatiga tayangan holda grammatik ko'rsatkichlarning yangicha tasniflarini uch turga bo'lib o'rganadi:

- a) lug'aviy; b) sintaktik; v) lug'aviy-sintaktik.³⁴

Bu fikrlarning hammasi tilshunoslikda allaqachon aytilgan fikrlar bo'lib, mualliflar ularni faqat ta'kidlayaptilar, xolos. Va bu, umuman olganda, zararsizdir.

Lug'aviy shakl hosil qiluvchilarga fe'llarga xos nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik, o'zgalovchi, sintaktik va analitik harakat tarzi shakllari, otga xos son, kichraytirish-erkalash, sifatga xos daraja va songa xos ma'no turlarini hosil qiluvchi vositalar kiradi.

Sintaktik shakl hosil qiluvchilar bir so'z turkum bilan chegaralanmay, istalgan mustaqil so'zga qo'shib, so'zni sintaktik aloqaga kiritadi yoki sintaktik vazifa tayinlaydi. Bunga kelishik, egalik va kesimlik shakllari kiradi. O'zgalovchi kategoriya shakllari sifatdosh, ravishdosh va harakat nomi lug'aviy-sintaktik shakl hosil qiluvchi atamasi bilan nomlangan.

³⁴ Баҳриддинова Б.М. Феъл луғавий шакли тизими. Тур категорияси: Филол. фан. номзоди... дис. – Самарқанд, 2002.

Kategoriya termini falsafa fanidan kirgan bo'lib, "obyektiv borliq va bilishdagi mohiyatan ko'proq qonuniy aloqa va munosabatni aks etuvchi umumiy tushuncha"dir deb berilgan. Bir-biriga yaqin ma'no umumiyliigi ostida birlashgan va o'zaro bu ma'noning parchalanishi, xususiylashuvi asosida zidlanadigan shakllar va ma'nolar sistemasi grammatik kategoriya hisoblanadi, deyilgan. "Grammatik kategoriya – bir umumiy grammatik ma'no ostida birlashuvchi, shu asosida bir-birini taqozo hamda bu umumiy ma'noning parchalanishi asosida inkor qiluvchi shakllar tizimiga" aytiladi.³⁵

O'zbek tilshunosligida shu kunga qadar 9 ta grammatik kategoriya mavjudligi qayd etib kelinadi: a) nisbat kategoriyasi; b) o'zgalovchi kategoriya; v) harakat tarzi kategoriyasi; g) bo'lishli-bo'lishsizlik kategoriyasi; d) son kategoriyasi; e) daraja kategoriyasi; yo) kelishik kategoriyasi; j) egalik kategoriyasi; z) kesimlik kategoriyasi (shaxs-son, zamon, tasdiq-inkor, mayl modallik).

Negadir o'timli-o'timsizlik kategoriyasi qayd etilmagan. Bu to'g'ri emas. Grammatik ma'no tarkibidagi kategorial yondosh va hamroh ma'nolar sodda va murakkablik ko'rinishlarida ma'lum bir vazifani bajaradi. Murakkab kategoriya shakllarida ma'no murakkab, boshqa kategoriyaga mansub ma'nolar ham mujassam bo'ladi. Bunga egalik, o'zgalovchi, harakat tarzi va kesimlik kategoriyalarini kiritish mumkin.

So'z turkumi yoki gap bo'lagiga xosligi jihatidan grammatik kategoriya ikkiga bo'lingan.

a) leksik – morfologik kategoriya;

b) funksional – morfologik kategoriya.

Leksik-morfologik kategoriya so'zlarning ayrim guruhiga, ya'ni turkumlariga xos, ular sirasiga nisbat, harakat tarzi, bo'lishli-bo'lishsizlik, o'zgalovchi, son, sub'ektiv munosabat, qiyoslash, daraja kategoriyalari kiradi. Funksional – morfologik kategoriyaga kelishik, egalik va kesimlik kategoriyalarning kirishi – kesimlik kategoriyasi kesim vazifasida keluvchi barcha so'zlarga xos, kelishik kategoriyasi so'z birikmasidagi tobe a'zo vazifasida

³⁵ Фалсафа асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б.155–160.

keluvchi soʻzni shakllantirsa, egalik kategoriyasi qaratuvchili birikmadagi hokim aʼzoni shakllantiruvchi grammatik kategoriyadir, tarzida baholanib, ajratilib kelingan.

Qoʻllanmada “Soʻz turkumlari va ularni tasniflash tamoyillari” mavzusi ostida soʻz turkumlarining leksika va grammatika, lison va nutq, til va borliq munosabatlari jiddiy kuzatiladi.

Soʻz turkumlarini belgilashda uchta: semantik, morfologik va sintaktik belgilar asosiy oʻrinni egallaydi.³⁶ Chunki baʼzi qarashlarda morfologik belgi etakchilik qilsa, baʼzilarida sintaktik belgi asosida boshlanib, semantik belgi bilan yakunlanadi.

Soʻzlarning semantik tasnifida uch turga: mustaqil lugʻaviy maʼnoli soʻz (feʼl, ot, sifat, son, ravish, taqlid) nomustaqil lugʻaviy maʼnoli soʻz (olmosh va soʻz-gaplar, modal, undov, taqlid va inkor, taklif) va lugʻaviy maʼnosiz soʻzlarga (koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama) alohida eʼtibor qaratiladi.

Soʻzning morfologik tasnifida turkumlar oʻzgaruvchi leksema va oʻzgarmas leksemalarga boʻlinib, feʼl, ot, sifat va son soʻz turkumlari kirib, tasniflovchi grammatik belgisi mavjudligi qayd etilgan, oʻzgarmas leksemalarga taqlid, ravish, koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama va soʻz-gaplar kiritilib, bularda bunday belgi mavjud emasligi qayd etiladi. Olmoshning oʻrni berilmaganligi sabab, uning ot-olmosh, son-olmosh, sifat-olmosh va feʼl olmosh kabi turlari mavjud boʻlib, sonlanishi, nisbatlanishi, tarzlanishi, oʻzgalanishi, darajalanishi va son shakllarini qabul qilishi belgilab berilgan.

Leksemalarning sintaktik tasnifida nutqda boshqa leksemalar bilan bogʻlana olish-olmasligi, gap boʻlagi boʻlib kela olish-olmasligi nuqtai nazaridan 3 turga ajratilgan: gap boʻlagi boʻlishiga xoslanmagan, gap boʻlagi boʻlishiga xoslangan va sintaktik aloqa vositasi boʻlishiga xoslangan soʻzlarga boʻlinadi.

Gap boʻlagi boʻlishiga xoslanmagan soʻzlar tarkibiga kiruvchi soʻz-gaplar sintaktik aloqaga kirmaganligi uchun, ajraluvchilik xossasiga, oʻzi mustaqil gap boʻlib kelish qobiliyatiga ega.³⁷

³⁶ Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI–XII вв. – Ташкент: Фан, 1989; Мадрахимов И. Сўзнинг серкирралиги ва уни тасниф қилиш асослари: Филол.фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1994.

³⁷ Бобокалонов Р. Ўзбек тилида семантик-функционал шаклланган сўз-гаплар. Филол. фан. номзоди... дис. автореф. – Тошкент, 2000.

Ko‘makchi, bog‘lovchi va yuklama esa, sintaktik aloqaning vositasi bo‘lishiga xoslangan so‘zlar qatoriga kiritilgan.

Xullas, mustaqil so‘z turkumlarini yetti turga ajratib, taqlid so‘zlar ham kiritib o‘tilgan, oraliq so‘zlar esa so‘z-gaplardan iboratligi ko‘rsatilgan.

O‘quv qo‘llanmaning so‘z turkumlari transpozitsiyasi mavzusida – so‘z turkumining ko‘chishi, ya’ni vazifa semasi kuchsizlanib, boshqa so‘z turkumga xos semantik va grammatik belgiga ega bo‘lishi nazarda tutilgan. Dialektik mantiqdagi “oraliq uchinchi” qonuniyatidan kelib chiqqan holda, bu hodisaning “gibridlanish” sifatida baholanishi aytilgan. Bunda olmoshga, otga, sifatga, ravishga, yuklamaga, modal so‘zga, bog‘lovchi va ko‘makchiga ko‘chish kabi vaziyatlar tahlilga tortilgan.³⁸

Son so‘z turkumidagi *-ovlab*, *-ovlashib* shakllaridan jamlovchi sonning ravishdosh shakli hosil qilinganligi ta’kidlanadi. Masalan, *ikki/ov/lash/ib*.³⁹ *-ala*, *-ov*, *-ovlon* kabi qo‘shimchalari bilan hosil qilinishi tahlil qilingan so‘z shakllari keltirilgan va *-alada* sonlik belgilarining birmuncha saqlanganligi ta’kidlanadi (*Uchala bola ham qo‘shni qishloqda ekan*), *-ovlon* shaklida otlik belgisi yaqqol ko‘rinadi (*oltovlon ola bo‘lsa, og‘zidagini oldirar*); *-ov* shaklida esa, ikki jihat ham mavjud bo‘lganligi sababli, unga gibrid birlik sifatida qarash mumkinligi aytiladi.

Demak, aytish mumkinki, so‘z turkumlari orasida doimiy aloqa bor bo‘lib, bu aloqa til tizimining doimiy o‘zgarishda, taraqqiyotdagi jonli jarayon ekanligidan dalolat beradi.⁴⁰

Mavzuga oid nazorat savollari.

4. Lug‘aviy va grammatik ma’noni izohlang.
5. Grammatik ma’nosiga ko‘ra mustaqil va nomustaqil leksemalarga izoh bering.
6. So‘z turkumlarini belgilashdagi semantik, morfologik va sintaktik belgilar farqlang
7. Grammatik kategoriya nima?

³⁸ Ўша манба. – Б.173.

³⁹ Ўша манба. – Б.173.

⁴⁰ Элтазаров Ж.Д. Ўзбек тилида сўз туркумларининг ўзаро алоқаси ва кўчиши: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Самарқанд, 2005. – 250 б.

8. Grammatik ma'no nima?

Adabiyotlar ro'yxati

1. Мадрахимов И. Сўзнинг серқирралиги ва уни тасниф қилиш асослари: Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1994.

2. Шахабитдинова Ш.Х. Грамматик маъно талқини хусусида: Фил. фан. ном. ...дисс. автореф. – Самарқанд, 1993.

3. Мусулмонова Н.Р. Грамматик шаклда категориал, ёндош ва ҳамроҳ маъно: Филол. фан. номзоди... дис. автореф. – Тошкент, 2007.

4. Бахриддинова Б.М. Феъл луғавий шакли тизими. Тур категорияси: Филол. фан. номзоди... дис. – Самарқанд, 2002.

5. Фалсафа асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б.155–160.

6. Бобокалонов Р. Ўзбек тилида семантик-функционал шаклланган сўз-гаплар. Филол. фан. номзоди... дис. автореф. – Тошкент, 2000.

3-mavzu: Soʻzlarning morfologik guruhleri va kategoriyalari

REJA:

1. Sistem va struktur hodisalar.
2. Tilning oʻziga xosligi.
3. Fonetik, leksik, grammatik strukturalar.

Tayanch soʻz va iboralar: *leksik sath, lison va nutq, soʻz yasovchi, shakl yasovchi, grammatik maʼno, morfologik kategoriya, grammatik maʼno, mustaqil va nomustaqil leksema, lugʻaviy maʼno, soʻz shakllari.*

Til – sistema sifatida qadimdayoq olimlarimiz tomonidan eʼtirof etib kelingan, unga Mahmud Koshgʻariy, Abu Hayon, Jaloliddin Turkiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Zamaxshariy, yirik tilshunos Sibavayxiy kabi tilshunos va olimlar eʼtirof etilgan. Bundan tashqari tarkibiy qismlari ham alohida sistemalardan iborat ekanligi ilmiy adabiyotlarda asoslangan boʻlib, tilni yaxlit holda sistemaviy va sathlarini sistema sifatida oʻrganish ham bir-biridan farq qilganligiga guvoh boʻlamiz. Umuman olganda, tilshunoslik fani sistemalarini oʻrganar ekan, bunda tilning birorta sathini chetda qolmaydi. Ammo tilni sistema sifatida dastlabki oʻrganilish davriga yoki oʻrganilganlik darajasi koʻra jihatlari farq qilishi mumkin. Darhaqiqat, olimlarning taʼkidlashicha, leksik sath tilning markazida joylashadi. Shunga sababdan, leksikani tadqiq etish qadimiyroqdir. Misol uchun bunga V.A.Zvegintsevning asari bilan tanishishning oʻzi kifoya qiladi. Bu kitobda fonetika, leksikologiya, leksikografiya, hatto, arab tilidagi soʻzlarning sinonimlari oʻrganilganligiga guvoh boʻlamiz.⁴¹ Lekin shuni aytish kerakki, bu asarda hind va grek tilshunosligi tarixida fonetika va grammatika sathlarini oʻrganishning oldinroq boshlanganligi hamda, avvalo, gap oʻrganilganligi haqida ham maʼlumotlar berilgan.⁴² Xulosa shundaki, «Til hodisalarini sistemaviy tadqiq qilish, lugʻat tarkibini tadqiq qilish va, asosan, XX asrning 70-yillaridan boshlandi»,

⁴¹ Звегинцев В.А. История языкознания XIX–XX веков в очерки и извлечениях. № 1. – Москва., 1964, – С. 20.

⁴² Шу манба. – Б. 9.

tarzida aytilayotgan fikrga to'la qo'shilib bo'lmaydi.

Yana bir ma'lumot, leksik sathni sistemaviy o'rganish bidan leksik sathni komponent tahlil usulida o'rganish bir-biridan farq qiladi. Demak, tilni, uning sathlarini sistema sifatida o'rganish bilan, ma'lum tadqiq usullarini aralashtirib qo'llash ham yo'q emas degan fikrga kelamiz. Bu haqdagi akademik A.Hojiyev va professor Yo.Tojiyevlarning «O'zbek tilshunosligining dolzarb muammolari» ruknida berilgan maqolalarida yoritib berilganligiga guvoh bo'lamiz.⁴³

O'zbek tilshunosligini yangicha talqinda tadqiq qilishi uchun dastlab u bosib o'tgan qadamlarni tahlilga tortmoq maqsadga muvofiqdir. O'zbek tilshunosligida o'tgan asrda yaratilgan ilmiy tadqiqotlar keyingi davr uchun asosiy manba sifatida baholanishi mumkin, deb o'ylaymiz. Chunki XX asrning 90-yillaridagi tilshunoslikda hamda XXI asr boshlaridagi tilshunoslikda o'z ilmiy faoliyatlarini 60–70-yillardan boshlagan tilshunoslarning ko'pchiligi yetakchilik qilgan.

Tilshunoslik taraqqiyoti haqida fikr yuritar ekanmiz, ana shu davrda doktorlik dissertatsiyalari sifatida himoya qilingan ilmiy ishlarga qisman to'xtalib o'tishni ma'qul ko'ramiz. Istiqolol arafasida R.Rasulov, A.Berdaliyev, E.Begmatov, F.Ubayeva, G'.Zikrillayev, A.Mamajonov, Yo.Tojiyev, I.Mirzayev⁴⁴ va K.Nazarovlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa, bevosita istiqolol davrining o'zida ham 50 ga yaqin doktorlik dissertatsiyalari yoqlandi. Mazkur tadqiqot ishlarining har xil saviyada

⁴³ Хожиев А. Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2006. – Б. 24–28; Тожиев Ё. Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – Б. 40–48.

⁴⁴ Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феълларининг облигатор валентликлари. – Тошкент: Фан, 1989; Бердалиев А. Семантико–сигнификативная парадигматика ва синтагматические отношения в конструкциях сложно–подчинённого предложения узбекского литературного языка. – Тошкент, 1989; Бегматов Э. Собственный пласт лексики современного узбекского литературного языка. – Тошкент, 1989; Убаева Ф. С. Семантико-грамматические особенности обстоятельства в современном узбекском литературном языке: Автореф. дисс. ..докт. филол. наук. Ташкент, 1988; Зикриллаев Ф. Семантико–функциональное исследование системы предикативных категорий узбекского глагола. – Тошкент, 1988; Мамажонов А. Стилистические особенности сложных предложений современного узбекского литературного языка. – Тошкент, 1990; Тожиев Ё. Ўзбек тилида аффиксал синонимия. – Тошкент: Университет, 1991; Мирзаев И. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста. – Тошкент, 1992; Назаров К. Основы узбекской пунктуации. – Тошкент, 1988.

bajarilganligidan qat'i nazar, ular o'zbek tilshunosligining shu davri uchun eng dolzarb muammolar yoritib berilgan ishlardir. Yana shuni ta'kidlash kerakki, istiqlol davrida 100 dan ortiq nomzodlik dissertatsiyalari ham himoya qilindi. Ular ham o'zbek tilshunosligining dolzarb muammolarini tadqiq etishga bag'ishlangan, uning taraqqiyotiga ma'lum hissa bo'lib qo'shilganligi va tilshunoslik masalalarini tahlil qilib berganligidir.

O'zbek tilshunosligining dastlabki vakillari va ular qatorini to'ldirgan keyingi olimlar uning to'liq shakllanishini ta'minlashda katta jonbozlik ko'rsatishdi. Bu o'zbek tilshunosligining eng murakkab sathlariga aloqador va yechimini kutayotgan, nazariy asoslanishi dolzarb bo'lgan hamda tilshunoslikning muhim jihatlarini belgilab beruvchi tadqiqotlar sirasiga M.Mirtojiyevning «O'zbek tili semasiologiyasi» (2010), A.Hojiyevning «O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasallishining nazariy masalalari» (2010), A.Nurmonovning «Struktur tilshunoslik ildizlari va yo'nalishlari» (2006), R.Rasulovning «Umumiy tilshunoslik» (2005) kabi ilmiy asarlar kirishi to'g'ri bo'ladi, deb o'ylaymiz.

Yuqoridagi keltirilgan tadqiqotlardan biri akademik A.Hojiyevning "O'zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasallishining nazariy masalalari" asarida lison va nutq munosabatiga ham fikr bildirilgan. Til birligining mohiyati to'g'risida gap ketganda, uning lison va nutqqa munosabatini, qolaversa, lisoniy va nutqiy birlik bo'lishini belgilash talab qilinadi. Shu bois o'zbek tili sistemalarining shakllanishi bilan bog'liq muammolarga e'tibor qaratilishi lison va nutqni farqlash, har birining mohiyatini aniq belgilash birinchi vazifa, deb ta'kidlaydi. Olim o'zbek tilshunosligida til va nutq masalasiga e'tibor qaratishda ikki xil kamchilikka e'tibor qaratadi: a) lison va nutq masalasida o'zga tilshunoslikda mavjud bo'lgan fikrlardan to'la va o'rinli foydalanilmaganligi; b) lison va nutq masalasida bevosita o'zbek tili materiallari asosida ish ko'rilmaganligi. Shu sababli bu holat masalani ijobiy hal qilishga yo'l qo'ymasligi hamda boshqa tilshunoslardan olingan materialarni o'zbek tili manbalari tasdiqlamasligini ko'rsatishi keltirilgan.

Bundan tashqari professor Sh.Rahmatullayevning "Til qurilishining asosiy birliklari" asaridagi tilga berilgan ta'rifda,

dastlab, til va nutqni farqlash lozimligini aytib, bular bo'yicha xulosalarini keltiradi. Lisoniy va nutqiy birlikiga oydinlik kiritgani, lekin til bilan nutq haqida aniq tasavvur bermasligiga ishora qiladi.⁴⁵

Olim yuqoridagi manbada lisonning asosiy xususiyatlari bevosita kuzatishda berilmaganligi va kishi xotirasining markazida mavjud birliklar ularning o'zaro munosabati haqidagi tasavvurlar hamda foydalanish qoidalariga tayyor boylik ekanligi sifatida tushinadi.⁴⁶ Ilmiy asarda lisonga, lisoniy birliklarga beriladigan ta'riflarga e'tiroz bildirmay, "til birliklarining o'zaro birikishi haqidagi qoidalar" va "o'zaro munosabat haqidagi tasavvurlar" lisoniy birlik hisoblanmay, ular nutq hosil bo'lish jarayonida ham nutq birligiga aylanmasligini ta'kidlaydi. Masalan, *ishchilarni* so'zida uch unli fonema, bir tub so'z, ikkita yasama so'z voqelanadi, har bir yasama so'zda so'z yasovchi birlik, shuningdek, shakl yasovchi ikki til birligi aks etgan va so'z yasalishi, shakl yasash qoidalariga asoslanadi, ya'ni so'z shakl va yasama so'zlar ma'lum qonuniyatlari asosida ro'yobga chiqadi. Muxtasar qilganda, "namoyon bo'lish" to'la aks etadi. Biroq biror bir nutq hodisasi yuz berganligi, aytilgan lisoniy birliklarning birortasi nutq birligiga aylanmaganligi uqtiriladi. Shu o'rinda, so'zda ham, leksemada ham fonema ishtirok etmasligi ko'rsatiladi. Buning o'zi bildirilayotgan e'tirozning asossizligidan dalolat beradi.

Xullas, lisoniy va nutqiy birliklarni belgilashda hamda bir-biridan farqlashda ham lison bilan nutqning asosiy xususiyati asoslanishi kerakligi, ya'ni lisoniy birlik nutqqa aloqasi yo'qligi aytilgan.⁴⁷ Nutq birligi esa, nutqda mavjud bo'lishi, nutqsiz nutq birligi bo'lishi mumkin emas, deb ta'kidlanadi hamda lisoniy birliklar nutqdan tashqarida ham amal qilishini aytadi. Va *ishchilarni* so'zi tarkibidagi *ish* qismi, so'z yasovchi, so'z shaklini yasovchi morfemalari lisoniy birlik, ular o'z vazifalari bilan so'z yasash va so'z shaklini hosil qilish uchun xizmat qilishini ta'kidlab birortasini nutq birligi sifatida baholamaydi. "Ishchilarga mukofotlar berildi" – gapidagi *ishchilarga* so'z shakli gap bo'lagi

⁴⁵ Хожиев А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. – Тошкент: Фан, 2010. – Б.6.

⁴⁶ Ўша манба. – Б.7.

⁴⁷ Ўша манба. – Б. 8.

vazifasini bajaradi va nutq birligi hisoblanishi, lekin tarkibidagi fonema, morfema, hattoki, “ish” qismini nutq birligi sifatida keltirmaydi.

Asarda til birligi, til qurilishi, til sathi, tuzilishi, til sistemasi terminlari haqida ham soʻz boradi.⁴⁸ Yuqoridagi terminlarning oʻzbek tilshunosligida muntazam qoʻllanayotganligi, biroq bu atamalarning mohiyati, til hodisasini ifodalay olish-olmasligi masalasida bir fikrga kelinmaganligi, biroq bu holat til sistemasi bilan bogʻliq hodisalarning mohiyatini yoritishda oʻziga xos salbiy oqibatlariga olib kelishi aytilgan. Masalan, fonologik, leksik, morfologik, til qurilishi, morfologik sath birligi kabi birliklardagi “til qurilishi” birikmasi termini qoʻllanilish oʻrni toʻgʻri emas, bu birikma tarkibidagi “qurilish” soʻzi hodisaning mohiyatini aniqlashtirish uchun xizmat qilmasligi aytiladi. Chunki boshqa turkiy tillarda qoʻllangan termin oʻzbek tilida qoʻllanishiga sabab boʻlgan.

Olim sistema va struktura hodisalariga alohida toʻxtalib, A.Nurmonovning sistemaga bergan taʼrifini toʻliq emasligini aytadi. Sistemaga: “sistemaning asosiy muhim xususiyati bir xil qiymatga ega boʻlgan til birliklarining muayyan belgi asosida birlashuvidan tashkil topgan butunlik boʻlishi”, deb taʼrif beradi.⁴⁹ “Struktura” soʻzini, avvalo, sistemadan farqli ekanligi, yaʼni til birliklarining sathlanishida aniqroq tasavvur etish mumkinligini, yaʼni til sathlari yigʻindisi til birliklaridan tashkil topgan deydi. Bunda til birliklari bilan bogʻliq hodisalar, ularining oʻzaro munosabati asosida yuz beradigan hodisalar, yaʼni paradigmalar nazarda tutilmagani tushuniladi. Shu bois, muayyan til sistemasiga mansub birliklari bilan bogʻliq hodisalarga nisbatan tuzilish, tuzilma soʻzlari qoʻllanmasligini taʼkidlangan hamda “til qurilishi” terminiga oʻzbek tili materiallari asosida yondashilsa, “qurilish” hodisasi yoʻqligiga ishora qilinadi. Biroq sistema va struktura atamalari talqinida gʻarb strukturalistlarining fikrlari metodologik asos boʻlganligini aytadi.

Kitobda “tasnif” soʻzining lugʻaviy maʼnosi haqida “Til birliklarining tasnifi” qismida soʻz boradi. Har qanday tasnif muayyan belgi, nuqtai nazar asosida amalga oshirilishi asosiy

⁴⁸ Ўша маъба. – Б. 9-17.

⁴⁹ Ўша маъба. – Б.15.

vazifadir. Buni quyidagicha izohlash mumkin soʻzlarni mustaqil va mustaqil boʻlmagan soʻzlarga ajratishda, lugʻaviy maʼnoga egaligi va ega emasligi, maʼlum soʻroqqa javob boʻlishi yo boʻlmasligi, gap boʻlagi vazifasida kelishi yo kelmasligi nazarda tutiladi. Tilga sistema sifatida yondashilganda esa, “yordamchi soʻz” termini misolida asoslangan. Bu birikmada, “yordamchi” soʻzi ham, “soʻz” soʻzi ham “koʻmakchi”, “bogʻlovchi”, “yuklama”, deb atalayotgan til birliklariga xos umumiy, ham har biriga xos xususiy belgini ham qayd eta olmaydi, yaʼni ularda shu belgilarni qayd etish imkoni yoʻq boʻlib, “yordamchi soʻz” birikmasi “mustaqil soʻz” birikmasi ifodalaydigan tushunchaga zid boʻlgan tushunchani ham bildirsa olmasligi aniq. Bu “mustaqil”ni “yordamchi” bilan zid emasligi toʻgʻrisidagi fikrlarni aytadi. Koʻmakchi, bogʻlovchi va yuklama haqida gap borganda esa, bu til birliklarining soʻz va affiks shaklidagi turini hisobga olib, “soʻz” soʻzi qoʻllanmaydigan termin bilan atalishini aytadi.

Professor R.Sayfullayeva va boshqalarning darsligida tilning oʻziga xosligi – fonetik, leksik, grammatik strukturaning yaxlit oʻrganilganligiga, til esa yaxlit sistema sifatida mavjud, u zohiriy va botiniy tarzida tushunish imkonini berishi aytilgan. Zohiriy alomatida esa tovush, soʻz va qoʻshimchalarni, soʻz – gap va soʻz birikmalarini tashkil etishda namoyon boʻlishi aytiladi. Yaxlitlikning botiniy idrokida esa, ularning maʼnosini, leksik omilning – fonetik, grammatik, grammatik omilning fonetik va leksik hodisalarini farqlashi hamda nutqqa olib chiqish holati nazarda tutilganligiga ishora qiladi.⁵⁰

Grammatika – til qoidalari haqida, bunda soʻz oʻzgartirish doirasida soʻzshakllari, uni hosil qiluvchi grammatik kategoriyalar va oʻzgarish asosida farqlanuvchi soʻzning grammatik guruhi – soʻz turkumi hamda bu hodisalarning mahsuli boʻlmish soʻz birikmasi va gap; morfologiya va sintaksisni farqlashni taqozo etilishi aytilgan. Bundan tashqari, grammatik maʼno, grammatik shakl va grammatik kategoriyalar toʻgʻrisida alohida toʻxtalgan.

Grammatik maʼno barcha til birliklariga xosligi, bevosita nutqni shakllantirishi va umumlashma, abstraktligi kabi uch unsuri

⁵⁰ Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: ЎРОЎМТВ, 2010. – Б. 213.

sanalgan.⁵¹ Bunday unsurlar bevosita nutqni shakllantirishga xizmat qiladi, chunki lisoniy birlik grammatik ma'nodan holi qilinsa, u nutq uchun tayyor bo'lmashligi asoslanadi. Masalan, *olma* leksemasining lug'aviy ma'nosi nutqqa grammatik ma'no vositasida kiradi. Uning kelishik, son, hokim yo tobe aloqa, qaysi gap bo'lagi ekanligi kabi grammatik ma'nolari lisoniy sathda yo'q, biroq ular ishlatilsa, nutq tarkibiga kira oladi deyilgan.⁵² Biroq shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu qayd etilgan fikrlar boshqa olimlarning "Tilshunoslikka oid ayrim qarashlari"da, albatta, ma'lum boshqacharoq tarzda bo'lsa ham ko'p ta'kidlangan. Mualliflar bunga e'tibor qaratmaydi.

Professor Yo.Tojiyev ana shunday qaydlarida, jumladan, quyidagilarni alohida aytib o'tadi: "Har qanday mustaqil so'z gapda qatnashar ekan, avvalo, u bitta ma'nosi bilan ishtirok etadi va, albatta, bir grammatik shakl hamda shakllarga ega bo'lishi shart".

So'z grammatik shaklsiz boshqa so'zlar bilan grammatik munosabatga kirisha olmaydi. Grammatik shakl nol shakl holatida sintetik shakl, analitik shakl yoki sintetik-analitik shakl holatida bo'lishi mumkin. So'zshakldagi nol shakl, albatta, boshqa grammatik shakllarga nisbat berilgan holda qaralar ekan, mavjud shakl hisoblanadi. Boshqa grammatik shakllar shu shaklga nisbat berish orqali hosil qilinadi. Buning uchun, albatta, grammatik shakl tushunchasiga to'g'ri yondashish lozim bo'ladi, chunki har qanday grammatik shakl hamma vaqt ham boshqa grammatik shaklga nisbatan belgilanadi. Busiz grammatik shakl haqida umuman gapirish mumkin emas".⁵³

Xullas, grammatik ma'no, morfologiyada – so'z turkumlari, shuningdek, har bir so'zshaklning tarkibida qarama-qarshi qo'yiluvchi ma'nosi tarzida, sintaksisda – predikativlik, so'z birikmasidagi hokim va tobelik aloqalarning, gap bo'laklarning o'zaro munosabati sifatida namoyon bo'lishini birinchi planga qo'yilgan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, mustaqil so'zlar lug'aviy (non – inson iste'moli uchun ishlatiladigan oziq-ovqat turi) va grammatik ma'no (turdosh ot, ko'plik son, bosh kelishik, ega)ga

⁵¹ Ўша манба. – Б. 217.

⁵² Ўша манба. – Б. 217.

⁵³Тил илмига садоқат // Ё.Тожиёв 70 йиллиги муносабати билан нашр этилган тўплам. – Тошкент: ЎзМУ, 2010, – Б.72.

egaligi bilan ajralanib turadi. Grammatik ma'no esa uch turidagi morfologik ma'no qirralariga ega: a) bir so'z turkumga kiruvchi so'zshaklning ular qanday morfologik shaklda bo'lishidan qat'i nazar, barchasi uchun birday taalluqli bo'lgan grammatik ma'no (predmet); b) bir so'z turkumdagi biror guruhning qaysi grammatik shaklda bo'lishidan qat'i nazar barcha so'zshakllarga xos bo'lgan grammatik ma'no ifodalashi (turdosh ot – bir turdagi predmetlarning umumiy nomi); v) biror so'z turkumdagi ma'lum bir so'zshaklning bir shakldagi turigagina xos bo'lgan grammatik ma'no (otlardagi -gina kichraytirish, erkalash oti faqat asosga to'g'ridan to'g'ri qo'shila oladi).⁵⁴

Demak, lisoniy tabiatli umumiy grammatik ma'no tarzida, lisoniy birliklarga xos barcha belgiga; nutqiy ma'no, nutqiy birliklari xos bo'lgan belgiga egaligi, xususiy grammatik ma'no tarzida ifodalanadi. Umumiy grammatik ma'no har doim ham keyingi ma'noga nisbatan belgilanadi.⁵⁵

Kitobda yana bir jiddiy mulohaza yuritishga majbur qiladigan ma'lumotga duch kelamiz. Bu – umumiy grammatik ma'no ichki tahlilda kategorial ma'no va unga yondosh hodisa farqlanishi berilgan. Masalan, *-lar* ko'plik shaklini oladigan bo'lsak, uning umumiy grammatik ma'nosi "*miqdor*", "*sifat*", "*noaniq*", "*aniq*", "*bo'linuvchi*", "*bo'linmas*" kabi unsurlarga ega. Bu unsurlarning kategoriya markazida "*miqdor*" unsuri yotganligi va qolgan unsurlar unga dahldor emasligi seziladi. Bu matnda shunday xulosaga kelinadiki, kategoriya markazdagi ma'no bilan doimiy ravishda namoyon bo'ladigan ma'no yondosh ma'no sifatida baholanmoqda. Masalan, *miqdor*, *sifat*; *egallik*, *shaxs*, *qarashlilik* kabi. Biroq grammatik formalar nutqda ba'zan umumiy grammatik ma'nosida bo'lmagan ma'noni ham voqelantiradi. Ya'ni shakl mohiyatiga ham, umumiy grammatik ma'no tarkibiga ham kirmaydi. Bu esa hamroh ma'no, deb yuritiladi. Masalan, *-lar* affiksi hurmat ma'nosini, *-ng* affiksi shaxs-son ma'nosini ifodalashini bunga misol bo'lishi mumkin.⁵⁶

⁵⁴ Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: ЎРОЎМТВ, 2010. – Б. 220–221.

⁵⁵ Ўша манба. – Б. 222.

⁵⁶ Ўша манба. – Б. 224.

Soʻzshakllar leksemaning nutqda voqelangan koʻrinishi soʻzshakl atamasi sifatida berilgan. Soʻz shakllarning bir necha turi mavjudligi yuqorida bayon qilib oʻtdik. Qoʻshimcha yordamida hosil boʻlgan soʻz shakl, moddiy shaklga ega boʻlmasligi nol shakl deb yuritilsa (*ish – bosh kelishik birlik*), grammatik jihatdan shakllangan, moddiy shaklga ega boʻlgan soʻzshakllar sirasiga kiradi (*yoʻzdi-oʻtgan zamon, III shaxs*). Grammatik maʼno – qoʻshimcha vosita, sof nomustaqil va nomustaqil soʻz, soʻz tartibi, takror, juftlik, ohang, sintaktik birliklardan tashkil topishi alohida muhim belgisidir.

Shakl yasovchi affikslar grammatik maʼnoni ifodalovchi eng sermahsul affikslardir. Biroq grammatik maʼnoning xarakteriga va oʻz mohiyatiga koʻra ikki turga boʻlinadi: soʻz yasovchi va shakl yasovchi affiks tarzida izohlangan. Bunda soʻz yasovchi qoʻshimchalar soʻzga qoʻshilib yangi leksik maʼno hosil qiladi hamda soʻzning grammatik tabiatiga taʼsir oʻtkazadi. Masalan, *bogʻ* soʻziga *-la* qoʻshimchasini qoʻshish yangi lugʻaviy maʼnoni vujudga keltirish bilan birga, yangi grammatik maʼno ham ifodalaydi. *Bogʻ* – “*predmetlik*”, “*ot*”; *ishla* – “*jarayon*”, “*feʼl*” kabi.

Shuni alohida taʼkidlash joizki, soʻz tartibining oʻzgarishi grammatik maʼnoning oʻzgarishiga olib keladi, yaʼni “gap” va “soʻz birikmasi” tarzida voqelanish nazarda tutilsa, bunda ohang orqali ifodalangan grammatik maʼnoda esa, gapning turini (darak, soʻroq, buyruq), gap boʻlaklarini (*Mehmon siz keling – Mehmon, siz keling*) ajratish alohida eʼtiborga olinadi.

Kategoriya atamasiga falsafada “obʼektiv borliq va bilishdagi mohiyatan koʻproq qonuniy aloqa va munosabatni aks ettiruvchi umumiy tushuncha” tarzida taʼrif berilgan.⁵⁷ Tilshunoslikda esa kategoriya zidlanish yoki ketma-ketlik tarzida ifodalanishi tushuniladi. Professor R.Sayfullayevaning kitobida sintaktik kategoriyaga qoʻshilib boʻlmaslik toʻgʻrisida ham soʻz boradi. “Bugungi tilshunosligimizda grammatik kategoriya atamasi ostida, asosan, morfologik kategoriyani tan olish ustuvor. Umuman olganda, sintaktik kategoriya ham grammatik kategoriya sifatida qaralsa-da, xususiy hollarda, yaʼni sintaktik tekshirishlarda

⁵⁷ Фалсафа асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б.155–160.

kategoriya tushunchasi e'tiborga molik ahamiyat kasb etmaydi. Bunga qo'shilib bo'lmaydi, albatta" – tarzida ifoda qilingan.⁵⁸ Xullas, grammatik ma'noni muayyan ma'no umumiyligida birlashgan va bu ma'noning alohida-alohida bo'linishi, xususiylashuvi asosida zidlanadigan grammatik shakl tuzilmasi sifatida beradi, ya'ni bir turda shakllangan umumiy ma'no asosidagi doimiy munosabati tuzilmasidan iborat bo'lgan yangi bir butunlik sifatida qaraladi. Albatta, bunda umumiylik va farq bir-biriga yaqin ma'no ostida bo'lishi lozim. Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, grammatik kategoriyaning belgilash uchun barcha jihatlari inobatga olinishi shart, sintaktik kategoriyada esa ba'zi jihatlarning yetishmasligi ko'rsatilgan.

Demak, bunda quyidagicha xulosaga kelingan: "Bir umumiy grammatik ma'no sifatida birlashuvchi, shu asosida bir-birini taqozo va bu umumiy ma'noning parchalanishi asosida inkor qiluvchi shakllar tizimi grammatik kategoriya deyiladi".⁵⁹ Mana shu qarorga asosan grammatik kategoriyalarning to'qqiz turi mavjudligini aytib, barchasi lisoniy hodisa bo'lganligi sababli, turli tomondan tasnif qilinishi asoslangan. Bunga: a) kategoriya shakllarining ma'noviy tarkibiga ko'ra; b) morfologik kategoriyaning so'z turkumi yoki gap bo'laklariga xosligiga ko'ra; v) morfologik kategoriya sintaktik qobiliyatining yo'nalishiga ko'ra kabilar kiritilgan.

Dastlab grammatik kategoriya sodda va murakkabga bo'linib, nisbat, sub'ektiv munosabat, son, qiyoslash, daraja, egalik kategoriyalarining boshqa kategoriyalarda tajallisi yo'qligini nisbiy tarzida belgi qilib olgan hamda sodda kategoriyalar tarkibiga kiritilgan. Bunda yondosh va hamroh ma'nolar boshqa kategoriyaga tegishli emas, deb beradi. Murakkab kategoriyaga esa egalik, o'zgalovchi, harakat, tarzi, kesimlik kabi grammatik kategoriyalarga kirib, lisoniy va nolisoniy munosabatni, shaxs ma'nosini (nokategorial), son ma'nosini (nokategorial) ifodalab kelishi kesimlik kategoriyasida ham mavjudligi aytiladi.

Bundan tashqari o'zgalovchi kategoriya ham murakkab kategoriyalar tarkibiga kiritilgan, unda ravishdosh, sifat-dosh va harakat nomi shakllarining ma'nolari yondosh ma'no sifatida bir

⁵⁸ Сайфуллаева Р. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: ЎРОЎМТВ, 2010. – Б. 239.

⁵⁹ Ўша манба. – Б. 241.

butunlikni tashkil etishi nazarda tutilgan.⁶⁰

Professor B.Mengliyevning “Hozirgi o‘zbek tili” kitobida lison, nutq, til munosabatlari juda sodda ko‘rinishda tahlil qilingan. Bu uch munosabat masalasiga oydinlik kiritish maqsadida, dastlab, ilmiy bilish nazariyasini chuqur o‘rganmoq lozimligini ta’kidlab, bu – maxsus metodologiya va usullar asosida borliq haqida bilim hosil qilish ekanligini ta’kidlaydi. Muallif ilmiy bilishning fahmiy va nazariy bilish orqali bugungi tilshunoslikning mazmun-mohiyatini tushunishligini idrok qilib berildi. Chunki nazariy bilish empirik ya’ni fahmiy bilishsiz amalga oshmaydi.

O‘zbek tilshunosligi XX asrning 20-80-yillarda amaliy bosqichni bosib o‘tgandi. Bu davrda til sathlari, tilshunoslikning bo‘limlari, har bir sath birliklarni aniqlash, har bir birliklarning belgilarini yoritish kabi ishlarni amalga oshirganligi keltirilgan.⁶¹ Fonetika, leksikologiya morfologiya va sintaktis kabi tilshunoslik bo‘limlarining mohiyatini ochib berish yuqoridagi amaliy bosqichi orqali amalga oshirilganligi e’tirof etilgan. Bu boshqa olimlar tomonidan ko‘p marta qayd etilganligini olim ko‘zda tutgan.

Demak, lisoniy birliklar ongda mavjudlik tabiatiga egaligi – bu virtual xususiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Bu shakliy va mazmuniy jihatlarisiz namoyon bo‘la olmasligini bildiradi.

Ma’lumki, nutq lisoniy birliklar yozma, og‘zaki va boshqa shakllarda jamiyat a’zolari ongida ma’lum bir me’yori asosida muayyan moddiy shakllardan birida aks etadi. Me’yor so‘ziga ta’rif beradigan bo‘lsak, lisoniy birlikning nutqda voqelanishi uchun tanlangan omil va usullar yig‘indisi.

Bugungi kunda o‘zbek tilshunosligining yangi qirralarini o‘rganish bosqichida turibdi. Bunga misol sifatida professor M.O‘.Mirzaqulov “O‘zbek tili morfem paradigmaticasi va sintagmatikasi masalalari” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini keltirish mumkin.⁶²

Olim dissertatsiyada o‘zbek tilshunosligining morfemikasi bo‘limi bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borgan bo‘lib, “so‘z tarkibida

⁶⁰ Менглиев Б. Хозирги ўзбек тили. – Тошкент: Тафаккур бўстони, 2018. – Б. 9.

⁶¹ Ўша манба. – Б. 9.

⁶² Мирзакулов М.Ў. Ўзбек тили морфем парадигматикаси ва синтагматикаси масалалари. Фил. фан. док. ...дисс. – Тошкент, 1994.

morfema” ta’rifini ham o‘z ichiga oluvchi qoidalar – “til sistemasida morfema qoidasi asosida belgilanishi, morfem ayniyatlilik, alohidalik, umumiylik, xususiylik dialektikasiga asosan, har bir sinxron bosqichda shakl va mazmuning nisbiy uyg‘unligiga asoslanishi, paradigma doirasida ilk marotaba morfemalarning yangi tasnifi tavsiya etildi, tilning ma’no va mazmun sathi jihatlari tadqiq qilindi. Olim yana bir ilmiy yangiligi morfemalar sintagmatikasi va bu jarayonida semantik, asemantik birliklarning yondosh kelishi mazmun hamda shakl munosabatlariga ham oydinlik kiritib o‘tilgan.⁶³

H.Z.Hayrullayevning “Til va nutq birliklarining iyerarxik munosabatlari” mavzusidagi 2018-yilda himoya qilingan doktorlik dissertatsiyasida sathni belgilashning til birliklari bilan bog‘liqligi asoslangan, til birliklari sath tushunchasining asosida yotishi, til sathi soni ham shunga muvofiq bo‘lishi til sathlari ham, nutq sathlari ham bir-birining ishtirokisiz mavjud bo‘la olmasligi, til sathlari ichida sintagmatik munosabat mavjudligi va ularning har biri sistema ichida sistema tarzida faollik ko‘rsatishi kabi munozarali masalalar ochib berilgan.⁶⁴

J.Yo.Ibragimovning “O‘zbek tilini substansial-pragmatik tadqiq qilishning metodologik asoslari” mavzusidagi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasida tilning imkoniyat va voqelik mushtarakligi, til imkoniyatining nutqiy voqelanish fonetik, leksik, grammatik hamda makon-zamon mayllari hamkorligi va yaxlitligidan iboratligi kabi masalalar ochib berilgan hamda dialektika va sinergetikaning qonun va kategoriyalari o‘zbek tilining imkoniyat-voqelik yaxlitligi, ochiq sistema nazariyasi esa, umumfan metodologiyasi ekanligi hamda lisoniy imkoniyatning nutqiy voqelanishida tanlov, qonuniyatning haqligii, ma’lum vaziyat uchun biror til birligini tanlashda ularning darajalanishiga tayanish zarurligi kabi masalalarning asosli yechim keltirilgan. Bundan tashqari, tilshunosligida, bunday muammolarga bildirgan qarashlarni keltirganligiga duch kelamiz.⁶⁵

⁶³ Ўша манба. – Б.7.

⁶⁴ Хайруллаев Х.З. Тил ва нутқ birliklarining иерархик муносабатлари: Фил. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)... диссер. – Тошкент, 2018.

⁶⁵ Ибрагимова Ж.И. Ўзбек тилини субстанциал-прагматик тадқиқ қилишнинг методологик асослари: Фил. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)... диссер. – Қарши, 2019.

A.B.Pardayevning “O‘zbek tili yordamchi so‘z turkumlarining lisoniy tizimidagi o‘rni va lingvopragmatikasi” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi ham sistem-struktural tilshunoslikning ma’lum bir sathini o‘rganishga qaratilgan. Dissertatsiyada yordamchi so‘z turkumlarining substantzial-pragmatik xususiyatlari shakliy bosqichlar va vazifaviy-semantik xususiyatlar sifatida qabul qilinib, grammatik vazifa bajarishga xoslanganligi, “so‘z” – “morfema” zidlanishida oraliq uchinchi mavqeda ekanligiga ishora bor.⁶⁶

Xulosa qilib aytganimizda, tilshunoslikda yechimini kutib turgan muammolardan yana biri turkumdan turkumga ko‘chishdir. Olim yordamchi so‘z turkumlariga munosabat bildirib o‘tishdan tashqari ularning o‘zaro ko‘chishi bilan bog‘liq jihatlarni ham tahlil qilib o‘tgan. Tadqiqotda yordamchi so‘zlar yuzasidan va o‘nga yaqin parametrlar bo‘yicha xulosalarga kelish uchun ilmiy tahlil usullaridan foydalanganligini ko‘ramiz.

Mavzuga oid nazorat savollari.

4. Sistema va struktura hodisalariga alohida to‘xtalib o‘ting.
5. Tilning o‘ziga xosligi izohlab bering.
6. Fonetik, leksik, grammatik strukturalarni farqlang.
7. So‘z turkumlarini tushuntiring.
8. Nutqning lisoniy birliklarda yozma va og‘zaki shakllardi ifodalanishini tushuntiring.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Hojiyev A. O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari. – Toshkent: Fan, 2010. – B.6.
2. Sayfullayeva R. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘ROO‘MTV, 2010. – B. 213.
3. Falsafa asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2001. – B.155–160.
4. Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2018. – B.9.
5. Mirzaqulov M.O‘. O‘zbek tili morfem paradigmaticasi va sintagmaticasi masalalari. Fil. fan. dok. ...diss. – Toshkent, 1994.

⁶⁶ Пардаев А.Б. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимидаги ўрни ва лингвопрагматикаси: Фил. фан. док. ...дисс. – Тошкент, 2017.

4-mavzu: So‘z yasalihi

REJA:

1. So‘z yasalihi munosabat.
2. So‘zlarning morfem strukturasidagi o‘zgarishlar haqida.
3. Tarixiy va sinxronik derivatsiyalar haqida.

Tayanch so‘z va iboralar: *so‘z, morfema, yetakchi morfema, ko‘makchi morfema, so‘z yasash asosi, so‘z yasovchi, so‘z yasalihi ma‘nosi, so‘z yasalihi tipi, so‘z yasalihi paradigmasi, mahsulli va mahsulsizlik, so‘z yasalihi imkoniyati.*

Akademik A.Hojiyevning 2007-yilda nashr etilgan “O‘zbek tili so‘z yasalihi tizimi” o‘quv qo‘llanmasida o‘zbek tilshunosligidagi aksar so‘z yasash holatlarining tahlili berib o‘tilgan. Jumladan, o‘zbek tilidagi so‘z yasalihi o‘id tushunchalar – “so‘z yasash”, “so‘z yasash usuli”, “yasama so‘z tarkibi”, “so‘z yasash asosi”, “so‘z yasovchi”, “so‘z yasash ma‘nosi”, “so‘z yasovchi”, “so‘z yasalihi ma‘nosi”, “so‘z yasalihi tipi”, “mahsulli va mahsulsizlik”, “so‘z yasalihi imkoniyati” kabilarning mohiyati haqida so‘z yuritadi.

“So‘z yasalihi” tilshunoslikning alohida sohasi (bo‘lim) sifatida so‘z yasash va u bilan bog‘liq hodisalar haqidagi ta‘limot.⁶⁷ Demak, o‘zbek tilida so‘z yasalihi haqida fikr yuritilganda, so‘z yasash usuli (affikslar yordamida so‘z yasash – affiksatsiya, so‘z qo‘shish bilan so‘z yasash – kompozitsiya), so‘zni bir leksik-grammatik kategoriyadan boshqa turkumga ko‘chirish usuli (konversiya), leksek-semantik usul (ma‘no o‘zgarishi orqali yangi so‘z hosil qilish) hamda fonetik usul (fonetik vositalar – har xil fonetik o‘zgarishlar yordami bilan yasash) tusida bo‘linish ko‘rsatilgan⁶⁸. Yasama so‘z tarkibi so‘z yasash asosi va so‘z yasovchidan tashkil topishi asoslab berilgan. Umuman olganda, so‘z yasalihi bilan bog‘liq barcha jihatlariga o‘z fikr-mulohazasini bildirib o‘tgan va izohlab bergan.

Olimning 2010-yilda nashr etgan “O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalihi nazarini masalalari”

⁶⁷ Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясаиш тизими. –Тошкент: Ўқитувчи, 2007. – Б. –6.

⁶⁸ Ўша манба. – Б. 6–7.

monografiyasida soʻz yasashini ikki xil holatda oʻrganishni maqsad qilib olgan, soʻz yasashini tilshunoslikning morfologiya boʻlimida yoki alohida boʻlim sifatida oʻrganish lozimligi aytilgan. Bu tilni sistema sifatida oʻrganishgacha boʻlgan bosqich – birinchi bosqich hamda soʻz yasashini sistema sifatida oʻrganishga oʻtish bosqichi – hozirgi bosqich tarzida amalga oshirish – ikkinchi bosqich.

Biz bu jarayonni shartli ravishda ikki bosqichga boʻlib oldik, albatta, bu nisbiy. Birinchi bosqichda, bizningcha, yasama soʻz va soʻz shaklining affiks (qoʻshimcha) bilan hosil qilinishi. Soʻz yasashi va yasama soʻz bilan bogʻliq koʻpgina tushunchalar haqida yetarli maʼlumotlar yoʻqligini, “yasama soʻzning tarkibi”, “soʻz yasash asosi”, “soʻz yasovchi” tushunchalari haqidagi maʼlumotlar keltiriladi.

Ikkinchi bosqich – bu XX asrning ikkinchi yarmidagi oʻzbek tilini sistema sifatida jiddiy oʻrganishga aloqador boʻlgan davr – “soʻz yasashi oʻzbek tilshunosligining mustaqil boʻlimi sifatida ajratilishi, tan olinishi bilan”, “soʻz yasashga xos asosiy tushunchalarning, ulardan har birining mohiyati belgilanishi” hamda “soʻz yasash bilan bogʻliq koʻpgina hodisalarning mohiyati haqidagi yangicha qarashlar yuzaga kelish bilan” kabi ijobiy natijalar orqali farqlana boshlandi.⁶⁹

Tilni sistema sifatida oʻrganish bosqichida, yasama soʻz biror til sistemasining til birligi sifatida qaralmaganligi, soʻz yasashi sistemasining til birligi sifatida “qolip” (soʻz yasash qolipi) tushunilishi, bu esa jiddiy xatoliklarning yuzaga kelishi uchun sabab boʻlishini taʼkidlaydi.⁷⁰

Yasama soʻz – leksik sistemaning til birligi sifatida tan olinishida, soʻz yasovchi morfemalar bilan hosil qilingan yasama soʻzlar lugʻaviy maʼnoli til birligi boʻlishi, tub yoki oʻzi yasama soʻzlardan farqlanmasligi aytilib, *ish*, *ishla*, *ishsiz* soʻzlari orqali asoslab beriladi.⁷¹ Bu soʻzlarning har biri lugʻatlarda berilishi, tub soʻzlar kabi maʼnosi izohlanishi, tub soʻzlar kabi yasama soʻzlarning semasi ham semalardan tashkil topgan hamda maʼlum

⁶⁹ Ўша манба. – Б. 6–7.

⁷⁰ Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясаишининг назарий масалалари. – Тошкент: Фан, 2010. – Б.142.

⁷¹ Ўша манба. – Б. – 144.

bir soʻz turkumiga tegishliligi til birligini belgilab beradi. Kitobning 145-betida soʻzning til birligi sifatida ikki muhim belgiga – lugʻaviy maʼno va turkumlik maʼnosiga egaligi aytilib, shu ikki xususiyati bilan u mohiyatan bir-biridan farqli boʻlgan ikki turdagi yasama birliklarning hosil boʻlishida asos birlik (yasalish asosi) vazifasini bajaradi.

Demak, soʻzning lugʻaviy maʼnosi asosida yasalgan til birligi yasama soʻz, turkumlik maʼnosi asosida yasalgan til birligi soʻz shakli (morfologik birlik), yasama birlikning yasalish asosi bilan (*ish-la*) soʻz yasovchi birlikka zidlanadi. Kitobda yasama soʻzning tarkibini ikki qismga ajratib, soʻz yasash asosi va soʻz yasovchidan tashkil topishi (*ishchan* = *ish+chan*), yasalish asosi esa “soʻz” termin bilan aytilganligiga guvoh boʻlamiz hamda bu qismni “soʻz yasalish asosi” deb atash toʻgʻri boʻlishini taʼkidlaydi.

Yasama soʻz soʻzdan emas, balki uning muayyan maʼnosi asosida yasaladi. Bunga harakatchan soʻzini misol sifatida keltirgan.⁷² Masalan, harakatchan soʻzi harakat soʻzining bir maʼnosi asosida -*chan* soʻz yasovchi morfemasi bilan yasalgan, oʻsha maʼno yasama soʻz maʼnosining yuzaga kelishida asosiy maʼno hisoblangan. Lekin bu soʻz tarkibidagi harakat soʻzi va uning maʼnosi mustaqil emasligi aytiladi.⁷³ Demak, bu soʻz, birinchidan, mustaqil birlik emasligini ifodalasa, ikkinchidan, “soʻz yasash asosi” termini yasama soʻzning tarkibiy qismi ekanligini bildiradi. Shu jihatni hisobga olib soʻz (mustaqil soʻz), leksema va soʻz yasash asosi bir-biridan farqli tushunchalar, birinchisi oʻrnida ikkinchisining qoʻllanishi notoʻgʻri ekanligini bildiradi. Soʻz yasalish asosi yasama soʻzdan va qoʻshma soʻzdan ham tashkil topgan boʻlishi mumkin.

Xulosa qilib shuni taʼkidlaydiki, soʻzning lugʻaviy maʼnoli birlik sifatida soʻz yasalishida, lugʻaviy sistemaning til birligini hosil qilishda qatnashishi hamda soʻz yasalish sistemaning til birligi hisoblanuvchi yasama soʻzning tarkibiy qismi (soʻz yasash asosi) vazifasini bajarishi bilan muhim mohiyatga ega. Chunki soʻz yasalish hodisasi va bunda qatnashuvchi til birliklarining nutqqa aloqasi yoʻq – ular nutqqacha boʻlgan hodisalar, nutqqacha mavjud lisoniy birliklar.

⁷² Ўша маһба. – Б. – 146.

⁷³ Ўша маһба. – Б. – 147.

Soʻz yasovchi terminini oladigan boʻlsak, har qanday yasama soʻz “soʻz yasalish asosi” va “soʻz yasovchi” dan iborat boʻlishini koʻrsatadi. Shu sababli yasama soʻz ham, soʻz yasalishi asosi ham bitta boʻladi. Lekin soʻz yasovchi birlik affiks yoki soʻz koʻrinishida boʻlishi mumkin. Masalan, *ishchi*, *kamdaromad*. Shu oʻrinda yana bir hodisaga alohida izoh beradi. Bu “morfema” termini deb taʼkidlaydi. Chunki yasama soʻz tarkibidagi soʻz yasalish asosiga “soʻz” terminini qoʻllab boʻlmaganidek, soʻz yasovchini “morfema” deb yuritishni maʼqul koʻrmaydi. Sababki, soʻz yasalish boʻlimida soʻz yoki morfemaning mohiyati emas, balki yasama soʻz tarkibiy qismi sifatida, soʻz yasalish asosi va soʻz yasovchi til birliklari mohiyati oʻrganilishi maqsadga muvofiq. Bu mustaqil til birligining qismlari desak, toʻgʻri baholagan boʻlamiz deydi. Tilshunos B.R.Mengliyev ham doktorlik dissertatsiyasida anʼanaviy tilshunoslikdagi *oʻzak morfema* va *qoʻshimcha morfema* tushunchasi flektiv tillarga xos tushuncha ekanligini, oʻzbek (agglyutativ) tili uchun *oʻzak morfema* tushunchasining qoʻllanishi mantiqsiz ekanligini taʼkidlagan edi.⁷⁴ “Oʻzak morfema” termini soʻz yasalish tizimigina uchun mantiqsiz, deb baholanishi ehtimol toʻgʻridir. Biroq, umuman, tilning morfemalar boʻlimi uchun, bu terminni affiks yoki ergash morfemalarga zidlangan holda qoʻllash joizdir. Chunki bu qism, albatta, soʻzga yoki leksemaga teng emas, shu bilan birga, affiks morfemadan ham farq qiluvchi, unga nisbatan belgilanuvchi birlikdir. Bu birlik yo “bosh morfema”, yoki “etakchi morfema”, yoki “oʻzak morfema” nomi bilan atalishi shart. Tilning soʻz yasalishi tizimida u, shakl yasalishi tizimini ham nazarda tutib, “yasash asosi” (soʻz yasash asosi) yoki “shakl yasash asosi” tarzida yasovchi (shakl yasovchi yoki soʻz yasovchi) vositaga zidlangan holda qoʻllanishi haqiqatga toʻgʻrirogʻdir. Shu kungacha bu terminlarga nisbatan befarqlik bilan munosabatda boʻlindi. Mana, nihoyat XXI asrga kelib bu terminlarni qoʻllashga munosabat oʻzgardi. Har bir termin oʻz mohiyatiga koʻra aniq belgilana boshlandi.⁷⁵

⁷⁴ Менглиев Б. Р. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабатлар: Филол. фан. док... дис. автореф. – Тошкент, 2002.

⁷⁵ Тожиев Ё. Яна морфема, лексема атамалари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2010. №1. –Б.13-17.

Bugungi kunda yasama soʻz sifatida talqin qilinayotgan “qoʻshma soʻz” (*belbogʻ*, *otquloq*) va kalkalash (*ustqurma*) kabi soʻzlar guruhlanish, sistema hosil qilish xususiyatlariga ega boʻlmaganligini hisobga olib, yasama soʻzlar qatoriga kiritilmagan. Buni yana shu bilan asoslash mumkinki, soʻz yasalishi oniy (nutqiy) hodisa. Buni yasovchi qoʻshimchalar vositasida hosil qilingan yasama soʻzlarga nisbatan qoʻllash mumkin. Ammo qoʻshma soʻzlarning hosil boʻlishi tadrijiy jarayon, zero soʻz birikmalari uzoq vaqt davomida leksemaga aylanib boradi. Masalan, oʻzbek tilidagi ish reja, dars jadvali, oʻquv qoʻllanma kabi hodisalar haqida shunday deyish mumkin.

Demak, A.Hojiyev yasama soʻz tarkibidagi “soʻz yasash asosi” va “soʻz yasovchi”ning maʼnosiga quyidagicha toʻxtaladi: a) har qanday yasama soʻz tarkibidagi soʻz yasalish asosi vazifasida muayyan soʻz qatnashsa, soʻz yasovchi birdan ortiq soʻz yasaydi; b) soʻz yasovchining maʼnosi soʻz yasalishining maʼnosida voqelanadi; v) muayyanlik, umumiylik xususiyatiga ega boʻlishidan qatʼi nazar, har bir yasama soʻz tarkibida soʻz yasama asosi ham, soʻz yasovchi ham bir maʼnosi bilan qatnashadi; g) soʻz yasalish asosi vazifasida qoʻllangan soʻz leksik birlik holatida, koʻp maʼnoli boʻlishi mumkin. Lekin soʻz yasovchi morfema sifatida koʻp maʼnoga ega boʻlmaydi, deb taʼkidlaydi.⁷⁶

Yasama soʻzning lisoniy birlik (leksema) ekanligini uni soʻzdan farqlash orqali amalga oshiradi, chunki yasama soʻz birlik sifatida, muayyan sistemaning til birligi, bu yasama soʻzlar asosida shakllangan sistemalar borligiga ishora qilinishi eʼtirof etilgan.

Kitobning 150-sahifasidan 169-sahifasigacha “soʻz yasalish maʼnosi termini”, “soʻz yasalish tipi termini”, “soʻz yasalish paradigmasi termini”, “mahsulli va mahsulsizlik termini”, “soʻz yasalish imkoniyati termini” kabi mavzulardagi mushohadali fikrlar yoritib berilgan.

Soʻz turkumlarida soʻz yasalish holatini tahlil qiladigan boʻlsak, soʻz yasalish hodisasining, soʻz yasalish sistemasining faqat 4ta soʻz turkumi uchun xos boʻlishini taʼkidlab, son va olmosh soʻz turkumlarida soʻz yasalish hodisasi kuzatilmassligi, lekin ravish soʻz

⁷⁶ Менглиев Б. Р. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабатлар: Филол. фан. док... дис. автореф. – Тошкент, 2002. – Б. – 149.

turkumida munozarali holat bo'lsa-da, juda ko'p mutaxassislar tomonidan ravish yasalishi tan olinganligini aytib o'tadi. Olim so'z turkumida so'z yasalish sistemasi bor-yo'qligi haqida fikr yuritganda, avvalo, bu so'z turkumida yasama so'zga xos mohiyatga ega bo'lgan til birligini aniqlash, so'z yasalish asosi va so'z yasovchidan iborat tarkibga ega bo'lgan til birliklari – yasama so'zlar bor-yo'qligi belgilanishi shart ekanligini ta'kidlaydi.

Shuni alohida aytish joizki, ravish so'z turkumidagi yasovchi sifatida talqin etilgan yasovchi qo'shimchalar mazmun mohiyatiga ko'ra yasovchi vazifasini bajarmasligi va bunday tahlil qilinmasligini aytib o'tadi. Va shu o'rinda ravish yasovchi *-larcha* qo'shimchasini “birdan ortiq shakl yasovchi morfemaning o'zaro birikuvidan so'z yasovchi, jumladan, ravish yasovchi qo'shimcha affiksning yuzaga kelish hodisasi yo'q va bo'lishi mumkin ham emas” – deb ta'rif beradi.⁷⁷ Haqiqatan, ravish turkumida so'z yasalishi sifatida bahslanib kelgan hodisalarni leksemalashish sifatida baholash o'rinliroq va mantiqqa yaqin. Chunki “yasama” ravish tarkibidagi aksar vositalar grammatik unsurlardir va ularni so'zshakllarning leksemalashishi sifatida baholash lozim.

Darhaqiqat, o'zbek tilshunosligida so'z yasalishi bo'yicha o'ndan ortiq dissertatsiyalar himoya qilingan. Bu dissertatsiyalarni ikki jihat bilan farqlash mumkin. Birinchidan, an'anaviy tilshunoslik negizida yaratilgan dissertatsiyalar, ikkinchidan, sistem-struktur tilshunoslik negizida yaratilayotgan dissertatsiyalar. Mana shu yaratilgan dissertatsiyalar qatorida Sh.A.Aliyevning “Tilning turli sath birliklari transformatsiya va derivatsiyasi” nomli nomzodlik dissertatsiyasi turadi. Tadqiqotda tilning transpozitiv, derivativ aspektlari statik va dinamik holatlar, transformatsiya va derivatsiya tilning dinamik jarayoniga xos, so'z yasalishi, morfologik, sintaktik sathlarda amal qiluvchi universal hodisa ekanligi va bu sathlar bo'yicha alohida-alohida kuzatish olib borilganligiga guvoh bo'lamiz.

Bundan tashqari, son, kelishik, egalik, nisbat, bo'lishli-bo'lishsizlik, mayl, zamon, kichraytirish, daraja, erkalash, hurmat, qarashlilik, o'xshatish, singari grammatik shakllarning morfologik transformatsiya va ikkinchi darajali bo'laklar, undalmalar, ajratilgan bo'laklar, kirish va kiritmalar kabi kengaytiruvchi sintaktik

⁷⁷ Ўша маҳба. – Б. – 175.

qurilmalarning sodda gap transshakllarni ham hosil qilishi bo'yicha asosli dalillar keltirilgan.

Izomorfizm qonuniyatiga muvofiq, leksik derivatsiya qonun-qoidalari sintaktik sathda ham amal qilishi isbotlangan, depredikatsiya, nominalizatsiya va kompressiyaning derivatav tabiati, kompressiya qoidasining qo'shma gaplarning qaysi turida o'ziga xos ekanligi yoritilgan.

So'z yasalishi bilan bog'liq muammolar boshqa bir guruh olimlar tomonidan ham ko'rib chiqilgan. Jumladan, R.Sayfullayeva va boshqalarning 2009-yilda nashr etilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" nomli o'quv qo'llanmasida morfema so'zning nomustaqil tarkibiy qismi sifatida baholanadi. Yordamchi so'zlarning leksemaligi, u mustaqil so'zshakl kabi bo'linganlik, ammo shakllanish xususiyatiga, leksik mano ifodalamasligi ularni morfemik maydon sari etaklashiga urg'u beradi. Bu o'rinda biz shuni alohida ta'kidlaymizki, leksema terminini yordamchi so'zlarga nisbatan qo'llash to'g'ri emas. Bu termin mustaqil so'z turkumlari hisoblanuvchi birliklarga nisbatan qo'llanishi maqsadga muvofiqdir. Chunki ularda leksik ma'no ifodalanadi. Yordamchi so'zlar bunday xususiyatga ega emas. XXI asrga kelib ayrim olimlar leksema terminiga alohida e'tibor qaratgani holda shu fikrni ma'qul, deb belgilayapti.⁷⁸ Ular mustaqil so'zlarning o'zaro munosabatini ifodalashga xizmat qiladi.

Demak, morfemaning nomustaqillik tabiati, leksemani shakllantirish vazifasiga xoslanganligidan "morfema" deb nom olganligi, uning nutqiy ko'rinishi "qo'shimcha" ekanligi izohlangan. Qo'llanmada moddiy qiyofali morfemasiz so'z nol qo'shimchadir, deb yuritiladi. Masalan, *kitobni o'qi* gapida "*o'qi*" so'zi – nol qo'shimchali.

So'zlarning morfem strukturasidagi o'zgarishlar haqida so'z borganda quyidagi fikrga kelishgan:⁷⁹

- a) so'z va affiks qo'shib, so'z tublashishi mumkin: *yuksal*;
- b) so'z va affiks qo'shib, yaxlitlanish mumkin: *biroq*;

⁷⁸ Тожиев Ё. Яна морфема, лексема атамалари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2010. №1. –Б.13-17.

⁷⁹ Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Қурбонова М, Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан ва технология, 2009.. – Б. 131.

v) soʻz va affiks orasidagi aloqa soddalashadi: *yumshoq*;

g) soʻz va affiks holida kelishi, murakkab qoʻshimchalar birlashib ketishi, yaʼni birlashishi mumkin: *kelib yotibdi-kelib yatipti-kelyapti*; *ning+niki*. Bu koʻrsatkichlar professorlar A.Berdaliyev, Yo.Tojiyev, T.Mirzaqulov, M.Kenjayeveva kabi olimlar tomonidan asoslab berilgan.

Morfemalarning funktsional-semantik tasnifiga koʻra ikki guruhga: derivatsion va grammatik morfemalarga boʻlinishi, derivatsion morfema soʻzga qoʻshilib, yangi soʻz hosil qilish nazarda tutilgan.⁸⁰ Masalan, *paxta+chi*.

Morfemaning struktur tasnifiga koʻra, bir tarkibli morfemalar sodd morfema sifatida (*-lar*, *-roq*) mustaqil morfemaning maʼlum vazifasini boshqarish maqsadida birlashgan (*-garchilik*, *-gacha*) morfemalar murakkab sifatida tahlil etilgan. Bundan tashqari, morfemalarni polisemiya, omonimiya, sinonimiya kabi turlarga, morfemik sinonim derivatsion (*-li*, *-dor*) va grammatik sinonim sifatida (*-ni*, *-dan*) tahlil qilingan.

Derivatsiya (soʻz yasalishi, soʻz hosil boʻlishi) tilshunoslikda alohida boʻlim, deb berilgan. Derivatsiyaning diaxron va sinxron turi soʻz hosil boʻlishi masalasi bilan shugʻullanadi.

Derivatsiya til taraqqiyoti natijasida tarixiy va sinxronik derivatsiyalarga boʻlindi. Hozirgi derivatsiya yasama soʻz bilan derivatsion (soʻz yasash) qolipi orasida aloqa mavjud, qolipning shakliy va mazmuni tomoni hosila soʻzda oʻz izini qoldirgan boʻladi. Masalan, *kitobchi* (ot+chi = ot+bilan shugʻullanuvchi shaxs) yasama soʻzida qolipdagi tenglik alomati chap (shakliy) va oʻng (mazmuniy) tomon izlari yaqqol koʻrinib turibdi.⁸¹

Derivatsion qolip deganda, soʻz yasash qolipi (ot+chi) nazarda tutiladi. Soʻz yasash qolipi shakliy va mazmuniy tomondan iborat, yasama soʻzda har ikki jihat mujassam. Yasalmaning shakl va mazmunan shu qolipga mos kelishi eʼtiborli, u qolip hosilasi sifatida qaraladi⁸². Soʻz yasash qolipining shakliy tomoni yasovchi asos va yasovchi vosita(ot+chi)dan iborat ekanligi koʻrsatilgan, yasovchi asos mustaqil soʻzdan, yasovchi esa soʻz hamda qoʻshimchadan

⁸⁰ Ўша маъба. – Б. 131.

⁸¹ Ўша маъба. – Б. 134.

⁸² Ўша маъба. – Б. 135.

iborat bo'lishi mumkin.

Arastudan Sossyurgacha bo'lgan davrda olimlar til hodisalarini taraqqiyot zanjiridan ajratib, bu zanjirning ikki chekkasini qarama-qarshiliklar sifatida ta'riflashi bilan cheklanib qolishi "sog'lom aql" doirasida bemalol ish ko'rish mumkinligini ta'kidlab, til taraqqiyot zanjiridan uzilgan shaklda emas, balki o'z taraqqiyot yo'li bosqichlarida, ziddiyatda, ichki qarama-qarshiliklarda berilishi lozim deydi. Bu hozirgi kunda Yevropa faniga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan o'zbek substansial tilshunosligi ekanligi va unda bu usulning tayanch tushunchalardan biri oraliq uchinchi – ikki zid jihat qarama-qarshiligi orasida ularni birlashtiruvchi ikki chekka nuqtani, hodisani bir-biri bilan bog'lovchi, ularning zid xususiyatlarni o'zida mujassamlashtiruvchi, hodisaning me'yoriy, qonuniy lisoniy tizim sifatida tan olishni va lisoniy tizimdagi deyarli har bir birlikni mana shunday oraliq uchinchi mavqeda talqin etishda degan muammo ko'tariladi. Darvoqe, o'zbek tilshunosligida derivatsiya – so'z yasaliş muammosi deyarli o'rganilmagan, derivatsiya va relyattsiyaning o'zaro munosabati muammosi ochiq qolayotganligi hamda tarixiy tilshunoslikda chuqur o'rganilgan derivatsiya masalasi struktural tilshunoslikda lison-nutq dixotomiyasi nuqtai nazaridan o'rganilmaganligi tilga olingan. Bu gap, bizningcha, unchalik to'g'ri emas. Chunki qo'llanmada aytilgan, yangicha, deb baholanayotgan hodisalar, qadimdan tilshunoslar tomonidan idrok etilganligi uchun, ular alohida ajratib qayd etilmagan, xolos. Masalan, *achchiq* bilan *chuchuk* orasida "mo'tadil", degan holat borligi hammaga ma'lum. Uni ta'kidlab o'tirishga hojat yo'q. So'z yasaliş tizimida alohida derivatsiyani yangi bir hodisa sifatida ajratish ham shu kabidir.

Yasama so'z bilan yasalgan (bu o'rinda *yasama* endi yasalgan ma'nosida, *yasalgan* avval yasaliş keyin soddalashgan so'z ma'nosida qo'llangan) so'zning farqini bilish, yasama so'zning nutqiy hodisa ekanligiga ishora qilib, *bo'zchi* so'zi matn talabiga ko'ra "*bo'z to'quvchi*", "*bo'z sotuvchi*", "*bo'z xarid qiluvchi*", "*bo'zni boshqa rangga bo'yovchi*" kabi ma'nolarini ifodalashi va buning kontekstual ma'nosi nutqda muayyanlashishi e'tirof etilgan.

Demak, yasama so'z, so'z yasash qolipi hosilasi, ko'p ma'noli, bir nechta lug'atlardan joy olishi mumkin. Yasalgan so'zlar tarixiy

taraqqiyotning ma'naviy ixtisoslashish – soddalashish – tublanishi – bosqichlarida turish mumkin: qishloq kabi.

Bundan shundan xulosa chiqadiki, tilshunoslikning derivatsiya masalasi ko'plab struktural tadqiqotlar darajasida ham, asosan, diaxron va sinxron aspekt asosida yondashib o'rganilgan.

Ko'rinadiki, o'zbek tilshunosligida so'z yasalishi muammosi ikki bosqichda tahlil etiladi: birinchi bosqichda so'z hosil bo'lishining barcha ko'rinishlari (tarixiy ham, sinxron ham) so'z yasalishi sifatida baholanadi; ikkinchi bosqichda faqat sinxron usulda qo'shimchalar vositasidagi yasalish so'z yasalishi sifatida qaralib, u tarixiy (diaxron) yasalish bilan birga derivatsiya atamasi ostida mujassamlashadi.

Mavzuga oid nazorat savollari.

4. So'z yasash holatlarining tahlilini tushuntirib o'ting.
5. Yasama so'z qanday farqlanadi?
6. So'z yasalish asosi va so'z yasovchi haqida ma'lumot bering.
7. So'zlarning morfem strukturasidagi o'zgarishlar haqida gapirib bering.
8. Derivatsiya haqida gapirib bering.
9. Tarixiy va sinxronik derivatsiyalarga izoh bering.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясалиш тизими. –Тошкент: Ўқитувчи, 2007. – Б. –6.
2. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. – Тошкент: Фан, 2010. – Б.142.
3. Менглиев Б.Р. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабатлар: Филол. фан. док... дис. автореф. – Тошкент, 2002.
4. Тожиёв Ё. Яна морфема, лексема атамалари ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2010. №1. –Б.13-17.
5. Сайфуллаева Р., Менглиев Б., Боқиева Г., Қурбонова М, Юнусова З., Абузалова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан ва технология, 2009.. – Б. 131.

II BOB. O‘ZBEK ZAMONAVIY MORFOLOGIYASINING YANGI AMALIY BOSQICHI MASALALARI

1-mavzu: Kompyuter va korpus lingvistikasida so‘z turkumlari va grammatik kategoriyalar

REJA:

1. Nazariy, ta’limiy va amaliy masalalarning bir-biridan farqli va o‘xshash jihatlari.
2. Til korpusi to‘g‘risida ma’lumot.
3. Kompyuter lingvistikasi to‘g‘risida ma’lumot.
4. Korpus lingvistikasi haqida.

Tayanch so‘z va iboralar: *til korpusi, korpus lingvistikasi, vose’ maydon, kompyuter lingvistikasi, nazariy filologik faoliyat, so‘zlarning qo‘llanish chastotasi, tillarning rivojlanish va o‘zgarish darajasini.*

Bugungi kunda jamiyatning barcha sohalarini shiddat bilan qamrab olayotgan axborot texnologiyalari jarayoni dunyo miqyosida tilshunoslikning ham zimmasiga yangi-yangi vazifalarni yuklamoqda. Shu sababdan tildan amaliy foydalanish samaradorligi fanning asosiy vazifasiga aylandi. Buning natijasida til va shaxs umumiyligi masalasi bilan shug‘ullanadigan amaliy yo‘nalishlar muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Filologiya va tillarni o‘qitish sohalarida vakillarining zimmasida tildan oqilona, samarali foydalanish natijadorligini oshrish va filologik bazani vujudga keltirish kabi masalalar bilan shug‘ullanish mutlaqo kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb vazifa sifatida ko‘rilishi lozim.

Filologiya ham fan sohasi sifatida, o‘zining qamrovi bilan bog‘liq nazariy, ta’limiy va amaliy masalalar bilan shug‘ullanadi. Professor B.Mengliyev tomonidan “Nazariy filologik faoliyat – tilshunoslik va adabiyotshunoslik bo‘yicha fundamental bilimlarni egallash asosida ilmiy tadqiqotlar olib borish, mavjud nazariy filologik kontsepsiyalar va alohida lisoniy, adabiy, hodisa va jarayonlar, turli shakldagi matnlarni turli nazariy hukm va xulosalar chiqarish uchun tahlil va talqin qilish, umumlashtirish, tegishli ilmiy ma’lumotlarni to‘plash, bibliografiya tuzish, mavzu va soha

bo'yicha ilmiy munozara, himoya va muhokamalarda ishtirok etish, axborot va mavzular bilan chiqish qilish, ilmiy xulosalarni og'zaki, yozma va virtual tartibda taqdim etishdir", – deb aytib o'tilgan.⁸³

Ta'limiy filologik faoliyatga ham olim quyidagicha izoh beradi: "Ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalariga tayanib, oliy, umumta'lim va kasbiy ta'lim muassasalarida til va adabiyot bo'yicha o'quv mashg'ulotlari va sinfdan tashqari ishlarni bajarish, tegishli metodika asosida ona tili va adabiyot bo'yicha mashg'ulotlar va sinfdan tashqari ishlar uchun o'quv metodik materiallar tayyorlash, filologik bo'limlarni va o'quvchilar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni ommalashtirish va tarqatish bilan shug'ullanadi".⁸⁴

Yuqoridagi ikki faoliyat turidan tashqari, uchinchi, bugungi kunda eng dolzarb bo'lgan amaliy faoliyat turi ham, ya'ni amaliy filologik faoliyat olib borish jadal sur'atlar bilan kirib kelmoqda. Tilning amaliy qo'llanishi bilan bog'liq ko'plab ishlarni bajarishimiz shart ekanligi aniq bo'lmoqda. Bu turli hujjatlarni talab darajasiga keltirish, matnlar tahrir qilish, lug'at va qomuslar tuzish hamda ularning mazmun mohiyatiga munosabat bildirish qiyinchilik tug'dirmasligi kerak.

Demak, til materiallarini zamonaviy metodlar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda to'plash va mahorat bilan sayqal berish metodika va me'yorlar asosida turli xildagi matnlar yaratish, muassasa, korxona va tashkilotlarda rasmiy idora hujjatlarini to'g'ri yo'lga qo'yish, turli ko'rinishdagi matnlarni o'rganish hamda ularga ishlov berish kabi minglab vazifalarni bajarishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj maxsus amaliy filologik layoqiyatga ega bo'lgan kadrlar tayyorlashni taqozo etadi.

Demak, amaliy filologik faoliyatni yo'lga qo'yish uchun amaliy filologiya bakalavri va amaliy filologiya magistri mutaxassislarini tayyorlash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, amaliy filologiya bo'yicha olib boriladigan tadqiqotlar bu yo'nalishda zamonaviy ruh singdirilgan bo'lishni talab qiladi. Jonkuyar olimlarimizdan biri professor B.Mengliyev "Til egalarining lisoniy imkoniyatlaridan pragmatik foydalanish

⁸³ Менглиев Б. Тилшуносликнинг амалий масалалари. – Тошкент: GlobeEdit, 2020. – Б. 46–47.

⁸⁴ Ўша манба. – Б. 47.

samaradorligi masalasi bilan shug'ullanadigan o'zbek amaliy tilshunosligining milliy xarakterdan kelib chiqqan holda sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, pragmalingvistika, lingvokognitologiya, lingvokulturologiya, neyrolingvistika, kompyuter lingvistikasi, sud lingvistikasi kabi zamonaviy fan yo'nalishlarining rivojlanishi ijtimoiy taraqqiyot talablari bilan uyg'unlashishini, ayniqsa, axborot texnologiyalari va globallashtirish asrida o'zbek tilining global til korpuslariga qo'shiluvini ta'minlash tarixiy zarurat sifatida namoyon bo'layotganini aytadi.⁸⁵

O'zbek tilining milliy korpusini yaratish bugungi kunning dolzarb vazifasi. Chunki biz o'zbek tilshunosligining kelajagini ko'rib bo'lmaymiz kun sayin ayon bo'lib bormoqda. Bunda jamiyatdagi barcha sohalarining jadal sur'atda o'sib borayotganligini inobatga oladigan bo'lsak, shular jumlasiga, o'zbek tilining zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimida keng qo'llanishiga erishish kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifa ekanligini alohida ta'kidlash mumkin. Bugungi kunda mislsiz rivojlanib borayotgan axborot-texnologiya jarayoni ham tilga funksional imkoniyatlaridan foydalanish borasida o'z eshiklarini ochib bermoqda. Ayniqsa, tilning imkoniyatlarini namoyon qilish va egallash borasida til korpusining roli beqiyos ekanligini ta'kidlash mumkin.

Til korpusi qidiruv dasturiga bo'ysundirilgan, ma'lum bir tilga oid matnlar majmui, o'n milliondan tortib, yuz milliongacha, hatto, milliardlab so'z qo'llanishlarini o'z ichiga oladi.⁸⁶ Til korpusining zamonaviy va ilmiy yangiligi – tinimsiz yangilanib borish imkoniyatiga egaligi, keng qamrovliligi va foydalanishda qulayligi bilan xarakterlanadi. Til korpusi – matnlar maydoni va korpus menejeridan iborat, lug'atlardan farqli ravishda so'zlarning qo'llanish chastotasi, tillarning rivojlanish va o'zgarish darajasini, hatto, har bir so'zning qo'llanishi misolida ham aniqlab bera oladi.⁸⁷

Shuni alohida ta'kidlash mumkinki, yuqorida aytganimizdek, oddiy elektron kutubxonalardan o'zining qidiruv dasturiga bo'ysundirilganligi, til korpusi internet tizimida faoliyat ko'rsatayotganligi sababli, katta iqtisodiy samara berishi va uzluksiz

⁸⁵ Ўша манба. – Б. 52–53.

⁸⁶ Ўша манба. – Б. 54.

⁸⁷ Ўша манба. – Б. 55.

yangilanib borishi, eskirish xususiyatidan holi ekanligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Professor B.Mengliyev o‘zining monografiyasida milliy korpus-milliy til xazinasi, demak, undan barcha soha vakillari foydalanishlari mumkinligi, ayniqsa, tilshunoslar uchun bamisoli “vose’ maydoni” maqomida bo‘lishini ta’kidlaydi⁸⁸.

Kompyuter texnologiyalari XX asrning buyuk kashfiyotlaridan biri sanaladi. Keyingi yillarda u boshqa fanlar singari tilshunoslikka ham kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada, matematik lingvistika, aniqrog‘i, uning aksiomatik nazariyasi zahirida kompyuter lingvistikasi fani vujudga keldi. Umuman, katta hajmdagi axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash va kerakli manzillarga jo‘natish ehtiyoji kompyuter lingvistikasining yaratilishi uchun asos bo‘lib xizmat qildi.⁸⁹

Hamdo’stlik mamlakatlarida kompyuter lingvistikasi bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Bu sohada, ayniqsa, Moskva, Sankt-Peterburg olimlari muhim ishlarni olib bormoqdalar. Rus kompyuter lingvistikasida A.V.Anisimov, I.A.Baratchikov, E.I.Korolev, R.G.Kotov, Yu.A.Marchuk, L.L.Nelyubin, R.G.Piotrovskiy kabi olimlarning izlanishlari muhim ahamiyat kasb etadi.⁹⁰

Bu olimlar, asosan, mashina tarjimasi ishlari bilan shug‘ullanishgan. Shu bilan barcha rus olimlari avtomatik tarzda tilga o‘qitish-o‘rgatish masalalari bo‘yicha ham bir qancha ishlarni amalga oshirganlar.⁹¹ Bundan tashqari, rus tilshunosligida matnlarni avtomatik tahrir qilish yo‘nalishi bo‘yicha ham bir qator ishlar olib

⁸⁸ Ўша манба. – Б. 55.

⁸⁹ Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск 24. Компьютерная лингвистика. – Москва: Прогресс, 1989. – С. 428.

⁹⁰ Анисимов А.В. Компьютерная лингвистика: мифы, алгоритмы, язык. – Киев: Наука думка, 1991; Котов Р.Г. Оптимизация речевого воздействия. – Москва: Наука, 1990; Марчук Ю.Н. Основы терминография. – Москва: МГУ, 1992; Нелюбин Л.Л. Компьютерная лингвистика и машинный перевод. – Москва: ВЦП, 1991; Пиотровский Р.Г. Математическая лингвистика. – Москва: Высшая школа, 1977; Марчук Ю.Н. Компьютерная лингвистика. Москва: АТС: Восток и Запад, 2007.

⁹¹ Пиотровский Р.Г. Компьютеризация преподавания языков // Учебное пособие по спец курсу. – Ленинград, 1988; Панова – Яблочкина И.С. Теоретические аспекты и практическая реализм компьютерного обучения иностранным языкам. – Москва. 1989.

borildi.⁹² Keyingi yillarda Ukraina, Belorussiya, Qozog‘iston singari mamlakatlarda ham kompyuter lingvistikasi bo‘yicha ko‘pgina ishlar amalga oshirildi.

O‘zbek tilshunosligida ham kompyuter lingvistikasi bo‘yicha muayyan ishlar olib borilgan. Jumladan, matnni sistem-statistik tahlil qilish bilan ilk bor I.A.Kissen shug‘ullangan. U 1972-yilda nashr etilgan chastotali lug‘atida o‘zbek badiiy prozaik matnlarida eng faol so‘zlar miqdori 1227 ta ekanligini aniqlagan edi. S.Rizayev esa, “Hozirgi o‘zbek adabiy tilida harf va fonemalarning qo‘llanish chastotasi” (1967), “Tilshunoslikda matematik metodning qo‘llanishiga doir” (1973), “Bo‘g‘in strukturasi o‘rganilish tajribasidan” (1975), “Kibernetika va tilshunoslik” (1976) nomli asarlarida tilshunoslikda matematik lingvistika va mashina tarjimai nazariyasining yuzaga kelishi sabablarini, ularning mavjud bo‘lishini ta‘minlovchi EHM (kompyuter)larning yaratilish tarixi, dastur tuzishda sun‘iy tillardan foydalanish imkoniyatlari haqida qiziqarli ma‘lumotlar beradi. Xuddi shu tarzda kompyuter lingvistikasini o‘rganishga qiziqish, bu soha bilan muntazam ishlashni maqsad qilish boshlandi. Bu esa o‘zbek tilini kelajakda o‘rganish va dunyo tillari orasida o‘z mavqeni oshirib borishdek ulkan vazifalarning yechimi ekanligi hech kimga sir emas.

A.Po‘latovning 2011-yilda nashr etilgan “Kompyuter lingvistikasi” nomli kitobida “O‘zbek kompyuter lingvistikasini yaratishdan oldin ona tilimizni yuqori va to‘liq, masalan, ingliz tili darajasida sistemalashtirish, formallashtirish vazifalarini yechish kerak”, - deb o‘zbek kompyuter lingvistikasi oldida turgan ikki talabni keltiradi.⁹³

1) axborot asri qo‘yayotgan talablar doirasida o‘zbek tilini kompyuterga moslashtirish;

2) o‘zbek tili bilan bog‘liq vazifalarni kompyuterda hal qilish.

Olim o‘zbek kompyuter lingvistikasi oldida turgan o‘n uchta

⁹² Мельчук И.А. Порядок слов при автоматическом синтезе русского текста // Научно-техническая информация 1985. №12 – С. 36–41; Беляева Л.Н., Чижаковский В.А. Тезарус в системах автоматической переработки текста. – Кишинев, 1993; Белоногова Г.Г., Дуганова М.С. Кузнецов А.Б. Экспериментальная система автоматизированного обнаружения и исправления ошибок в тексте // Научно-техническая информация. Серия 2. 1994. №3. – С. 20–22.

⁹³ Пулатов А. Компьютер лингвистики. – Тошкент: Академнашр, 2011. – .161.

asosiy masalani sanab o'tadi.⁹⁴

1) o'zbek tilining ingliz tili bilan taqqoslangan to'liq (grammatika, leksikologiya, iboralar, maqollar, sheva, jargon) ma'lumot bazasini yaratish;

2) o'zbek tili kompyuter-axborot uslubini ishlab chiqish;

3) o'zbek tilining leksik va grammatik izohli lug'atlarini qayta tuzish;

4) o'zbek tili grammatikasining formal modelini ishlab chiqish;

5) o'zbek tili grammatikasining aksisematik nazariyasini yaratish;

6) matnlarni o'zbekcha o'qiydigan kompyuter dasturiga asos solish;

7) o'zbek tilidagi ma'lumotlarni kompyuterga ovoz orqali kiritishni amalga oshirish;

8) o'zbek tiliga o'qitadigan va bilimlarini baholaydigan kompyuter dasturlarini yaratish;

9) o'zbekcha-inglizcha, inglizcha-o'zbekcha kompyuter lug'atlarini yaratish;

10) o'zbekcha "Windows" operatsion sistemani yaratish;

11) o'zbekcha-inglizcha, inglizcha-o'zbekcha tarjimon dasturlar yaratish;

12) o'zbekcha matnlarni tahrirlovchi kompyuter dasturini yaratish;

13) ingliz tilida o'zbek tili darsligini yaratish.

Yuqorida sanab o'tilgan holatlardan aksariyat qismlari, bugungi kun kompyuter dasturlari ichida faol ishlab kelmoqda. Lekin kompyuterga ovoz orqali kiritish amalga oshirilgani yo'q. O'zbek tiliga o'qitadigan va bilimlarni baholaydigan kompyuter dasturi deganda, faqat test asosida baholash, ya'ni ko'rsatilganlardan ma'lum miqdorini belgilash ishlatilayotgan bo'lsa, chizgan surat, matematik formuladagi xatolik yoki matnda yo'l qo'yilgan orfografik, uslubiy hamda boshqa xatoliklarni aniqlovchi dasturni mukammal qilib yaratish oldimizda turgan asosiy vazifalardan biri. To'g'ri, bu vazifalarni bajarish juda qiyinday tuyiladi, lekin bugungi kunda o'zbekcha ishlaydigan "Windows" operatsion tizimi

⁹⁴ Ўша маҳба. – Б. 161.

yaratilgan, biroq ishlash darajasi 100%ni tashkil etmasa-da, demak, bu vazifalarni uddalasa bo‘ladi. Tarjimon dasturlarni ham ko‘rishimiz mumkin, lekin mukammal ishlamasligiga guvoh bo‘lamiz. O‘zbekcha matnlarni tahrirlovchi kompyuter dasturlarni yaratish esa, oliy maqsad bo‘lishi shart.

Korpus lingvistikasi ham jahon kompyuter lingvistikasining juda tez rivojlanib borayotgan sohasi, bu borada sezilarli darajada yutuqlarga erishilmoqda. Rivojlangan davlatlardagi oliy ta‘lim muassasalarida korpus lingvistikasi fan sifatida o‘qitib kelinmoqda. Demak, bu sohaning predmeti korpus yaratish nazariyasi va amaliyoti bo‘lsa, fan sifatida korpusning o‘ziga xosligi, dasturlash asoslari kabi jihatlari o‘qitilishi ko‘zda tutiladi. Korpus lingvistikasi kompyuter lingvistikasining tarkibiy qismi, til korpusini yaratish, kompyuter texnologiyasi yordamida ulardan foydalanishning umumiy nazariyasi va amaliyoti bilan shug‘ullanadi.⁹⁵ Korpus lingvistikasining predmeti – til korpusi. U ingliz tilida “linguistic corpus” yoki “text corpus” kabi atamalar bilan qo‘llanib, ilmiy adabiyotlarda turlicha ta‘riflangan.⁹⁶ “Korpus – ma‘lum maqsadda yig‘ilgan matnlar majmuini tashkil etuvchi til birliklarining yig‘indisi”, “korpus – alohida tilning yozib olingan og‘zaki hamda yozma matnlari asosidagi lingvistik ma‘lumotlar majmui”, “korpus-istalgan tabiiy (real) tildagi elektron shaklda saqlanadigan yozma yoki og‘zaki, kompyuterlashtirilgan qidiruv tizimiga joylashtirilgan matnlar yig‘indisi kabi. Demak, til korpusi⁹⁷ ma‘lum tilning belgilangan davrdagi, xilma-xil janr, rang-barang uslub, hududiy holda ijtimoiy variantdagi matnlarning elektron shakldagi maxsus dasturiy ta‘limot asosidagi yig‘indisidir.

Til korpusi bugun jahonda tez taraqqiy etayotgan soha – korpus lingvistikasi mutaxassislari tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borish, til o‘rgatish maqsadida yaratilmoqda. Jahon tillarining juda ko‘pchiligi mukammal darajali, matnning ilmiy, qayta ishlash imkoniyati bilan farq qiluvchi milliy korpusiga ega. Zero, “bugungi kunda lingvistik tadqiqot va amaliy topshiriqlar yechimi uchun til

⁹⁵ Захаров В.П. Корпусная лингвистика // Учебно-методическое пособие. – Санкт-Петербург: СПбГУ, 2005. – С.48.

⁹⁶ Кутузов А.Б. Корпусная лингвистика. – Москва, 2008. – С. 26.

⁹⁷ Национальный корпус русского языка // Вопросы языкознания. – Москва: Наука, 2006. – С. 149–155.

korpuslari zamonaviy tilshunoslikning inkor etib bo'lmaz ish quroliga aylandi, chunki korpus turli lingvistik topshiriqlarni yechishga xizmat qiladi.⁹⁸

Demak, til korpusi deganda oddiy elektron kutubxona, ya'ni "Ziyonet kutubxonasi" yoki "Xurshid Davron kutubxonasi" emas, balki bunda elektron kutubxona matnlari tilshunoslik nuqtai nazaridan leksik, morfologik, grammatik, semantik belgilari asosida boyitilgan kutubxona nazarda tutiladi. Bundan tashqari, tilni tadqiq qilish, o'rganish va o'rgatish uchun zaruriy, foydali va qiziqarli matnlar to'planishi nazarda tutiladi.

Yuqorida keltirib o'tganimizdek, korpus foydalanuvchisi uchun turli imkoniyat va qulaylik yaratadigan, korpusdan zaruriy axborotni olishga yordamlashadigan bir necha maxsus dasturiy vosita-konkordans (qidiruv tizimining nisbatan oddiy ko'rinishi) yoki korpus menejiri mavjud. Korpus menejeri maxsus qidiruv tizimi, u korpus ma'lumotlarni olishga mo'ljallangan bir necha dasturlardan iborat, statistik axborot va qidiruv natijasini foydalanuvchiga qulay shaklda taqdim etadi.⁹⁹

Qidiruv natijasi, odatda, konkordans – qidirilayotgan birlik leksik bog'lanish holatida manbaga ilova qilingan kontekstlar ro'yxati shaklida namoyon bo'ladi, korpus menejerining qidiruv imkoniyati aniq so'zshakli, so'zning lemma (korpusda leksema shunday aytiladi) shakli, birikmali bo'lingan va bo'linmagan sintagma, morfologik belgilarga asoslangan jamlanma shaklini qamrab oladi. Talab qilingan hajmdagi kontekst ko'rsatkichlari qidiruv natijasi, saralangan materialni alohida faylda saqlash imkonini beradi¹⁰⁰.

Korpus yordamida bajariladigan amalning samaradorligini oshirish maqsadida korpus menenjeriga quyidagi umumiy talablar qo'yiladi:¹⁰¹

- 1) to'liq konkordans ro'yxatini tuzish;

⁹⁸ Недашивина.Э.В. Программы для работы с корпусами текстов: обзор основных корпусных менеджеров. Учебно-методическое пособие. – Санкт-Петербург, 2006, С.26.

⁹⁹ Хамраева Ш. Ўзбек тили морфологик анализатерининг лингвистик таълимоти – Тошкент: ClobeEdit, 2020.

¹⁰⁰ www.ruscovpova.ru // Плунгян В. Зачем мы делаем корпусы?

¹⁰¹ Кутузов А.Б. Курс. Корпусная лингвистика. – Москва, 2008. – С. 26.

2) nafaqat alohida soʻzni, balki murakkab birlik qidiruvini amalga oshirish;

3) chiqarilgan roʻyxat (qidiruv natijasini) bir necha imkon asosida saralash;

4) foydalanuvchiga qidirilgan soʻz shaklini kengaytirilgan koʻrinishda taqdim etish;

5) korpusning har bir elementi haqida sintaktik axborot berish;

6) lemmalarni aks ettirish;

7) soʻzshakllarning morfologik xususiyati va qoʻshimcha axborotini (bibliografik, tipologik) berish (bu parametr korpusga berilgan qoʻshimcha izohga bogʻliq);

8) natijalarni saqlash va nashr etish uchun alohida faylda ishlay olish;

9) nafaqat korpus, balki alohida fayllar bilan ham yuqori tezlikda ishlay olish;

10) matnning barcha turdagi formatini (txt, rtf, dc, html, xml) oʻzida saqlay olish;

11) tajribali va yana foydalanuvchilar uchun birdek engil va intuitiv tushunarli boʻlish.

Til korpusining yana bir muhim jihat – korpus annotatsiyasi. Bunga Sh.Hamroyevaning monografiyasida shunday taʼrif berilgan: “turli lingvistik topshiriqlar amalini bajarish uchun matnga lingvistik va qoʻshimcha maʼlumot bilan ishlov berilgan boʻlishi lozim. Buning uchun matn ekstralingvistik annotatsiyasi mavjud matn, uning komponentlariga maxsus izoh (masalan, soʻz turkumi haqida maʼlumot) berilishi kerak. Bu izoh matn tegi (belgi ishora) yoki annotatsiya deb ataladi.”¹⁰²

Bundan shunday xulosa chiqadiki, annotatsiya mukammal, toʻliq boʻlishi korpus ahamiyatini belgilovchi omil. Sh.Xamroyevaning yuqorida keltirilgan monografiyasida yana bir xususiyat – reprezentativlik toʻgʻrisida soʻz boradi. Bu atama ostida zaruriy hajm, miqdor, janr, uslub, mualliflarga tegishli matnlar proporsiyasining toʻgʻri tanlanishi, tushunilishini taʼkidlagan. Bu xususiyat korpus tuzish jarayonida ham, undan foydalanish jarayonida ham saqlab turish korpusining ahamiyatini taʼminlovchi

¹⁰² Хамраева Ш. Ўзбек тили морфологик анализатерининг лингвистик таълимоти – Тошкент: ClobeEdit, 2020.

asosiy omil. Demak, korpus turli mavzudagi gazeta, jurnal materiallari, fanning barcha sohasiga tegishli ilmiy, ilmiy-ommaviy asarlari, reklama, shaxsiy yozishma matnlari hamda badiiy asarlaridan tarkib topgan bo‘lishi lozim.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, korpus kompyuter asrigacha ham shakllanib ulgurgan edi. Lekin keyingi davrda tadqiqning korpus metodidan foydalanishga qiziqishning kuchayishini matnlarning katta massasini qayta ishlashga to‘g‘ri kelganligi bois, kompyuter texnologiyalarining kirib kelishiga ehtiyoj tug‘ildi. Aksariyat olimlar tilni tadqiq etishda introspeksiya (o‘z-o‘zini kuzatish), tabiiy faktga tayanish usuli doim ham aynan bir xil natija beravermaydi, degan fikrni yoqlashadi. Mashhur korpus lingvistikasi mutaxassisi Toni Mak Enneri, Endryu Uilson ham empirik fakt, introspektsidan ham tabiiy, sun’iy faktdan foydalanish lozimligini uqtiradi.¹⁰³ Demak, korpus lingvistikasi korpus shaklida bo‘lmagan nutqiy ma’lumotning muhimligi, ahamiyatini ham rad etmaydi. Korpusni tuzish, o‘rganish korpus lingvistikasi sohasi rivojlanishidan oldin XVII asrlarda boshlangan, bunga “Bibliya”ga oid tadqiqotlar, lug‘atlar, tillarni o‘qitish va Kvirk korpusini misol sifatida keltirish mumkin.¹⁰⁴ Faqatgina kompyuter asrigacha bo‘lgan davrida noelektron shaklda yuzaga kelganligidan dalolat beradi. Bunga misol sifatida Panini tomonidan tuzilgan grammatika, “Injil” matnlarining tadqiq etilganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni misol keltirish mumkin.

Keyingi asrda ham noelektron shaklda yaratilgan korpuslarga ehtiyoj borligi sezilib turdi. Chunki yangi ko‘rinishdagi korpuslarning yuzaga kelishi uchun noelektron korpuslar asos bo‘ldi, bundan tashqari, korpusni shakllantirish bazasi sifatida muhim manba vazifasini bajaradi.

¹⁰³ Кутузов А.Б. Курс “Корпусная лингвистика. Лицензия Creative commons Attribution share-Alike 3.0 Unported (электрон ресурс) – [//lab314.brsu.by/kmp-lite/kmp-video/CL/CorporeLingva.pdf](http://lab314.brsu.by/kmp-lite/kmp-video/CL/CorporeLingva.pdf).

¹⁰⁴ Хамраева Ш. Ўзбек тили морфологик анализаторининг лингвистик таълимоти – Тошкент: ClobeEdit, 2020. – Б.32

Mavzuga oid nazorat savollari.

5. Nazariy, ta'limiy va amaliy masalalarning bir-biridan farqli va o'xshash jihatlariga izoh bering.
6. Til korpusi to'g'risida ma'lumot bering.
7. Komyuter lingvistikasi to'g'risida ma'lumot bering.
8. Korpus lingvistikasi to'g'risida ma'lumot bering.
9. Korpus menejeri to'g'risida ma'lumot bering.
10. Konkordans to'g'risida ma'lumot bering.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Анисимов А.В. Компьютерная лингвистика: мифы, алгоритмы, язык. – Киев: Наука думка, 1991.
2. Захаров В.П. Корпусная лингвистика // Учебно-методическое пособие. – Санкт-Петербург: СПбГУ, 2005. – С.48.
3. Кутузов А.Б. Корпусная лингвистика. – Москва, 2008. – С. 26.
4. Марчук Ю.Н. Компьютерная лингвистика. Москва: АТС: Восток и Запад, 2007.
5. Менглиев Б. Тилшуносликнинг амалий масалалари. – Тошкент: ClobeEdit, 2020. – Б. 46–47.
6. Нелюбин Л.Л. Компьютерная лингвистика и машинный перевод. –Москва: ВЦП, 1991.
7. Пиотровский Р.Г. Математическая лингвистика. – Москва: Высшая школа, 1977.
8. Пулатов А. Компьютер лингвистикаси. – Тошкент: Академнашр, 2011. – 161.
9. Хамраева Ш. Ўзбек тили морфологик анализаторининг лингвистик таълимоти – Тошкент: ClobeEdit, 2020.

2-mavzu: Morfologik lug‘atlarning yaratilishi

REJA:

1. Sun‘iy intellekt haqida.
2. Grammatik lug‘at tushunchasi.
3. Morfologik lug‘atini tuzish haqida.

Tayanch so‘z va iboralar: *til korpusi, korpus lingvistikasi, kompyuter lingvistikasi, milliy korpusini yaratish, tarjima dasturlarini ishlab chiqish, morfologik analizatorni ishlab chiqish, orfografik tekshiruv, morfologik-avtomatik analizator dasturini tuzish, grammatik lug‘at, morfologik analizatorlar.*

O‘tgan asrning birinchi choragida ona tili ta‘limiga ommani yoppasiga savodxon qilish talabi qo‘yilgan. Asrning ikkinchi choragida tilshunoslik oldida adabiy til me‘yorlarini ishlab chiqish vazifasi turgan bo‘lsa, ta‘lim zimmasida fanning bu boradagi yutuqlarini amaliyotga joriy qilish va ommalashtirish ijtimoiy buyurtmasi turar edi. Xo‘sh, bugungi kunda ta‘lim, aniqrog‘i, ona tili ta‘limiga yuklatilgan ijtimoiy buyurtma nima, ta‘lim vositalari unga qay darajada monand, tilshunoslikda dastlab qaysi bo‘limga alohida e‘tibor qaratish kerak, qaysi bo‘limlarni qaytadan tahlil qilib, o‘quvchi ommasiga etkazish kerak? kabi masalalar turibdi. Shular qatorida lug‘at va lug‘atning yangicha qirralarini ochish masalasi turibdi.

Tilshunoslikda lug‘atlar manbalar orasida tillararo munosabatlarni ta‘minlash, tilning grammatik qurilishini *o‘rganish*, til me‘yorlarini o‘z o‘rniga qo‘yish, jamiyat a‘zolarining milliy tafakkuri, nutq boyligini o‘stirish, ijtimoiy-siyosiy ongini shakllantirishdagi bebaho xizmati bilan alohida ajralib turadi. XX asr boshlariga kelib, lug‘atlar ta‘lim samaradorligini oshirishning muhim omili ekanligi e‘tirof etila boshlandi, chunki tilshunoslikda leksikografiyaning yangi lingvodidaktik yo‘nalishdagi o‘quv lug‘atchiligi tarmog‘i paydo bo‘ldi. Natijada jahonning ilg‘or davlatlarida maktab uchun maxsus lug‘atlar yaratilib, ular ta‘lim kompleksining to‘laqonli a‘zosiga aylantirildi.

O‘zbek tilining sun‘iy intellekt tiliga aylantirilishi uning ham yashash shartlaridan biri ekanligi bugungi kunda hech kimga sir emas. Zero, “axborot asrida rivojlanishga da‘vogar har qanday til

sun'iy intellekt tiliga aylanishi kerak. Ona tilimizning dunyo miqyosidagi nufuzi faqat tashviqot-targ'ibot bilan oshmaydi. Sun'iy intellektga doxil bo'lmagan tilning taraqqiyoti haqida gap ochish ham to'g'ri emas".¹⁰⁵ Shuning uchun ham, davlat tiliga e'tibor siyosatining zahirida o'zbek tilining internet sohasida qo'llanish samaradorligini oshirish, axborot-kommunikatsiya sohasida funktsionallashtirishni yuksaltirish vazifalari yotadi. Shu bois davlatimizda davlat tiliga e'tibor ustuvor yo'nalishlardan biri darajasiga ko'tarildi. "Ona tilimizning mavqei yanada oshirish, o'zbek tilining zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimida keng qo'llanishiga erishish, buning uchun milliy-madaniy merosimizni chuqur o'rganish, ona tili ta'limida elektron resurslarni ko'paytirish, shuningdek, ushbu resurslardan ta'lim oluvchilarning cheklanmagan holda foydalanishiga erishish, milliy-ma'naviy tarbiyaga xizmat qiluvchi madaniy meros – ona tili materiallarini bir platformaga to'plash dolzarb vazifaga aylandi. So'nggi yillarda til siyosati va tillarni rivojlantirish bo'yicha ketma-ket chora-tadbirlarning belgilanishi bu boradagi masala naqadar jiddiy ekanligini ko'rsatadi".¹⁰⁶ O'zbek tili grammatikasini amaliy maqsadlarda chuqurroq o'rganish, tadqiqotlarga amaliy tus berish, shu kungacha asosiy nazariy morfologik ta'limot asosida grammatik shakllarni analitik tadqiq etish, tahlil xulosalari asosida morfologik shakllar lug'atini tuzish o'zbek tabiiy tilini sun'iy intellekt uchun modellashtirish uchun kuchli zamin bo'ladi.

O'zbek tilining morfologik lug'atini yaratishning nazariy va metodologik asoslari yaratilgan. Bu esa o'zbek tilining milliy korpusini yaratish, tarjima dasturlarini ishlab chiqish, morfologik analizatorni ishlab chiqish, orfografik tekshiruv, morfologik-avtomatik analizator dasturini tuzish masalasi ushbu morfologik lug'atning natijasi bilan bog'liq. O'zbek tilining agglutinativ

¹⁰⁵ <https://kun.uz/news/2020/10/18/baxtiyor-mengliyev-ozbek-tilining-ham-milliy-korpusi-yaratilishi-lozim>

¹⁰⁶ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2019 йил 21 октябрдаги «Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нufузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5850-сон фармони; Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йил 20 октябрдаги «Мамлакатимизда ўзбек тилини янада ривожлантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-6084-сон фармони.

tabiati – uning behad katta morfologik tizimi bilan bog‘liq ravishda ushbu lug‘atni tuzishga olimlarimizda jur‘at yetishmadi va bu bevosita o‘tgan davrda hali kompyuter texnologiyalarining rivojlanmaganligi hamda kompyuter savodxonligining darajasi bilan ham belgilanadi.

Ma‘lumki, grammatik lug‘at – barcha grammatik shakl hosil qiluvchi vositalarni o‘z ichiga oluvchi tizimli sohaviy lug‘at. Buning yorqin namunasi A.A.Zaliznyakning rus tili grammatik lug‘ati¹⁰⁷ bo‘lib, u rus tilidagi ot, sifat, son, olmoshning grammatik o‘zgarishlarini ters lug‘at ko‘rinishida namoyon qiladi¹⁰⁸. Bu lug‘at bir necha marta lug‘at va elektron ko‘rinishlarda qayta nashr qilingan. Bugungi kunda u rus tilini modellashtirishda, imloviy tahrir, avtomatik tarjima ishlarida keng foydalanilmoqda. “Grammatik lug‘at hozirgi rus tili so‘zlarining grammatik o‘zgarishini ko‘rsatadi. Lug‘at ters/inversion tarzda tartiblangan 100000 so‘zni qamrab olgan: so‘z boshlanuvchi harf emas, so‘zning oxiridagi harf tartibida joylashgan. Har bir so‘zga grammatik ma‘lumotga havola qiluvchi belgi-indeks qo‘yilgan: foydalanuvchi ushbu indeks orqali turlanish, tuslanish qoidalari asosida uni qiziqtirgan so‘zni turlaydi, tuslaydi. Lug‘atning birinchi nashridan bugungi kunga qadar rus tilida bo‘lgan o‘zgarishlar inobatga olingan, to‘ldirilgan. Shuningdek, 8000 atoqli ot grammatik tavsifi bilan kiritilgan”.¹⁰⁹

Keyingi davrda yaratilgan “Vikilug‘at” (Vikislovar)¹¹⁰ da berilgan rus tilidagi so‘zlarning grammatik shakllari haqidagi ma‘lumotlarni berishda A.A.Zaliznyak lug‘ati asos qilib olingan. So‘z o‘rgarishi masalalari tavsifida olimning fikrlari tayanch vazifasini o‘taydi. Keyinchalik o‘zlashma so‘zlarning grammatik xususiyatlarini avtomatik tahlil qilish dasturida ham A.A.Zaliznyak tomonidan tavsiya etilgan indekslar, indekslash usullaridan chetga chiqib ketilmaganligi etiborga molik¹¹¹.

¹⁰⁷ Зализняк А.А. Грамматический словарь русского языка. Словоизменение. (3-е издание 1987). – 1977.

¹⁰⁸ https://ru.m.wikipedia.org/wiki/Грамматический_словарь_русского_языка_А._А._Зализняка.

¹⁰⁹ <https://gramdict.ru>.

¹¹⁰ <https://ru.wiktionary.org>.

¹¹¹ https://ru.wiktionary.org/wiki/Викисловарь:Использование_словаря_Зализняка.

Garchi flektiv tillar bo'lsa-da, rus va ingliz tillarining ko'plab morfologik lug'atlari tuzilgan. Hatto rus tilining o'zida buning 10 ga yaqin turini sanashimiz mumkin. Rus tilshunosligida alohida fe'l turkumining ham grammatik ko'rsatkichlari lug'ati yaratilganligi e'tiborga molik. Bu borada akademik (A.P.Okuneva) va o'quv lug'atlari (V.D.Tolmacheva) nashr ettirgan.

Dastlab qog'oz ko'rinishida bo'lgan bu lug'atlar takomillashtirilib, elektron-onlayn lug'atlarga aylantirilgan, morfologik analizatorlar uchun dasturiy ta'minot vazifasini bajarmoqda. Bu dasturiy ta'minot asosida matnning imloviy tekshiruvi, tarjimai, avtomatik morfologik tahlil kabilar amalga oshirilmoqda.

O'zbek formal va substantsial morfologiyasi yuqori darajada taraqqiy etgani holda shu kungacha bu nazariy xulosalarni amaliyotga tatbiq etib, kompyuter dasturlari uchun o'ta muhim lingvistik ta'minot vazifasini yaratishga xizmat qiladigan morfologik shakllar lug'ati yaratilmagan edi.

Albatta, bu borada ilk urinishlar bo'lib turganligini e'tirof etmoq lozim. O'zbek tili agglyutinatив til bo'lganligidan uning morfologik tarkibi o'ta murakkab, morfologik shakllarning kombinatsiyasi ham favqulodda ko'lamli miqdorni tashkil qiladi. Buni fe'l turkumi bo'yicha tavsiflar ekan, fizika-matematika fanlari doktori, professor A.Po'latov shunday tavsiflaydi: "O'zbek tili grammatikasi (yuqorida ko'rsatilgan tizimda) to'la o'rganib chiqilmagan, ya'ni sistemallashtirilmagan, formallashtirilmagan. Masalan, fe'l, ot va boshqa turkumlarga oid so'z shakllar, gap konstruktsiyalari to'liq ro'yxatga olinmagan (masalan, birgina *ishlamoq* fe'lining o'zbek tilidagi shakllari taxminan 100 000 dan oshadi, ingliz tilida esa taxminan 150 tagina shakli mavjud, xolos). Bular haqidagi ma'lumotlar A.Po'latov, T.Mo'minova, I.Po'latovalar qalamiga mansub "Dunyoviy o'zbek tili. O'zbek tilida fe'l shakllari va ularning rus, ingliz tilidagi ko'rinishlari" (Toshkent: Universitet, 2003) asarida keltirilgan". Albatta, olimning bu farazida haqiqat bor. U ehtimollar nazariyasi asosida obyektiv haqiqatga uyg'un fikrlarni bayon qilgan. Biroq tekshiruvlar olim qarashlarining asl haqiqatga to'liq mos emasligini ko'rsatdi.

2021-yilda o‘zbek tili fe’l shakllari lug‘atini tuzgan Sh.Hamroyeva, O‘.Xoliyorov va G.Abdualimovalar (keyingi o‘rinlarda “tuzuvchilar”) o‘zbek tili fe’l shakllari morfologik lug‘atini yaratishda quyidagilarga alohida e’tibor qaratgan:

- 1) o‘zbek tilida mavjud grammatik shakllar;
- 2) morfologik shakllarning pozitsiyalari;
- 3) shaklning grammatik tarkibi;
- 4) grammatik morfema modeli.

Tuzuvchilarning uqtirishicha, o‘zbek adabiy tilida 4000 atrofida fe’l mavjud (ular buni 5 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” ga tayanib aytmoqdalar). Lug‘atda eng ko‘p morfologik shakllarga ega bo‘lgan fe’llardan *kiymoq* fe’li tanlangan. “O‘zbek tilida bir fe’lning morfologik shakllari haddan ziyod ko‘p bo‘lganligi uchun boshqa tillardagi grammatik lug‘atlardan farqli o‘laroq faqat bitta fe’l tanlandi. Shu bitta fe’lning shakllari o‘zbek tili imkoniyati naqadar boy ekanligini ochib beradi, manzarasini yetarlicha namoyon etadi, qolaversa, boshqa fe’llarning shakllari uchun ham asos bo‘lib xizmat qiladi”.¹¹²

Bu lug‘at yaratilishidan oldin o‘zbek tili fe’l shakllari statistikasi haqidagi fikrlar A.Po‘latov kitobidan boshqa adabiyotlarda aytilmagan va kun tartibiga ham qo‘yilmagan. “O‘zbek tilida fe’l shakllarini ko‘rsatish uchun misol sifatida *ishlamoq* fe’li olindi. Fe’lning ba’zi shakllarini berishda, muvofiq kelishiga qarab, boshqa fe’llardan (masalan, *yuvinq, o‘qimoq, sevinmoq* kabi) ham foydalanildi”.¹¹³ Shunday qilib, A.Po‘latov ilk bor 100 ming miqdorini ishlatgan va buning o‘zi katta yangilik edi.¹¹⁴ Ammo bu lug‘at bir fe’l doirasidagi izlanishlar har doim ham adekvat ma’lumot bera olmasligini ko‘rsatdi. Olim kitobida fe’l shakllari quyidagi asoslarda belgilanganligi qayd etiladi:

- 1) fe’lning gapdagi vazifasi;
- 2) fe’lning qaysi gap turida ishlatilayotganligi;
- 3) qaysi maylda qo‘llanayotganligi;

¹¹² Hamroyeva Sh.M., Xoliyorov O‘.M., Abdualimova G.H. O‘zbek tilining fe’l shakllari lug‘ati (“kiymoq” fe’li misolida): lug‘at. – Termiz: Termiz davlat universiteti, 2021. – 492 b.

¹¹³ Пулатов А., Мўминова Т., Пулатова И. Дунёвий ўзбек тили. Ўзбек тилида феъл шакллари ва уларнинг рус, инглиз тилидаги кўринишлари. – Тошкент: Университет, 2003. – Б 18.

¹¹⁴ Ўша манба. – Б 357.

- 4) qaysi zamonda ishlatilayotganligi;
- 5) qaysi nisbatda ekanligi;
- 6) qaysi yordamchi fe'llar bilan kelishi;
- 7) qaysi yuklamalar bilan kelishi.¹¹⁵

Tuzuvchilarning aniqlashicha, “ushbu grammatik vositalarning turli kompozitsiyalaridan, ya’ni aranjirovkasi orqali 583 ta shakl keltirib chiqarilgan. Bu o’rinda harakatning kuchli yoki kuchsiz darajasini bildiruvchi vositalar, vazifa shakllariga qo’shilishi mumkin bo’lgan egalik, kelishik, son kabi qo’shimchalari kabi vositalarning birikishi hisobga olinmagan”.¹¹⁶

Tuzuvchilar fe’l shakllarini quyidagicha hisoblab chiqishgan. Ularga ko’ra, fe’l shakllarining umumiy sonini hisoblashda bevosita kitobga asoslaniladi, chunki kitobdagi nomerlar bo’yicha amalga oshirilgan. 254-raqamgacha ijro maylli fe’l shakllari keltirilgan. 299-raqamgacha shart maylli fe’l shakllari (ergash gaplar 45 ta, bosh gaplar 30 ta) keltirilgan, ya’ni $254+45+30=329$; 329×28 (ko’makchi fe’llar) = 9212; 9212×6 (shaxs-son turlanish) = 55272. Buyruq maylidagi fe’l shakllari 49 ta: $49 \times 28 = 1372$; $55272 + 1372 = 56644$. Jami: darak gaplardagi barcha fe’l shakllari soni 56644 ta ekanligi aniqlangan.¹¹⁷

So’roq gaplarning miqdori quyidagicha hisoblangan. Agar ijro maylida $254 \text{ tani} \times 2$ (-mi, -chi yuklamalarni inobatga olsak) = 508; shart maylida esa $75 \times 2 = 150$; buyruq maylida $49 \times 2 = 98$; $508+150+98=756$. Jami: Demak, so’roq gaplar 21168. Sifatdosh $55 \times 28 = 1540$; ravishdosh hammasi bo’lib 95 ta (ko’makchi fe’l bilan); modal so’zlar (kerak, lozim, mumkin kabilar) $6 \times 28=168$; $1540+95+168=1803$. Jami: 1803. Inkor gaplar quyidagicha miqdoriy shakllarni berishi asoslangan. Darak gaplardagi fe’l shakllarini 2 ga ko’paytirsak, barcha inkor gaplar soni hosil bo’ladi. Shunday qilib, barcha fe’llar ko’rinishlarining umumiy soni: $56644+21168+1803 = 79615$ (inkor gaplarni qo’shmaganda). Inkor gaplar: $329+49=378 \times 28 = 10584$; $10584 \times 2 = 21168$; $1803 \times 2 =$

¹¹⁵ Ўша манба0.... – Б. 18.

¹¹⁶ Hamroyeva Sh.M., Xoliyorov O’.M., Abdualimova G.H. O’zbek tilining fe’l shakllari lug’ati (“kiymoq” fe’li misolida): lug’at. – Termiz: Termiz davlat universiteti, 2021. – 492 b.

¹¹⁷ Шу манба.– 492 б.

3606. Jami: $21168+3606=24774$. Natija: $79615+24774=104389$ (inkor gaplarni qo'shganda).¹¹⁸

Tuzuvchilarning ta'kidlashicha, "har bir zamon qo'shimchasidan keyin shaxs-son qo'shimchalari biriktirildi. 66 shaklga 6 xil shaxs-son qo'shimchalari biriktirilishi natijasida 396 xil ko'rinish yuzaga keldi. Keyin jarayon davom ettirilib, mayl qo'shimchalari, vazifa shakllari, ba'zi murakkab shakllar biriktirildi. Vazifa shakllarining egalik va kelishik qo'shimchalarini qabul qilish imkoniyatiga qarab ular ham shakllantirildi. So'ngra bo'lishsiz shakllarining *-ma*, *yo'q*, *emas* vositalari yordamida fe'lining inkor shakli hosil qilindi. Natija shunday bo'ldiki, zamon, mayl, shaxs-son, bo'lishli-bo'lishsizlik, vazifa shakllarining aniq nisbatda kelish ko'rinishlari variantdoshlari bilan 1702 xil (variantdoshlar hisobga olinmaganda 1451 xil) morfologik shaklni hosil qildi".¹¹⁹

Shunday qilib, tuzuvchilar "kiy" fe'lining 29 ming morfologik shakli ko'makchi fe'l bilan ham birika olishini ta'kidlaylar. Buning uchun "28 ta ko'makchi fe'lining 34 shakli (varianti bilan 36) borligi aniqlandi (1-jadval). Keyin ko'makchi fe'llarning 2 talik, 3 talik qo'llanuvchi 200 dan ortiq ko'rinishida baza tayyorlandi. Ulardan 19 ko'makchi shaklni "kiy" fe'li qabul qila olishi aniqlandi. Avvaldan tayyorlangan 29 ming shaklga biriktirib ko'rilganda, o'rtacha har bir ko'makchi shakldan 15 ming shakl hosil bo'ldi, bir qismida g'alizlik paydo bo'ldi. Demak, $19 \times 15000 = 285000$ morfologik shakl yuzaga keldi. 29 shakl 285 ming shakl bilan birga 314 ming grammatik shaklni hosil qiladi".

Albatta, bu ham oxirgi chegara emas. Yuqorida keltirilgan fe'llarning *-mi*, *-chi*, *-a*, *-ya*, *-da* yuklamalari bilan ham alohida-alohida qo'shilishi inobatga olinsa, o'zbek tili fe'l shakllari 1 mln dan oshishi ma'lum bo'ladi.

Bu shakllarning to'liq aniqlanmasligi va modellashtirilmasligi o'zbek tilining sun'iy intellekt tiliga aylanishida katta to'siq bo'lib qolaveradi.

Lug'at tuzuvchilari o'zbek tili amaliy morfologiyasi bo'yicha ulkan ishni amalga oshirdilar. Bu 100 yillar davomida bajarilgan samarali lingvistik tadqiqotlarning davomi va mevasidir.

¹¹⁸ IIIy маҳба.– 492 б.

¹¹⁹ IIIy маҳба. – 492 б.

Mavzuga oid nazorat savollari.

4. Sun'iy intellekt haqida ma'lumot bering.
5. Grammatik lug'at tushunchasi qanday ahamiyatga ega.
6. Morfologik lug'atini tuzish haqida tushuntirish bering.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Зализняк А.А. Грамматический словарь русского языка. Словоизменение. (3-е издание, 1987). – 1977,
2. Hamroyeva Sh.M., Xoliyorov O'.M., Abdualimova G.H. O'zbek tilining fe'l shakllari lug'ati ("kiymoq" fe'li misolida): lug'at. – Termiz: Termiz davlat universiteti, 2021. – 492 b.
3. Пулатов А., Мўминова Т., Пулатова И. Дунёвий ўзбек тили. Ўзбек тилида феъл шакллари ва уларнинг рус, инглиз тилидаги кўринишлари. – Тошкент: Университет, 2003. – Б 18.

3-mavzu: Morfologik analizatorni yaratish

REJA:

1. Morfologik analizator haqida.
2. Avtomatik morfologik tahlil haqida.

Tayanch soʻz va iboralar: *tarjima dasturlari, morfologik analizator, orfografik tekshiruv, morfologik-avtomatik analizator, grammatik lugʻat, morfologik analizator, grafematik tahlil, morfologik tahlil, sintaktik tahlil, semantik tahlil, stemmatizatsiya, morfoanalizatorida grammatik maʼno va grammatik shakl, grammema, kvazigrammema va derivatemalar.*

Morfologik analizator – lugʻat(leksikon)dagi soʻzshakl va alohida soʻzlarni qiyoslashga moʻljallangan, soʻzning grammatik xususiyatini ifodalaydigan algoritmlar toʻplami.¹²⁰ Sintaktik parser matnni “tanish” funksiyasiz ham ishlay olsa-da, tahlil jarayonida morfologik analizator tahlil natijasini faol qoʻllaydi. Matnning grammatik axborot beruvchi razmetkasi sintaktik tahlil qoidalarini tuzishga yordam berishi aytilgan. Masalan, ot va sifat orasidagi munosabatni aniqlash qoidasini olish mumkin. Rus grammatikasi qoidalaridan kelib chiqib aytish mumkinki, otdan chap tomonda turuvchi sifat ot bilan bir xil kelishik, son va rodga boʻlsa, u bilan aloqaga kirishadi: На крутом (предложный, ед., муж.) берегу (покатив; ед., муж.). Ushbu qoida ot va sifat bogʻlanishining yagona asosi hisoblanmaydi, ammo u nisbatan koʻproq holatlarda shunday bogʻlanishlarni hosil qiladi.¹²¹

Morfologik analizator mualliflarning fikricha, analizator vazifalari sirasiga soʻzning barcha grammatik shakllarini tavsiflash, uning aynan maʼlum bir matndagi istisno holatlari haqida maʼlumot berish kabilar kirishi taʼkidlangan. Analizatorning eng oxirgi, koʻp vaqt sarflanadigan vazifasi notanish soʻzning ehtimoliy grammatik maʼnosini aniqlashdan iborat boʻladi.

¹²⁰ sehttp://www.solarix.ru/for_developers/docs/morphology_analyzer.shtml.

¹²¹ Хамроева III. Ўзбек тили морфологик анализаторининг лингвистик таъминоти. Тошкент: ClobeEdit, 2020. – Б.50.

Morfologik analizatorning muhim tomoni shundaki, u bitta tilga moslashtirilmagan, balki bir necha tilni tahlil qilishda foydalanish, ma'lum bir tilning qoidalari majmui lug'at bazasiga joylashtirilib, morfologik tahlil algoritmi turli tillarga joylashtirilishi mumkin.

Umuman olganda, matnning avtomatik tahlili bir necha murakkab operatsiyadan iborat: kompyuter tabiiy tildagi matn tahlilini belgilangan algoritm asosida amalga oshiradiki, avtomatik tahlil davomida kompyuter matn haqida o'z tilida leksik-morfologik, sintaktik, semantik tasavvur hosil qiladi. Matnning avtomatik analiz va sintez jarayoni kompyuter lingvistikasining asosiy vazifalaridan biri sanaladi. Bu vazifa sun'iy intellekt uchun lingvistik modellar yaratish va insoniyatning amaliy ehtiyojidan (masalan, avtomatik mashina tarjimasini) kelib chiqadi.¹²²

Matnning avtomatik tahlili bir necha bosqichdan iborat:¹²³

- 1) grafematik tahlil: so'z, gap, abzats va boshqa matniy element (masalan, gazeta matni bo'lagi) chegarasini aniqlash;
- 2) morfologik tahlil: matnda qo'llangan so'zshaklning bosh shaklini hamda bu so'zning morfologik belgilarini aniqlash;
- 3) sintaktik tahlil: matndagi gapning grammatik strukturasi aniqlash;
- 4) semantik tahlil: iboralarning ma'nosini farqlash.

Yuqorida ko'rsatilgan tahlil turlaridan biri grafematik tahlil tokenizatsiya (ing. token. – matndagi so'z, ibora yoki biror ahamiyatli element)ga teng bo'lishi mumkin. Matniy elementlar chegarasi aniqlovchisi sifatida shakliy-signal so'zlar orasida probel (ajratma) bo'lsa, gap va uning qismlari chegarasi bosh harf va tinish belgilar, matnning mazmuniy qismlari abzats bilan farqlanadi.¹²⁴ Ammo so'z chegarasini aniqlashda doim ham formal metod qo'l kelmaydi. Masalan, xitoy tilida so'zning shakliy chegarasi mavjud emas. Hatto Yevropa tillarining aksariyatida probel (ajratma) bilan ajratilgan bir necha so'zlarning bitta leksemaga teng kelish holati

¹²² Щипицина Л.Ю. Информационные технологии в лингвистике: учеб. пособие. –Москва: Наука, 2013. – С. 43.

¹²³ Автоматическая обработка текстов на естественном языке и компьютерная лингвистика: учеб. пособие. – Москва: МИЭМ, 2011. – С. 106–107.

¹²⁴ Щипицина Л.Ю. Информационные технологии в лингвистике: учеб. пособие. –Москва: Наука, 2013. –С.43.

ham bu metod bilan grafematik tahlil natija bermasligini ko'rsatadi.

Ikkinchi tahlilga nazar tashlaydigan bo'lsak, ya'ni matnning morfologik tahlilida unda qo'llangan so'zshaklning bosh shakli – lemma aniqlanadi hamda so'zning shu kontekstdagi grammatik ma'nolari ajratiladi. Masalan, ot uchun turkum, shaxs, son, kelishik, fe'l uchun shaxs, son, zamon va hok... Matnda ishlatilgan har bir so'z, so'zshakl yoki so'z qo'llash holati deyiladi. Flektiv tillarda morfologik tahlildagi o'zak (asos) an'anaviy grammatikadagi asosga to'g'ri kelmasligi mumkin. Morfologik tahlilda asosni aniqlash *stemming* deyiladi. Stem – bu so'zshaklning sintaktik shakl yasovchilarsiz qismi, fleksiya hodisasiga uchragan ayrim turkiy o'zaklarning grammatik asosi bilan morfoanaliz jarayonidagi asosi – stem mos kelmay qolish holatlari uchrab turadi. Masalan, son o'zagidan yasalgan *sana* fe'lining o'zagi son, ammo bu so'zshaklning stemi *san*. Bu erda o'zakdan *-a* so'z yasovchi ajratib olinadi hamda *san* stem bo'lib qoladi. Lekin agglyutinativ tillarda, jumladan, o'zbek tilida odatda, lemma stemga teng keladi hamda fleksiya holati morfoanaliz jarayoniga ko'p xalaqit bermaydi.¹²⁵

Morfoanalizda faqat lemmatizatsiya jarayonining o'zi kamlik qiladi, bunda stemmingning ham o'z o'rne bor. Xususan, internetda qidiruv sifatini yaxshilashda stem asosiy omil bo'ladi, ya'ni qidiruv lemma asosida emas, stem asosida amalga oshiriladi.¹²⁶ Demak, morfologik tahlilda kompyuterning so'zshaklni tushinishi bilan ish bitmaydi, ya'ni belgilar ketma-ketligining kompyuter tomonidan farqlanishi etarli bo'lmaydi. So'zshaklning paradigmadagi barcha a'zolaridan farqini topish jarayoni bilan tahlil tugamaydi. Balki so'zshaklning turkumga xosligi (tagging) hamda morfologik belgilarini topish ham asosiy vazifa, grammatik ma'nosini bildiruvchi qo'shimchalar (kompyuter modellari) muayyan leksemaning shakl yasovchilari hamda uning paradigma a'zosi sifatida shakllantirilsa, maqsadga muvofiq. So'zlardagi leksik-morfologik omonimiya holatini aniqlash uchun so'zshaklga morfologik belgilarni to'g'ri biriktirishi uchun gapning sintaktik hamda semantik xususiyatiga

¹²⁵ Хамроева Ш. Ўзбек тили морфологик анализаторининг лингвистик таъминоти. Тошкент: GlobeEdit, 2020.

¹²⁶ Толдова С.Ю., Бонч-Осмоловская АА. Автоматический морфологический анализ// Фонд знаний «Ломоносов». М., 2011.

tayaniladi. Xullas, avtomatik hamda inson omili bilan amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Bu kabi jarayonlarning avtomatik teglanishida qoidalar modullari ishga tushiriladi.

Ko‘rinib turibdiki, bunday qoidalar majmui, ya’ni gapda so‘z turkumlari va gap bo‘laklarining tartibini aniqlash orqali omonimiyani farqlash imkoniyati paydo bo‘ladi.

Sh.Hamroyevaning monografiyasida morfologik analizator tuzishning uch usuli sanab o‘tiladi:¹²⁷

- 1) lug‘atga asoslangan analizator;
- 2) lug‘atsiz grammatik qonuniyatlar majmuiga asoslangan analizator;
- 3) lug‘at va grammatik qoidalar bazasiga asoslangan analizator.

Bunda Oltoy oilasiga kiruvchi tillar orasida singarmonizm hodisasi nisbatan keng tarqalgan qirg‘iz tili qoidalari hamda dalillariga tayanganligiga va to‘rt bosqichda amalga oshirilishiga guvoh bo‘lamiz:

- 1) kirish matni so‘zlarini grammatik shakllarga ajratish;
- 2) so‘zni lemmatizatsiyalash, ya’ni asoslar lug‘atidan, so‘zning leksema shaklini topish, aniqlash;
- 3) sintaktik shakl yasovchi qo‘shimchalar zanjirini aniq qismlarga ajratish;
- 4) har bir affiksning morfologik belgisini aniqlash.

Tadqiqotchi tomonidan morfologik analizatorning mohiyatini tushuntirish uchun o‘zbek va qirg‘iz tili dalillarini qiyoslanganligini ko‘ramiz. Masalan, baldar (bolalar) so‘zshakli tahlil qilinayotganda, morfologik analizator bu shakl *-lar* ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shilgan bola asosidan hosil bo‘lganligini aniqlashi kerak. Asosga *-lar* qo‘shimchasi qo‘shilishi natijasida qirg‘iz tilidagi singarmonizm hodisasi *bala* asosidagi oxirgi harfning tushib qolishiga olib kelgan. Bunday holatda analizator so‘zni lemmalashi, qo‘shimchadan oldingi asosni avtomatik aniqlashi lozim. Bunda asoslar lug‘ati qidiruvi ishga tushiriladi. *Kitobim* so‘zshaklini tahlil qilishda morfologik analizator uning kitob so‘ziga *-im* egalik shakli qo‘shilganligini aniqlashi lozim: *kitob* asos ekanligi aniqlanadi.

¹²⁷ Хамроева III. Ўзбек тили морфологик анализаторининг лингвистик таъминоти. Тошкент: ClobeEdit, 2020. – Б.60.

Qirg'iz tilida *kitebim* egalik shaklidagi so'z *kitep* o'zagiga egalik qo'shimchasi qo'shilganda *-im* qo'shimchasi ta'sirida jarangsiz *p* jarangli *b* tovushiga aylanadi. Bunday holatda asoslar lug'ati qo'shimcha qoidalar bilan ta'minlanadi. O'zbek tilida fonetik o'zgarishlarning katta miqdorni tashkil etmaganligi morfologik tahlil jarayonida algoritmlar bosqichini qisqartirishi mumkin. Ammo fonetik o'zgarish uchraydigan holatda xuddi qirg'iz tili kabi o'zgarishga uchragan so'zning o'zagini aniqlash jarayoni 2–3-bosqichli algoritmda amalga oshiriladi.¹²⁸

Bundan shunday xulosaga kelinadiki, o'zbek tili morfologik analizatori tuzishning lingvistik ta'minotini ishlab chiqish tamoyillari orasida mana shu qoidalar bloki – lingvistik modulni shakllantirishning asosiy vazifasi sanaladi.

Morfologik analizatorlarda morfologik ma'lumotlar bazasini yaratish ham muhim. Bunda foydalanuvchi ehtiyoji talabiga javob beradigan keng ko'lamli ma'lumotlar majmui nazarda tutiladi. Ushbu ma'lumotlar saralanadi, ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi tomonidan boshqariladigan jadval shaklida saqlanadi. Hozirgi vaqtda ma'lumotlar bazasi bilan ishlashga mo'ljallangan ko'plab tizim mavjud: SQL, MySQL, Oracle, Access. Katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash doim ham qiyin kechadi, vaholanki, har bir tizimning o'ziga xos afzalligi mavjud.

Morfologik tahlilni, amalga oshirish uchun, tabiiy tilni sinab ko'rish va taklif qilingan algoritmni tekshirish maqsadida Embarcadero RAD Studio sinov dasturi yaratildi, ushbu analizatorlarda Access ma'lumotlar bazasi bilan ishlash tizimidan foydalanilgan. Mazkur analizator ma'lumotlar bazasining uch jadvali (asos, qo'shimcha va so'z turkumi) hamda ushbu jadvallar o'rtasidagi munosabatdan iborat.

Tadqiqotchi Sh.Hamroyevaning ta'kidlashicha, mukammal morfologik analizator yaratish qiyin. Shunday bo'lsa-da, morfologik analizator tuzish uchun quyidagi algoritmni amalga oshirish nisbatan aniq tahlilni amalga oshiruvchi analizator yaratishga asos bo'la oladi:¹²⁹

1) so'zning grammatik shakli freym-modelini yaratish. Bunda

¹²⁸ Ўша маҳба. – Б. 60–61.

¹²⁹ Ўша маҳба. – Б. 63.

ko'makchi morfema kategoriyasining to'g'ri aniqlanishi uchun turkumga oid qo'shimchalar jadvali tuzish nazarda tutiladi;

2) analizator tuzishda kompyuter xotirasiga murojaat sonini kamaytirishga mo'ljallangan algoritmlar ishlab chiqish;

3) sinov dasturi ishlab chiqish, natijalarni unda tajribadan o'tkazish.

Yana bir tadqiqotchimiz K.Shadmanovanning ta'kidlashicha, tizimli dasturning nazariy asoslaridan biri – formal til nazariyasi. Bu nazariya o'zining matematik tushunchalari bilan oddiy dasturchiga murakkab tuyuladi, lekin tizimli dastur shunday nazariya asosida yaratiladi. Har qanday dasturiy interfeys biror-bir formalizmga, formalizm esa formal til nazariyasiga tayanadi. Umuman olganda, ixtiyoriy tilda (forma yoki tabiiy) tuzilgan gap mantiqan to'g'ri bo'lishi uchun u quyidagi shartlarni qanoatlantirishi kerak:¹³⁰

1) so'zlar alifbo talabiga mos yozilgan bo'lishi (morfologiya, leksika);

2) gap qurilishida grammatik xatoga yo'l qo'ymaslik (grammatik, sintaktik);

3) gap mazmuniy qurilishi (semantika) ning to'g'riligi.

Turkiy tillarning morfologik analizatorlarini ishlab chiqish o'tgan asrning 60-yillarida boshlangan,¹³¹ dastlabki analizatorlarning asosiy xususiyati shunda ediki, ular aynan bitta tilga mo'ljallanmagan: bir morfoanalizatorni boshqa tilga moslashtirish mumkin. Chunki dasturga morfotaktik qoidalar biriktirilgan, qoidalar tizimi tilning leksikon hamda affiksial morfemalari bilan to'ldirilsa, boshqa tilning analizatori sifatida ishlatish imkoni paydo bo'ladi; boshqa tilning analizatorini yaratish uchun alohida kodlar yozishga zarurat mavjud emas. O'shandan hozirgi davrga qadar texnologiyalar o'zgardi,

¹³⁰Шадманова К. Табиий тиллар учун лексико-семантик луғат маълумотлар базаси яратиш таъминоти <http://buxdu.uz/index.php/uz/>.

¹³¹ Халитова Н.А., Закирова Р.А., Гимадудтинова Р.У. Морфологический анализ при машинном переводе с татарского языка на русский // Вероятностные методы и кибернетика. Сборник работ НИИММим. Н.Т.Чеботарева при Казанском университете, Учен. зап. Казан.ун-та, 122, № 4. – Казань: Изд-во Казанского ун-та, 1962. – С. 98–105; Махмудов Масуд Ахмед оглы. Разработка системы формального морфологического анализа тюркской словоформы: на материале азербайджанского языка: диссертация кандидата филологических наук: – Баку, 1982; Проблемы моделирования тюркской морфологии: Аспект порождения кирг. имен. Словоформы; Т.Садыков; АН КиргССР, Ин-тяз. и лит. – Фрунзе: Илим, 1987. – С. 120.

turkiy tillarning universal morfologik analizatorlari yaratildi, lugʻatlar hajmi, maʼlumotni qayta ishlash tezligi oshdi. Turkiy tillar morfoanalizatorini ishlab chiqish harakati boshlanganiga 50 yildan oshganiga qaramasdan, bu soha oʻsishi haligacha turkiy tillarning barchasida turli darajada. Tatar,¹³² boshqird,¹³³ qozoq,¹³⁴ chuvash,¹³⁵ turk,¹³⁶ xakas¹³⁷ tillari hamda universal¹³⁸ morfologik analizator haqidagi ishlar fikrimizni qoʻllab-quvvatlaydi.

Adabiyotlarda avtomatik tahlilning stemming, soʻzshaklning lugʻat asosidagi tahlili, mantiqiy yondashuv asosidagi tahlil, jadval¹³⁹ asosida, lugʻatsiz tahlil kabi turlari koʻrsatiladi. Mutaxassislar avtomatik morfologik tahlil stemmatizatsiya, lemmatizatsiya, grammemalash kabi asosiy bloklardan tashkil

¹³² Сулейманов Д.Ш., Гильмуллин А.А., Гильмуллин Р.А. Базаморфотактических правил для татарского глагола как основа двухуровневого морфологического анализатора // Сборник трудов Международного семинара «Диалог». - Казань, 1998. - С. 597–609; Сулейманов Д.Ш., Гатиатуллин А.Р. К разработке лемматора татарских словоформ // В сб. Трудов Международного семинара Диалог-99 по компьютерной лингвистике и ее приложениям в двух томах (Таруса, 31 мая - 4 июня 1999г.). Т. 2. - Таруса, 1999. - С. 306–314; Сулейманов Д.Ш. Реализация татарской морфологии (на англ.яз.) // In Iss.: Computational linguistics and lex! ид иетайопна сопёгепсе; просеедтез / СТСИив 2002, Мехсо, Еёггагу17–23, 2002. Alexandr Gelbukh (ed.). - Berlin: Springer, 2002 (Lecture notes in computer science; Vol. 2276). - P. 327–329; Сулейманов Д.Ш., Гатиатуллин А.Р. Структурно-функциональная компьютерная модель татарских морфем. - Казань: Фан, 2003. С. - 220.

¹³³ Сиразитдинов З.А. Алгоритмическая грамматика словоизменения башкирского языка // (Электронный ресурс). URL: <http://mfbl.ru/bashdb/algram/algram.htm>; Орехов Б.В., Слободян Е.А. Проблемы автоматической морфологии агглютинативных языков и парсер башкирского языка // Информационные технологии и письменное наследие: материалы международной научной конференции (Уфа, 28–31 октября 2010г.) /отв. ред. В.А.Баранов. Уфа: Ижевск- Вагант, 2010. - С. 167–171.

¹³⁴ Шарипбаев А.А., Бекманова Г. Ергеш Б.Ж., Бурибаева А.К., Карабалаева М.Х. Интеллектуальный морфологический анализатор, основанный на семантических сетях // Материалы международной научно-технической конференции «Открытые семантические технологии проектирования интеллектуальных систем» (ОЗТIS-2012). -Минск, БГУИР, 16–18 февраля 2012г. - С. 397–400.

¹³⁵ Желтов П.В. Морфологический анализатор чувашского языка. Материалы международной конференции студентов и аспирантов по фундаментальным наукам Ломоносов 2002. - Москва, 2002.

¹³⁶ Kemal Ofl azer. Two-level Description of Turkish Morphology. Literary and Linguistic Computing, - Vol. 9, No 2, - 994.

¹³⁷ Дыбо А.В., Шеймович А.В. Автоматический морфологический анализ для корпусов тюркских языков //Филология и культура. 2014. №2.

¹³⁸ Архангельский Т.А. Принципы построения морфологического парсера для разноструктурных языков: дисс.. канд. Филол. наук: 10.02.21. - Москва, 2012.

¹³⁹ Марчук Ю. Компьютерная лингвистика. - Москва: МГУ, 2006. - С. 65.

topishini uqtirishadi.¹⁴⁰

Stemmatizatsiya (yoki stemming ing. stemming so‘zidan) – qidirilayotgan so‘zning asosini topish jarayoni, bunda har qanday stem (so‘zshakl asosi) qidirilayotgan so‘zshaklning grammatik asosiga teng bo‘lishi shart emas: tahlil jarayonida bir paradigmaga mansub so‘zshakllarning bitta stem sifatida ko‘rsatilishi ma’lum stem(asos)ni aniqlash uchun etarli. M.Abjalova ushbu jarayonni shunday tavsiflaydi: “Stemming, asosan, foydalanuvchining so‘rovi bo‘yicha izlanishni kengaytirish maqsadida qidiruv tizimlari uchun qo‘llanadi, matnni me‘yorlashtirish jarayon qismi. So‘z asosini topishning muayyan usuli stemming algoritmi, uning amalga oshirilishi, ya’ni dasturning o‘zi stemmer deyiladi.”¹⁴¹

Lemmatizatsiya so‘zshaklni lemmaga keltirish jarayoni bo‘lsa, lemma so‘zning asosiy (lug‘atda beriladigan) shakli, leksema. Demak, lemmatizatsiya jarayoni ko‘proq flektiv tillar uchun (masalan, rus tili) ahamiyatli, chunki agglyutinativ tillarda (jumladan, o‘zbek tili), odatda, so‘zning "stem"i leksemaga teng bo‘ladi. Faqat fleksiyaga uchragan so‘zshaklda lemma va stemning mos kelmaslik holatlari kuzatiladi. Masalan, ot, olmosh uchun lemma birlik son, bosh kelishikdagi shakl: bola, men; sifatning oddiy daraja ko‘rinishi - katta, yorug‘; ravish, son hamda yordamchi so‘zlarning lemmasi ularning lug‘atdagi shakliga teng kelishini aytishimiz mumkin.

Grammemalash (teglash ing. gavetg so‘zidan) so‘zshaklga grammatik xarakteristika (grammatik belgi) yozish demak. Grammema (grammatik xarakteristika) – so‘zshaklning ma’lum morfologik sinfga mansubligini ko‘rsatuvchi sodda morfologik ko‘rsatkich.¹⁴²

Grammema atamasiga rus tilining o‘zlashma so‘zlar lug‘atida shunday ta’rif beriladi: “grammema (ing.tagging) - sintaktik shakl yasovchi morfema yoki yordamchi so‘z vositasida (mas.,

¹⁴⁰Гатауллин Р.Р., Гатиатуллин А.Р., Неврозова О.А., Мухамедшин Д.Р., Сулейманов Д.Ш., Хакимов Б.Э, А.Ф.Хусаинов. Формальные модели и программные инструменты компьютерной обработки татарского языка.– Казань: Академии наук, 2019. – С.39–40.

¹⁴¹ Абжалова М.А. Ўзбек тилидаги матнларни тахрир ва тахлил қилувчи дастурнинг лингвистик модуллари (Расмий ва илмий услубдаги матнлар тахрири дастури учун): Фил. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD)... диссер. – Фарғона, 2019. – Б.29.

¹⁴²Гатауллин Р.Р., Гатиатуллин А.Р., Неврозова О.А., Мухамедшин Д.Р., Сулейманов Д.Ш., Хакимов Б.Э, А.Ф.Хусаинов. Формальные модели и программные инструменты компьютерной обработки татарского языка. – Казань: Академии наук, 2019. – С.39–40.

ko‘makchi) ifodalanadigan grammatik ma‘no; ikki (hatto undan ham ortiq) grammema bir morfema orqali ifodalanishi ham mumkin. Masalan, zamon ko‘rsatkichi xabar maylini ham bildiradi: keldi (o‘tgan z., xabar m., aniq n.). Faqat bitta belgisi bilan farq qiluvchi grammema (masalan, birlik va ko‘plik) bitta grammatik kategoriya shakllantiradi”.¹⁴³ V.A.Plungyannin grammemani quyidagicha ta’riflaydi: “Grammema (ing. grammeme) grammatik kategoriya elementlaridan biri bo‘lgan grammatik ma‘no bo‘lib, bir grammatik kategoriyaning turli grammemalari bir-biridan farqlanadi hamda bir paytda ifodalana olmaydi. Rus tilida birlik va ko‘plik son kategoriyasining grammemasi, albatta, so‘zda yoki unisi, yoki bunisi voqelanadi, lekin ikkalasi emas. Shuningdek, grammatik ko‘rsatkich ham grammema deyiladiki, grammema morfologik kategoriya tashkil etuvchi morfologik shakllar bilan ifodalanadi, shuningdek, sintaktik shakl bilan ifodalanuvchi grammema ham uchraydi. K.Payk tomonidan taklif qilingan grammema atamasi, A.A.Zaliznyak tomonidan an’anaviy lingvistik terminga aylantirildi.”¹⁴⁴

Olimlarning fikrlaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, grammema grammatik ma‘no, u grammatik kategoriyaning elementi, grammatik shakl bilan ifodalanadi. Masalan, *stol* lemmasining stol so‘zshakliga quyidagi grammemalar yig‘indisi biriktirilishi mumkin: (mr, ed, im, neod). Biroq turkiy tillarda grammema biriktirishning bu tartibi amal qilmaydi, chunki bitta morfema, ko‘pincha, bir grammemaga to‘g‘ri keladi; aynan bir morfema bir so‘zshaklda qayta-qayta kelishini til materiallari qo‘llab-quvvatlaydi.

Morfoanalizatorida ishlatiladigan asosiy til birliklari sifatida quyidagilar ajratiladi:

1) morf – elementar segment belgi: shaklan tasodifan o‘xshash bo‘lgan aynan bir morfologik xususiyatga ega bo‘lgan minimal

¹⁴³ Словарь иностранных слов русского языка/ dic. Academic/ru>dic>nsf>die_fwds> граммема/

¹⁴⁴ Плунгян В.А. Классификация морфологических значений и общая морфология: Введение в проблематику: Учебное пособие. – Изд. 2-е, исправленное. –Москва: Едиториал УРСС, 2003. – С.107; Бондарко А.В. Граммема//Лингвистический энциклопедический словарь // Главный редактор В.Н.Ярцева. –Москва: Советская энциклопедия, 1990. – 685с.

hodisa;

2) allomorf – bir morfemaning bir xil fonetik tarkibga ega bo‘lgan morflar yig‘indisi. Allomorfning asosiy xususiyatlaridan biri allomorf kontekstini tavsiflovchi xususiyati, u ikkiga: allomorfning so‘zshakl chegarasidagi konteksti hamda allomorfning so‘zshakl chegarasidan tashqaridagi kontekstiga bo‘linadi;

3) so‘zshakl – tarkibiy qismlari orasida morfotaktika orqali aniqlanadigan aloqa mavjud bo‘lgan allomorflar ketma-ketligi;¹⁴⁵

4) morfema – tilning so‘zni tashkil etuvchi eng kichik ma’noli birligi; u bitta vazifani bajaruvchi, turli umumiy, o‘xshash xususiyatlarga ega bo‘lgan morf (allomorf)lar yig‘indisidan iborat bo‘ladi;

5) birikish qoidalari – morfoanalizator ishini tashkil etuvchi asosiy elementlardan biri. Bu qoidalar oddiy elementdan nisbatan murakkab birliklarni keltirib chiqaradi.

Umuman olganda, turkiy tillarning ko‘p tilli polifunksional internet-servis dasturi morfoanalizator birikishlar qoidasining ikki tipi: bir so‘zshakl ichidagi birikish qoidalari; analitik shakllarni keltirib chiqaruvchi birikish qoidalari bilan “ish ko‘radi”,¹⁴⁶ Bunday qoidalarning mavjudligi morfoanalizator ish jarayonida algoritmlar ketma-ketligini kamaytiradi, jarayonni soddalashtiradi. Demak, o‘zbek tili morfoanalizatorini ishga tushirish uchun morf, allomorf, so‘zshakl, morfema va birikish qoidalari kabi muhim birliklar ajratilishi talab etiladi.

Yana bir narsaga alohida e’tibor qaratish lozimki, turkiy tillar morfologik tahlilini amalga oshirishda jahonda mavjud uch asosiy yondashuvning paradigmatic,¹⁴⁷ avtomatik,¹⁴⁸ generativ kabi

¹⁴⁵ Гатауллин Р.Р., Гатиатуллин А.Р., Неврозова О.А., Мухамедшин Д.Р., Сулейманов Д.Ш., Хакимов Б.Э, А.Ф.Хусаинов. Формальные модели и программные инструменты компьютерной обработки татарского языка. – Казань: Академии наук, 2019. – С.39–40.

¹⁴⁶ Ўша манба. – Б. 39–40.

¹⁴⁷ Тузов В.А. Морфологический анализатор русского языка //Вестник СПбГУ, сер. 1. 1996. Вып. 1 (№15).

–С. 41–45; Сегалович И., Маслов М. Русский морфологический анализ и синтез с генерацией моделей словоизменения для не описанных всло варе слов // Компьютерная лингвистика и интеллектуальные технологии: Труды международной конференции «Диалог 99». Т. 2. Казань, 1998. – С. 547–552.

¹⁴⁸ Antworth, E.L. PC-KIMMO: a two-level processor for morphological analysis. Occasional Publications in Academic Computing No. 16. Dallas: Summer Institute of Linguistics, 1990. – 273 p.; Kemal Ofl azer. Two-level Description of Turkish Morphology. Literary and Linguistic

turlaridan foydalanish mumkin¹⁴⁹.

Paradigmatik yondashuvda ikki tipdagi lugʻatdan: asoslar lugʻati hamda paradigmalar lugʻatidan foydalaniladi. Bunday usulda ishlaydigan morfologik analizatorning asosiy xususiyati shundaki, lugʻatdagi har bir lemmaga paradigmaga havola qiluvchi indeks yoziladi. Paradigmatik yondashuvdan, odatda, flektiv tillar (masalan, rus tili) morfologik tahlilida foydalaniladi. Flektiv tillarda paradigmalar hajmi katta emas, ammo paradigmalar soni koʻp. Analizatorning maʼlumotlar omborida har bir tipdagi asos uchun paradigmanning toʻliq shakli saqlanadi. Bunday usul UniParser analizatorida qoʻllangan.¹⁵⁰ UniParserning maʼlumotlar ombori quyidagi fayllarni oʻz ichiga oladi.¹⁵¹

1) asoslar ajratib koʻrsatilgan leksemalar roʻyxati, sintaktik shakl yasovchilar sinfi hamda mazkur leksemaning – soʻzshakllariga biriktirilishi talab qilinadigan mavjud leksik axborotlar;

2) turli sintaktik shakl yasovchi koʻrsatkichlar roʻyxati.

Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, turkiy tillarda hind-yevropa tillaridan farqlanib turadigan bir qator struktur xususiyatlar bor, bu paradigmatic yondashuv asosida ishlash qator noqulayliklar keltirib chiqaradi. Bunday xususiyatlar sifatida avtomat morfologiyani oʻng tomonlama amal qilishi; agglutinatsiya; paradigmatic sinflar orasida qatʼiy chegaraning mavjud emasligi; paradigma hajmining potensial chegaralanmaganligi; leksik qatlamning grammatik sinf va soʻz turkumlari boʻyicha aniq tasniflanmaganligi.

Turkiy tillar uchun morfologik analizator tuzishning avtomatik yondashuvi koʻproq toʻgʻri keladi. Avtomatik yondashuvga asoslangan morfoanalizator FST (finite state transducer) va WFST

Computing, -Vol. 9, No 2, – 1994.

¹⁴⁹ Татиатуллин А.Р., Баширов А.М. Морфологический анализатор тюркских словоформ на базе структурнофункциональной модели тюркской морфемы // Пятая Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «Ти КГапе 2017». – Труды конференции. В 2-х томах. Т 2. – Казань: Издательство Академии наук Республики Татарстан, 2017. – С. 50-71.

¹⁵⁰ Архангельский Т.А. Принципы построения морфологического парсера для разноструктурных языков: дисс... канд. филол. наук : 10.02.21. – Москва, 2012.

¹⁵¹ Гатауллин Р.Р., Гатиатуллин А.Р., Неврозова О.А., Мухамедшин Д.Р., Сулейманов Д.Ш., Хакимов Б.Э., А.Ф.Хусаинов. Формальные модели и программные инструменты компьютерной обработки татарского языка. – Казань: Академии наук, 2019. – С.39–40.

(angl. weighted finite state transducer) qayta ishlash tizimiga ega, kirish va chiqish (analiz-sintez) tahlilni amalga oshira oladi. Bunday analizatorlarning mohiyati shundaki, ular «grammatik ketma-ketlik» qoidasiga amal qiladi: jarayonda morfologik birlikning soʻzshakldagi ketma-ketligi qoidasi asos qilinadi. Ular qanday birliklar ishlatilishi bilan farq qiladi:

1) morfemalar ketma-ketligi hamda zaruriy allomorf izchilligini koʻrsatish;

2) allamorflar izchilligi qoidalari.

Oʻzbek tilining morfologik analizatorini yaratishda ham paradigmatic hamda avtomatik usullardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Demak, morfoanalizatorni ishga tushirish uchun, odatda, tarkibiy qismi affiksalar morfemalar bazasi; asos morfemalar bazasi; tasniflash qoidalari; allamorflar mosligi qoidalaridan iborat boʻladi¹⁵², N.A.Israilova, P.S.Bakasovalar morfologik maʼlumotlar ombori tuzilishini quyidagicha tasniflashadi:¹⁵³

1) morfologik maʼlumotlar bazasi morfologik analiz va sintez jarayoni uchun talab qilinadigan barcha axborotlarni qamrab olishi zarur;

2) tilda mavjud fleksiya holatlari, shundan kelib chiqadigan oʻzak va qoʻshimcha chegarasidagi fonetik oʻzgarishlar ham maʼlumotlar omborida aks etishi kerak;

3) morfologik maʼlumotlar ombori odatiy sintaktik shakl yasovchilar bilan birga suppletiv, oʻzgarmas leksemalar haqidagi maʼlumotlarni ham qamrab olishi lozim;

4) maʼlumotlar ombori omonim leksemalar, shuningdek, toʻliq va grammatik shakl taʼsirida hosil boʻluvchi omonimlar bazasiga ham ega boʻlishi lozim.

Barcha hodisalar oʻziga xos xususiyatga ega boʻlgani kabi, leksema ham nutqda soʻz shaklida yuzaga chiqadi, bunda u grammatik jihatdan tugal shakllangan, yaʼni grammatik morfema bilan birikkan holda namoyon boʻladi.

¹⁵² Ўша манба. – Б.68–69.

¹⁵³Исраилова Н.А., Бакасова П.С. Морфологический анализатор кыргызского языка // Пятая Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «ТигКГап 2017». – Труды конференции. В2-х томах. Т2. – Казань: Издательство Академии наук Республики Татарстан, 2017. – С.100–117.

Albatta, leksema har qanday grammatik morfema bilan birika olmaydi. Shuning uchun grammatik kategoriya hamda shakl (forma)ga xilma-xil munosabatiga ko'ra, leksemaning yana bir qirrasini aniqlanadi. Leksema nutqda so'z shaklida gap tarkibida ma'lum bir sintaktik bog'lanish, qurshov va gap bo'lagi vazifasida keladi. Leksemaga "yaxlitlik" (butunlik, substantziallik) nazariyasi asosida yondashsak, leksemaning gap qurilishida tuta oladigan o'rni ham uning qirrasidan biri sanaladi. Leksema serqirraligini izchil va qarama-qarshilikdan xoli tasnifning nazariy asosi yuzasidan bildirilgan fikr bilan birlashtirsak, biz uning har bir qirrasini bo'yicha alohida-alohida tasnifni berishimiz hamda leksema guruhini aniqlashimiz lozim bo'ladi. Shu yo'l bilan leksemaning har bir tasnifda tutgan o'rni asosida kashf etgan belgining yig'indisi, uning (leksemaning) nisbiy mohiyatini tashkil etishini tasavvur qilsak bo'ladi.

Kompyuter lingvistikasi so'zlarni turkumlarga ajratishda boshqacha tarzda yondashadi. Asos morfemalar ma'lumotlar omboridagi "asoslar lug'ati"da turkumga ajratilgan holatda beriladi, shu sababli kompyuter lingvistikasida axborot-so'rov tizimi nuqtai nazaridan so'zlarni turkumlarga ajratishda olimlarimiz quyidagi mezonlarga asoslangan:¹⁵⁴

- semantik (so'zning kategorial grammatik ma'nosi);
- sintaktik (so'zning ma'lum gap bo'lagi bo'lish, ma'lum guruhdagi so'zlar bilan bog'lanish imkoniyati);
- morfologik (shakl yasash xususiyati hamda grammatik kategoriya tarkibi);
- derivatsion (so'z yasash xususiyati);
- fonologik (turli guruh so'zlarining fonema va prosodik (urg'uga tegishli strukturasi).

Omonim so'zlarning bir nechta alohida ma'noli birliklar bo'lganligi sababli birdan ortiq turkumga mansub bo'lishi kuzatiladi. Morfoanalizator tuzish nazariyasi va amaliyotida asos morfemani farqlashning turli formatlari ishlab chiqilgan:

- 1) asos tipini farqlashda klassik so'z turkumiga ajratishga amal

¹⁵⁴ Гатауллин Р.Р., Гатиатуллин А.Р., Неврозова О.А., Мухамедшин Д.Р., Сулейманов Д.Ш., Хакимов Б.Э, А.Ф.Хусаинов. Формальные модели и программные инструменты компьютерной обработки татарского языка.– Казань: Академии наук, 2019. – С.75.

qilish;

2) asos tipini struktur-model morfologik tip asosida farqlash.

Birinchi usuldagi tasnif filologning ish jarayoniga tegishli bo'lsa, ikkinchi usul dasturlash jarayonida amal qiladi.¹⁵⁵

Barcha asos morfemalar "affiksial morfemalarning struktur-model morfologik tasnifi asosida N, A, V, D, S kabi 5 morfologik guruhga ajratiladi:

N – o'ng tomonidan ismlarga birika oladigan barcha affiksial morfemalarni biriktiradigan asos morfemalar guruhi. Masalan, *Nq(-ning, -ni, -ga, -da, -dan; -(i)m, -(i)miz, -(i)ng, -(i)ngiz, -(s)i, -(lar)i, -lar, -man, -miz, -san, -siz).*

A – o'ng tomonidan sifatga tegishli qo'shimchalarni biriktira oladigan morfemalar guruhi. Bu qo'shimchalar guruhiga M qo'shimchalar hamda sifatning qiyosiy darajasi tegishli. Masalan, *Aq M4 (-roq).*

V – o'ng tomonidan fe'l o'zaklarga birika oladigan qo'shimchalarni qabul qiluvchi asos morfemalar guruhi. Masalan, *Vq(-ma, -di, -gan, -ajak...).*

D – o'ng tomonidan N qo'shimchalar guruhi va son shaklini hosil qiluvchi qo'shimchalar birikadigan asos morfemalar guruhi. *Dq(-inchi, -lab, -ovlon, -ning, -ni, -ga, -da, -dan, -(i)m, -(i)miz, -(i)ng...).*

S – o'ng tomonidan faqat modal affikslarni biriktira oladigan asos morfemalar sinfi. *Sq(-, -mi...).*

Sanab o'tilgan morfologik guruhlar o'z ichida morfemalarni biriktira olishiga ko'ra yana ichki guruhlariga bo'linadi.¹⁵⁶

Morfemalarni sintaktik-semantik belgilar asosida tasniflash ham juda muhim o'rin egallaydi. Chunki turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida ham so'z kontekstdagi pozitsiyasiga qarab turli mohiyatni anglatadi. Masalan: obekt, obekt belgisi yoki faqat obekt belgisi (*oltin, temir, kumush, tosh, asfalt*); harakat belgisi (*tez, chiroyli, yaxshi*). Kontekstda bildirgan ma'nosiga ko'ra ular turli so'z turkumiga kirishi mumkin. Bu esa morfoanaliz jarayonida ko'p ma'nolilik vazifasini bajaradi. Demak, bunday tipdagi morfemalar bilan ishlash uchun so'zlarni turkumga ajratishda sintaktik-semantik

¹⁵⁵ Ўша маҳба. – Б. 76.

¹⁵⁶ Ўша маҳба. – Б.76.

belgi asosida tasniflash prinsipi amal qiladi. Yuqoridagi dalillarga asoslanib, adabiyotlarda turkiy tillarga xos asoslar pozitsion va nopozitsion turlarga ajratiladi.¹⁵⁷

Pozitsion morfemalar – gapdagi o‘rnidan qat’i nazar, bir semantik guruhga mansub bo‘ladigan morfemalar. Asos morfema (so‘z) obekt ma’nosini bildiruvchi so‘zlar guruhiga kirs, qanday so‘zlar qurshovida kelishidan qat’i nazar, shu guruhga mansub bo‘laveradi.

Pozitsion morfemalar – gapdagi o‘rniga qarab turli semantik guruhga mansub bo‘ladigan asos morfemalar guruhi. Bunday morfemalarga barcha modda-ma’dan otlari kirishi mumkin. Masalan, oltin, yog‘och, temir. Solishtiring: *Usta yog‘ochni arraladi. // Bog‘bon gulni yog‘och tuvakka o‘tqazdi.*¹⁵⁸ Pozitsion asoslarga predmet belgisini bildiradigan so‘z ham, harakat belgisini ham ataydigan so‘zlar ham mansub bo‘ladi.

Morfologik analizni tashkil etish uchun eng muhim va o‘zbek tilida ko‘p uchraydigan hodisalar sirasiga kiruvchi morfologik kategoriyalar. Dastlab, kompyuterda tabiiy tilga ishlov berishning muhim omili morfoanaliz ekanligi tadqiqotchilar tomonidan tan olingan. Chunki tahlilning barcha shakllari: grafematik, orfografik, sintaktik, semantik tahlillarga morfologik tahlil va uning natijasi asos bo‘ladi. Shuningdek, mutaxassislar avtomatik tarjimada so‘zshakllar morfoanalizi grammatik kategoriyalarini modellash tirish mashina tarjimasi sifatini takomillashtiradigan omil ekanligini ta’kidlashadi; dasturning lingvistik bazasi grammatika va lug‘atdan iborat bo‘lishini uqtirishadi.¹⁵⁹

Demak, morfologiyada grammatik ma’noni izohlash, derivatsiya, so‘zshakl o‘zgarishi qoidalari tavsifiga lingvistik amaliyot jarayoni sifatida qaraladi. Tabiiy til (o‘zbek tili ham) kompyuter qayta ishlovini yo‘lga qo‘yish uchun grammatik

¹⁵⁷ Гатауллин Р.Р., Гатиатуллин А.Р., Неврозова О.А., Мухамедшин Д.Р., Сулейманов Д.Ш., Хакимов Б.Э, А.Ф.Хусаинов. Формальные модели и программные инструменты компьютерной обработки татарского языка. – Казань: Академии наук, 2019. – С.79.

¹⁵⁸ Ўша манба. – Б.80.

¹⁵⁹ Абдурахмонова Н. Моделирование грамматических категорий и аналитических глаголов узбекского языка как этап морфологического анализа в машинном переводе // У Международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «ТиЖТапе 2017». Труды конференции. В 2-х томах. Т 2. – Казань: Академии наук Республики Татаристан, 2017. – С. 155–180.

axborotning yetishmasligi lingvistik ma'lumotlar ombori yaratish ehtiyojini keltirib chiqarishi haqidagi fikrlar ham asosli ekanligiga guvoh bo'lamiz. Xullas, grammatik kategoriya va grammatik shakl masalasi har doim grammatikaning dolzarb va muammoli masalasi, bunga olimlarimiz turlicha munosabatda bo'lganlar. Jumladan, o'zbek tili akadem grammatikasida¹⁶⁰ grammatik kategoriya quyidagicha ta'riflanadi: "grammatik ma'no bilan uning formal ifodasi birgalikda bir butunlik hosil qiluvchi, biri boshqasiz mavjud bo'lmaydigan, ajralmaydigan, ajralmas hodisalar, ularning birligi grammatik kategoriyani tashkil qiladi. Grammatik kategoriya termini grammatik ma'noga nisbatan keng deb bergan bo'lsa, U.Tursunov va boshqalar hammuallifligidagi darslikda¹⁶¹ esa «o'zaro bir-biriga zid qo'yilgan va qiyosan olingan grammatik ma'nolar sistemasi va ularga xos ifoda vositalari - grammatik shakllar sistemasi grammatik kategoriya deyiladi. Grammatik kategoriyalarda tilning o'ziga xos xususiyati ochiq namoyon bo'ladi», deb aytilgan.

Grammatik ma'no muammosiga jahon tilshunosligida 30-yillarda, turkiyshunoslikda 40-yillardan boshlab A.G'ulomov, S.Usmonov, F.Kamolov, F.Abdullayev, T.Ibragimov, S.N.Ivanov, V.G.Guzev, H.Ne'matov, A.Nurmonov, Yo.Tojiyev, N.Mahmudov kabilar tadqiqotlarida alohida e'tibor qaratildi.¹⁶² Zamonaviy o'zbek tilshunosligida esa F.Ubayeva, H.Nazarova, S.Nizomitdinova, M.Jo'raboyeva, Sh.Iskandarova, M.Asqarova, R.Sayfullayeva, M.Narimonova, B.Mengliyev, B.Bahriddinova, O.Shukurov kabi

¹⁶⁰ Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент: Фан, 1975. № 1. – Б.61–62.

¹⁶¹ Турсунов У. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – Б.245.

¹⁶² Гузев В.Г., Насилов Д.М. Слово-изменятельные категории в тюркских языках и понятие «Грамматическая категория» // Советская тюркология. 1981. -№3. – С.23–35., Зикиллаев Р.Н. Феълнинг шахс, сон, ҳурмат категорияси системаси. –Тошкент: Фан, 1990; Иванов С.Н. Категория залога в причастиях узбекского языка. «Исследования по истории культуры народов Востока», Сб. в честь академика И.А.Орбели. Серия востоковедческих наук, вып. –Москва-Ленинград, Востоковедение в Ленинградском университете. № 296. – С.123–134; Ғуломов А. Морфологияга кириш. – Тошкент: Фан, 1951; Тожиев Ё. Ўзбек тилида ўтимли-ўтимсизлик категорияси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1999. № 6; Неъматов Ҳ.Ғ. Тажалли тасаввуф билиш назарияси ва тилшуносликда синтаксисни ўрганиш масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1993. №2. – Б. 27–30; Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2001.

olimlar tadqiqotlarida bu masala atroflicha tekshirildi va o'zbek tili barcha morfologik kategoriyasi lison-nutq bo'linishida tadqiq etildi.¹⁶³ Sh.Shahobiddinova grammatik kategoriya shaklining ma'noviy tarkibiga ko'ra tasnifini berar ekan, uni sodda va murakkab tipga ajratadi. Tadqiqotchi sodda kategoriya deganda "shakli o'zi mansub bo'lgan ma'lum bir kategoriya ma'nosini va unga hamroh bo'lgan yondosh ma'noni ifodalashga xizmat qilib, butun mohiyati bilan bitta kategoriyaga mansub bo'lgan" kategoriyani tan oladi va bu qatorga son, qiyoslash, kelishik, nisbat, subektiv munosabat kategoriyasini kiritadi.¹⁶⁴

Xulosa qilib aytganda, grammatik kategoriyaga olimlarimiz turli davrlarda turlicha yondashganligiga guvoh bo'lamiz. Lekin bugungi kun talaba asosida, ilmiy tadqiqotchi va o'quvchilarimizga mos va vaqtni besamar o'tkazmasligini hisobga olib, avtomatlashtirilgan tizimga solingan kategoriyalarning umri boqiy bo'ladi, deb o'ylaymiz.

O'zbek tili morfoanalizatorida grammatik ma'no va grammatik shakl: grammema, kvazigrammema va derivatemalar ham morfologik analizatorning yaratilishi va unga asos bo'luvchi holatlarga olimlarimiz turlicha izoh berib o'tganlar.¹⁶⁵

Mavzuga oid nazorat savollari

1. Morfologik analizator haqida ma'lumot bering.
2. Sintaktik parser tushuntirib bering

¹⁶³ Баҳриддинова Б.М. Феъл луғавий шакли тизими. Тур категорияси: Филол. фан. номзоди... дис. –Самарқанд, 2002; Менглиев Б. Р. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабатлар: филол. фан. док.... дис. Тошкент, 2002; Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2001; Шаҳобиддинова Ш. Умумийлик ва хусусийлик диалектикаси ҳамда унинг ўзбек тили морфологиясида акс этиши: Филол. фан. док... дис. автореф. –Тошкент, 2001; Шукуров О. Ҳаракат тарзи шакли парадигмаси: филол. фан. номз... дис. –Самарқанд, 2005. – 126 б.

¹⁶⁴ Шаҳобиддинова Ш. Ўзбек тили морфологияси умумийлик-хусусийлик диалектикаси талкинида. 1-қисм. –Андижон, 1994. – Б. 23.

¹⁶⁵ Замонавий ўзбек тили. Морфология. (Масъул муҳаррир: Р.Р.Сайфуллаева). – Тошкент: Мумтоз сўз, 2008. – Б.196; Мельчук И.А. Курс общей морфологии. Т.1, Москва – Вена: «Языки русской культуры», Венский славистический альманах, Издательская группа «Прогресс», 1997. – С.240–287; Mengliyev B., Xoliyrov O., Abdurahmonova N. O'zbek tilidan universal qo'llanma. (Qayta ishlangan 3-nashri). -Toshkent: Akademnashr, 2014. – B. 117–119; Маҳмудов Н., Нурмонов А., Собиров А. ва б. Она тили. 6-синф учун дарслик. – Тошкент: 2005. -73–90-б.; Маҳмудов Н., Нурмонов А., Собиров А. ва б. Она тили. 7-синф учун дарслик. – Тошкент: 2005. – 36–54-б.

3. Matnning avtomatik tahlilni izohlang
4. Stem tushunchasi nimani anglatadi?
5. Lemmatizatsiya jarayonini tushuntirib bering.
6. Grammema tushunchasi nimani anglatadi?
7. Pozitsion morfemalar tushunchasi nimani anglatadi?

Адабиётлар рўйхати

1. Хамроева Ш. Ўзбек тили морфологик анализаторининг лингвистик таъминоти. Тошкент: GlobeEdit, 2020. – Б.50.
2. Щипицина Л.Ю. Информационные технологии в лингвистике : учеб. пособие. –Москва: Наука, 2013. – С. 43.
3. Автоматическая обработка текстов на естественном языке и компьютерная лингвистика: учеб. пособие. – Москва: МИЭМ, 2011. – С. 106–107.
4. Сулейманов Д.Ш., Гильмуллин А.А., Гильмуллин Р.А. Базаморфотактических правил для татарского глагола как основа двухуровневого морфологического анализатора // Сборник трудов Международного семинара «Диалог». - Казань, 1998. – С. 597–609;
5. Мельчук И.А. Курс общей морфологии. Т.1, Москва – Вена: «Языки русской культуры», Венский славистический альманах, Издательская группа «Прогресс», 1997. – С.240–287
6. Mengliyev B., Xoliyrov O., Abdurahmonova N. O`zbek tilidan universal qo`llanma. (Qayta ishlangan 3-nashri). – Toshkent: Akademnashr, 2014. – B. 117–119

4-mavzu: Morfologik teglash vazifalari

REJA:

1. Teg va uning turlari haqida.
2. Lingvistik razmetka haqida.
3. Ekstralingvistik razmetka haqida.

Tayanch soʻz va iboralar: *teg, korpus lingvistikasi, lingvistik teglash, sintaktik teg, semantik teg, morfologik teg, anaforik teg, prosodik teg.*

Teg, uning tur, xususiyati korpus lingvistikasi mutaxassislari tomonidan keng tavsiflangan. Korpusni oddiy elektron toʻplam yoki virtual kutubxonadan farqlovchi, matn ustida turli lingvistik amallarni bajarishga imkon beruvchi eng asosiy omil - uning razmetkasi. Teg va uning korpusdagi ahamiyatini batafsil yoritib berish uchun V.P.Zaxarov, B.Kutuzovlarning xizmatlari beqiyos.¹⁶⁶ Bundan tashqari, Z.P.Zaxarov rahbarligi ostida L.V.Severyuxina ishlarida¹⁶⁷ ham teglash masalasiga toʻxtalib oʻtilgan. Bu tadqiqotlarning har birida razmetkaning alohida jihatlari yoritilgan, bu maʼlumotlar asosida lingvistik annotatsiya yoki korpus razmetkasi (ing.linguistic markur) atamasi korpusga matnning qismi boʻlmagan, lekin shu matnga birlashtirilgan qoʻshimcha maʼlumot (metaaxborot) deb xulosa qilish oʻrinli boʻladi. Masalan, somon (ot) ostidagi (ot) hamma (olmosh) narsa (ot) omonatdir (sifat). Bu gapdagi qoʻshimcha maʼlumot soʻz turkumlari haqidagi maʼlumot.

Teglash masalasi bugungi kunda eʼtibor qaratiladigan hodisa emas. Oʻtgan asrning 80-yillarida SGML (Standard Generalized Markup Language) nomi ostidagi elektron matnlar razmetkasi standarti qabul qilingan edi. Bu standart dastlab tipografiya sanoatida, tez orada boshqa sohalarida qoʻllana boshladi. SGML ning mohiyati turli matn muharrirlarida terilgan hujjatni tahrirlash, tahlil qilish, oʻzgartirishdan iborat. Demak, korpus yordamida statistik hisob jarayonida tilimizda mavjud soʻzlarning faqat

¹⁶⁶ Курс “Корпусная лингвистика” (А.Б.Кутузов). Лицензия Creative Commons Attribution Share-Alike 3.0 Unported (Электрон ресурс)-//lab314.brsu.bu/kmp-lite/kmp-video/CL/CorpoereLingva.pdf.

¹⁶⁷ Северюхина Л.В. Моделирование логико-понятийной области корпусной лингвистика. (Дип.раб.рук.доц. В.П.Захаров)

chastotasini aniqlash emas, balki yana bir qancha ma'lumotlarni olishimiz mumkin. Masalan, har bir so'z bilan yonma-yon uning turkumi belgilangan bo'lsa, tilda turli nutqiy vaziyatda so'z turkumlarining qo'llanish darajasini aniqlash ham mumkin. Lingvistik teglash har bir so'zning ma'lum kodga ega bo'lishi bilan xarakterlanadi. Ushbu kod *teg*, so'zni kodlash esa *tegging* (ingl. tagging) deyiladi.¹⁶⁸ Bugungi kunda matnga lingvistik, boshqa ma'lumotlarni qo'shishning umume'tirof qilingan standarti mavjud emas. Lekin Text Encoding Initiative (TEI) maxsus xalqaro loyihasi razmetkaning standart vositasini ishlab chiqishga mo'ljallangan. Buning uchun hujjat razmetkasining butun xalqaro qabul qilingan tili – SGML va XML mavjud. XML kengaytmasi¹⁶⁹ XML (ing.Extensible Markup Language) bazasi asosida qurilgan hamda lug'at teg va atributi, qoidalar bazasini qamrab olgan aniq grammatika tili. SGML¹⁷⁰ esa hujjat uchun teglash tilini aniqlaydigan metatil (метаязык).

An'anaviy teglar juft holda qo'llanuvchi (ochiluvchi, yopiluvchi) uchburchak qavsdan iborat bo'ladi. Masalan, <f> ochiluvchi, </f> yopiluvchi teg, ochiluvchi teg berayotgan ma'lumotning yopilganligini bildiradi. <ds> *Bu*, <et> *birinchi navbatda* *sizga bog'liq* </ds>, dedi u.

Bu, birinchi navbatda sizga bog'liq, -dedi u matni "ko'chirma gap" (ing., direct speech) ma'nosini beruvchi <ds>, uning ichida kelgan *birinchi navbatda* kiritmasi ajratuvchi belgisi (teg) orqali ajratilgan. Teglar yakka holda (juftlashmay) ishlatilishi ham mumkin. Masalan, og'zaki korpusda ma'lum o'rinda to'xtamni bildirish uchun <pause> tegi ishlatiladi. Bu yakka teg. Odatda, tegning o'zi foydalanuvchiga ko'rinmaydi, razmetkalangan matnni ko'rsatayotgan dastur tegni qabul qilingan, ayni shu matn uchun qo'llashga kelishilgan shaklda ko'rsatishi mumkin.¹⁷¹

Yana shuni alohida ta'kidlash mumkinki, katta hajmli korpusni qo'lda razmetkalash uzoq muddatli, qimmatli mehnatni talab etadi. Shuning uchun o'tgan asrning 70-yillaridayoq bu vazifani sun'iy

¹⁶⁸ <http://rykov-cl.narod.ru/c.html>.

¹⁶⁹ <https://ru.ru.wikipedia.org/wiki/XML>.

¹⁷⁰ <https://ru.ru.wikipedia.org/wiki/SGML>.

¹⁷¹ Хамроева III. Ўзбек тилида муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари. Филол. фан. док... дис. – Бухоро, 2018. – Б.70.

intellektga yuklatish bo'yicha bir necha loyihalar ishlab chiqildi.¹⁷² Bu sun'iy itelektlardan TAGGIT dasturi – 77 foiz so'z turkumini, CLAWS (Constituent Likelihood Automatic Word-tagging System) dasturi Braun korpusi so'zlarini 95 foiz Yevropa tillarini to'g'ri tahlil qildi. Bugungi kunda, asosan, nazariy lingvistikani zamonaviy axborot texnologiyalarida qo'llash ustida ish olib borishmoqda. Bu borada rus, ingliz va nemis tillaridagi matnni tahlil qilishning grafem (so'z chegarasini aniqlash), morfologik (so'z turkumini aniqlash), sintaktik (gap bo'laklarini aniqlash) hamda semantik (so'zlararo semantik munosabat) modullarini yaratishdi. O'zbek tili so'z turkumlarini o'qiy oladigan dastur - tagging ishlab chiqish kompyuter lingvistikasining oldida turgan dolzarb vazifalardan biri ekanligini alohida ta'kidlash lozim.

Razmetkani lingvistik, ekstralingvistik turlarga ajratish mumkin.¹⁷³ Ekstralingvistik razmetkaning quyidagi turlari farqlanadi:

1. Matn formatining o'ziga xosligini aks ettiruvchi (bob, xatboshi, qism va h.) teg.

2. Matn, uning muallifiga tegishli ma'lumotni ifodalovchi teg.

Bundan shunday xulosa chiqadiki, muallif haqidagi ma'lumot nafaqat nom, balki yosh, jins, u yashagan yil kabi ma'lumotlarni ham bildirishi mumkin. Lekin matn haqidagi ma'lumot esa matn (asar) nomidan tashqari, tili, yozilgan hamda nashr etilgan yilini qamrab oladi. Bunday ma'lumotlarning mavjudligi bazada detallashtirilgan qidiruvni amalga oshirish imkonini beradi. Ekstralingvistik teg yoki metaaxborot (ruscha: метаданные) – tashqi-intellektual ma'lumotlarni qamrab oluvchi, bibliografik, tipologik, tematik, sotsiologik tavsifni; formal-struktur teg (matn, bo'lim, bob, qism, abzats, gap)ni, shuningdek, texnik-texnologik teg (kodirovka, manbaning elektron versiyasini qayta ishlash sanasi) ni birlashtiruvchi teg turi. Metaaxborot majmui foydalanuvchiga uning imkoniyatlarini aniqlab beradi. Bu ma'lumotlarni tanlashda korpus tuzuvchisi tadqiqot maqsadi, tilshunoslar talabi hamda matnga u

¹⁷² Курс “Корпусная лингвистика” (А.Б.Кутузов) Лицензия Creative commons Attribution Share-Alike 3.0 Unported (Электрон ресурс) – <http://lab314.brsu.by/kmp-lite/kmp-video/CL/CorporeLingva.pdf>.

¹⁷³ <http://rykov-cl.narod.ru/c.html>.

yoki bu qo'shimcha belgini qo'shish imkoniyati bilan tanish bo'lmog'i lozim. Tashqi intellektual teg, birinchidan, tilning o'zaro aloqasi, mavjudligini aniqlash; ikkinchidan, tilning o'ziga xos xususiyatini o'rganish uchun kerak. Tilga ta'sir qiladigan ikkita: tashqi, ya'ni nolisoniy hamda ichki omil mavjud. Dj.Sinkler tashqi omilning uch guruhini ajratadi.¹⁷⁴

1. Muallif tomonidan matn yaratishga aloqadorlik omili.
2. Matnning tashqi belgilariga tegishli omil.
3. Matnning yaratilishiga sabab bo'luvchi, auditoriyaga ta'sir qiluvchi omil. Ichki omilning ikki guruhi – matnning mavzu doirasi, uslubiy xususiyati (uslub, janr) ajratiladi.

Buni rus tilining milliy korpusi misolida ko'rishimiz mumkin.¹⁷⁵

Birinchi blok:

1. Matn muallifi: ismi, jinsi, tug'ilgan vaqti (taxminiy yoshi).
2. Nomi.
3. Yozilish vaqti, joyi (aniq shahar yoki davlat bo'lishi mumkin).
4. Matn hajmi: badiiy asarlar uchun me'yor sifatida hikoya hajmi kamida 5000 so'z; qissa hajmi 5000 dan 15 000 so'zgacha; roman 15 000 so'zdan ortiq bo'lishi odat tusiga kirgan.

Ikkinchi blok: metaizoh korpusdagi matnning uch asosiy ko'rinishi - badiiy matn, nobadiiy matn, drammatik asarlarni farqlashga mo'ljallangan. Chunonchi, rus tili milliy korpusida badiiy asar uchun quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

1. Matn janri: avtobiografik proza, detektiv, bolalar adabiyoti, tarixiy, kriminal adabiyot, sarguzasht, fantastika, yumor, satira.
2. Matn tipi: avtobiografik proza, latifa, detektiv, ocherk, adabiy maktub, qissa, masal, pesa, hikoya, roman, ertak, triller, epopeya, esse va h.k.z.;
3. Matn xronotopi: tasvirlanayotgan voqeaning taxminiy vaqti, joyi.

Lingvistik razmetkaning ham o'z navbatida bir qancha

¹⁷⁴ Захаров В.П., Богданова С.Ю. Корпусная лингвистика. –Иркутск: ИГЛУ, 2011.

¹⁷⁵ Хамроева Ш. Ўзбек тилида муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари. Филол. фан. док... дис.– Бухоро, 2018. – Б.72–73.

ko‘rinishi mavjud:¹⁷⁶

1. Morfologik teglash keyingi - sintaktik va semantik teglashga asos bo‘luvchi ahamiyatli teg, ingliz tilida part-of-speech tagging deb ataluvchi, so‘zlarni turkumga ajratuvchi razmetka. Razmetkaning ushbu turi teglar yordamida amalga oshirilib, tegning matnda mavjudlik darajasi, ko‘lami korpusning xususiyatidan kelib chiqib, har xil bo‘ladi. Teg qancha ko‘p bo‘lsa, korpusning lingvistik amallarni bajarish imkoniyati shuncha keng bo‘ladi. Lekin keyingi avlod korpuslari hajmining kattaligi sababli tegni soddalashtirish yo‘li qulay deb topildi. Kodirovkaning soddalashtirilgan tizimi ortiqcha xatoliklarning oldini oladi, morfologik ko‘p ma’nolilikni keltirib chiqarmaydi, bir necha million so‘zni qamrab oluvchi katta massivli matnlarning razmetkalanishini tezlashtiradi.

2. Sintaktik teg – sintaktik tahlil, parsing (ingl. parsing) natijasi, u komponentlarining grammatik strukturasiga asoslanadi. Gapdagi bo‘laklar orasidagi sintagmalar grafik, shajara tarzida, matnda esa ular otli, fe‘lli hamda murakkab birikmalarni, sodda, qo‘shma gapni ko‘rsatuvchi ochiluvchi, yopiluvchi qavslar yordamida ko‘rsatiladi. Sintaktik razmetkaga ega korpuslar treebanks nomi bilan ommalashgan. Xuddi morfologik razmetkada bo‘lgani kabi keyingi paytda tahlilni tezlashtirish maqsadida sintaktik teglash ham soddalashtirildi, natijada bu usul skeleton parsing nomini oldi.

3. Semantik tegning ham, boshqa razmetkalarda bo‘lganidek, alohida standart shakli bo‘lmasa ham, harf, raqam yoki faqat raqamdan iborat. Birinchi harf yoki raqam umumiy semantik ma’noni ifodalasa, keyingi belgi so‘z ma’nosini yanada maxsuslashtiruvchi kichik semantik guruhni bildiradi. Semantik teg ko‘plab birikmalarni semantik guruhlariga birlashtiradi, bunday paytda turli birikuvdagi bir ma’noni bildiruvchi birikmalar bitta belgi bilan kodlanadi. Idiomatik birlik (ibora) tarkibidagi so‘zlar miqdorini bildiruvchi axborot ham razmetkada joylashadi. Semantik teg korpusdagi so‘z ma’nosining aniqlashtiruvchi, shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra guruhlariga ajratish kabi muammolarni hal

¹⁷⁶ Ўша маҳба. – Б.73–74

qiladi.

4. Anaforik teg. Matnga ishlov berishda katta qiyinchilik tugʻdiradigan turkum bu olmosh, chunki matndagi qaysi soʻzga ishora qilishiga qarab turli maʼnoni bildiradi. Ishora soʻzning matndagi maʼnosini ajratib olish uchun razmetkaning alohida koʻrinishiga ehtiyoj tugʻiladi. Anaforik teg shu xildagi maʼlumotni qoʻshish uchun kerak boʻladi. Maʼnosi olmosh bilan ifodalanayotgan soʻz alohida kodlanib, keyingi oʻrinda shu soʻzga ishora qilayotgan olmosh yoniga shu kod biriktiriladi. Natijada olmoshning matndagi maʼnosi aniqlanadi hamda kerakli tadqiqotlarda korpusga asoslanish imkoniyati paydo boʻladi.

5. Prosodik teg. Ovoz transkripsiya qilingan korpusda urgʻu, ohangni ifodalovchi izoh mavjud boʻladi. Razmetkaning diskurs deb ham ataluvchi ushbu turi sharh, izoh, eslatma, takrorlanadigan toʻxtamlarni bildirish uchun ishlatiladi.

Xulosa qilib aytganda, lingvistik razmetkalash yuqoridagi teglar orqali amalga oshiriladi va bugungi kun tilshunosligining kelajakka qadam qoʻyishini belgilab beradi.

Mavzuga oid nazorat savollari.

1. Morfologik teglash
2. Sintaktik teg tushunchasini izohlang.
3. Semantik tegning qanday vazifa bajara oladi?
4. Anaforik teg tushunchasini izohlang.
5. Prosodik teg deganda nimani tushunasiz?

Adabiyotlar roʻyxati

1. <http://rykov-cl.narod.ru/c.html>.
2. <https://ru.ru.wikipedia.org/wiki/SGML>.
3. <https://ru.ru.wikipedia.org/wiki/XML>.
4. Захаров В.П., Богданова С.Ю. Корпусная лингвистика. — Иркутск: ИГЛУ, 2011.
5. Курс “Корпусная лингвистика” (А.Б.Кутузов). Лицензия Creative Commons Attribution Share-Alike 3.0 Unported (Электрон ресурс)-//lab314.brsu.bu/kmp-lite/kmp-video/CL/CorpoereLingva.pdf.

6. Северюхина Л.В. Моделирование логико-понятийной области корпусной лингвистика. (Дип.раб.рук.доц. В.П.Захаров)
7. Хамроева Ш. Ўзбек тилида муаллифлик корпусини тузишнинг лингвистик асослари. Филол. фан. док... дис. – Бухоро, 2018. – Б.70.

TAYANCH TUSHUNCHALAR

ADABIY TIL (*ing.* literary language, *nem.* Literatursprache, *rus.* литературный язык) Ummumxalq tilining qayta ishlanib normalashtirilgan shakli. U har bir millatning ijtimoiy faoliyatida yozma va og‘zaki tarzda xizmat qiladi.

AHVO Alohidalik, hodisa, vogelik, oqibat

AKKOMODATSIYA (*ing.* accommodation, *nem.* Anpassung, Anahnlichung, *rus.* Адаптация фонетическая) Ikki tur tovushlar - unli va undoshlarning artikulyatsion jihatdan bir-biriga qisman o‘xshab ketishi.

AKKUMULYATIV FUNKSIYA (*ing.* accumulative function, *nem.* accumulative Funktion, *rus.* Аккумулятивная функция) Tilda to‘plangan tajriba va bilimlarni kelajak avlodga etkazish vazifasi.

AMALIY TILSHUNOSLIK 1. Mashina yordamida tarjima va yozuvi bo‘lmagan tillarni yaratishni tadqiq etuvchi sohasi; 2. Kishilarga xat-savod o‘rgatish sohasi.

ANALOGIYA (*ing.* analogy, *nem.* Analogie, Angleichung) O‘xshatish, o‘xshatma: tildagi bir-biridan uzoq hodisalarning o‘xshashligi asosida o‘zaro yaqinlashuvi.

ANTONIM (*ing.* antonyms, *nem.* Antonyme, gegensatzliche Worter) Qarama-qarshi ma’noli so‘zlar.

ARTIKULYATSIYA (*ing.* articulation, *nem.* Artikulation, *rus.* Артикуляция). Nutq organlarining biror tovushni talaffuz qilishdagi harakati va holati.

BELGI (*sin.* ishora, *ing.* mark, marker, *nem.* Merkmal, *rus.* Знак) Bilish va muomala jarayonida predmet yoki hodisalar o‘rnida ishlatiladigan, fikrni, axborotni qabul qilish, saqlash, o‘zgartirish va berish uchun foydalanadigan moddiy, hissiy jihatdan idrok qilinadigan predmet, hodisa, harakat.

BINAR ZIDDIYAT Ikki a’zoli ziddiyat

BIR O‘LCHAMLI ZIDDIYAT Faqat bir belgiga asoslangan ziddiyat

BIRLASHTIRUVCHI SEMA Bir uya yoki paradigmaga kiruvchi leksemalarning umumiy semasi, arxisema

DARAJALI (GRADUAL) ZIDDIYAT Biror belgining o'sib yoki kamayib borishiga asoslangan ziddiyat

DAVLAT TILI (*ing.* state language, *nem.* Staatssprache, *rus.* государственный язык) Qonun yo'li bilan tasdiqlangan, mamlakatning ichki va tashqi ishlari yuritiladigan til.

DENOTAT (*lot.* Denotare – belgilamoq) Til birligi (mas, so'z) yordamida nomlanuvchi (ataluvchi) voqelik, narsa–buyum. Mac, yuz, aft, bashara, chehra, turq so'zlari bir predmet (denotat)ning turli nomlaridir.

DOIMIY ZIDDIYAT O'zgarmaydigan, lisoniy sathga xos bo'lgan barqaror ziddiyat

EKSPRESSIV FUNKSIYA (*ing.* emotive function, *nem.* emotive Funktion, *rus.* эмоциональная функция) His-hayajon, istak, ruhiy kechinmalarni ishor etish vazifasi.

EMPIRIK YONDASHUV Narsa va hodisalarning zohiriy alomatlariga asoslanuvchi ilmiy bilish bosqichi

EMOTIONAL MA'NO His-hayajon tuyg'usini ifodalovchi ma'no. Masalan: do'ndiq, mitti (juda kichik ma'nosida).

EPIFORA (*yun.* Epiphora < epi – keyin+phoros – keluvchi) Parallel tuzilgan – nutq parchalari (mas, misralar) oxirida ayni > bir elementning takrorlanishidan iborat nutq figurasi.

ETIMOLOGIYA (*ing.* etymology, *nem.* Etymologie) Tilshunoslikning so'zlarni kelib chiqishini o'rganadigan sohasi.

FALSAFA (*ing.* Phylosophy. *nem.* Philosophie, *rus.* Философия) Tabiat, jamiyat va taffakur taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari haqidagi fan.

FARQLOVCHI SEMA Leksemalarning o'zaro farqli semalari

FIKRNI BAYON QILISH (*ing.* expression of idea, presentation of idea, *nem.* Äusserung des Gedankens, *rus.* формулирование мысли) Fikrni o'zgalarga og'zaki yoki yozma ravishda izhor qilish: gapirish (so'zlash) va yozish.

FIKRNI SHAKLLANTIRISH (*ing.* formation of idea, *nem.* Formierung des Gedankens, der Idee, der Absicht; Gestaltung des Vorhabens, der Idee, *rus.* формирование мысли) Biror narsa, kimsa haqida o'y, hayolni, taklif, maslahatni, niyat, maqsadni, tushuncha, dunyoqarashni, maslakni ma'lum shaklga keltirish, hosil qilish, vujudga keltirish.

FILOLOGIYA (*ing* philology, *nem.* Philologie, *rus.* Filologiya – (yun. Phileo – sevaman+ligos – so‘z, bilim) Xalqning til, adabiyot va madaniyatini organadigan fanning umumiy nomi.

FIZIOLOGIK MEXANIZMLAR (*ing.* physiological mechanisms, *nem.* Physiologische Mechanismen, *rus.* физиологические механизмы) Nutqning shakllanishi va sodir bo‘lishida ishtirok etadigan a‘zolar, nutq organlari.

FIZIOLOGIYA (*ing.* fizioology, *nem.* Physiologie) 1. Tirik organizmda yuz berib turadigan jarayonlar hamda uning hayotiy funksiyalari haqidagi fan. 2. Organizmning funksiyalari, xizmati va ularni idora qiluvchi qonuniyatlar.

FLEKTIV TILLAR (*ing.* flexional languages, *nem.* flektierende Sprachen, *rus.* языки флективные, языки, языки органические, языки формальные) So‘z shakllarini fleksiya yo‘li bilan yasaydigan tillar. Fleksiya-so‘z o‘zagidagi tovushlarning o‘zgarishi.

FONEMA Eng kichik, biryozlama lisoniy birlik

FONEMA (*ing.* phoneme, *nem.* Phonem) So‘z va morfemalarni farqlash uchun xizmat qiladigan tovush tipi.

FONEMA VARIANTI (*ing.* phoneme variant, *nem.* Variante eines Phonems. Bir fonemaning boshqa ko‘rinishi) So‘z ma‘nosini o‘zgartirmaydi. Masalan:[R] [r]

FONETIKA (*ing.* phonetics, *nem.* Phonetik, Lautlehre) 1. Tilshunoslikning tilning tovush sostavini o‘rganuvchi bo‘limi. 2. Tilning tovush tarkibi.

FONOLOGIYA Eng kichik, biryozlama lisoniy birlikni o‘rganuvchi bo‘lib va u mavjud sath

FONOLOGIYA (*ing.* phonology, *nem.* Phonologie, *rus.* Фонология, фонематика, фонемика, фонемология) 1. Fonetikaning fonemalar tizimi va ularning o‘zgarishini o‘rganuvchi bo‘limi. 2. Tildagi fonemalar sistemasi.

FORMAL O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI O‘zbek tilshunosligining lison va nutqni farqlamay, tilni ta’limiy maqsadlarda o‘rganuvchi bosqichi

FRAZELOGIYA (*ing.* phraseology, *nem.* Phraseologie) 1. Tilshunoslikning biror tilga xos barqaror so‘z birikmalari va iboralarini o‘rganadigan bo‘limi. 2. Biror tildagi barcha barqaror so‘z birikmalari va iborolari majmui

GIPERONIM Uyadosh birliklarni birlashtiruvchi uya birlik
GIPONIM Boshqa birliklar bilan bir uyaga kiruvchi birlik
GIPONIMIK MUNOSABAT Uya-uyadoshlik munosabati
GIPONIMIYA Uyadoshlik munosabatiga asoslanuvchi lisoniy munosabat

GRADUONIMIYA Darajalanish munosabatiga asoslanuvchi lisoniy munosabat

GRAMMATIK KATEGORIYA (*ing.* grammatical category, *nem.* grammatische Kategorie, *rus.* грамматическая категория)

GRAMMATIK MA'NO (*ing.* grammar meaning (significance), *nem.* grammatische Bedeutung, *rus.* грамматическое значение) Grammatik hodisa anglatgan ma'no. Qiyos: leksik ma'no.

GRAMMATIK SHAKL (forma) (*ing.* Grammar form, *nem.* grammatische Form, *rus.* грамматическая форма) Grammatik hodisaning tashqi ko'rinishi, ifoda vositalari.

GRAMMATIKA (*ing.* grammar, *nem.* Grammatik) 1. Tilshunoslik bo'limlaridan biri, tilning grammatik qurilishi haqidagi fan. 2. Tilning grammatik qurilishi.

GURUH (*ing.* group, *nem.* Gruppe, *rus.* Группа) Muayyan belgiga, masalan: sinfiy mansublikka, birgalikda faoliyat ko'rsatishning mumkinligiga va uning xarakteriga va boshqalar asosida ajralib turadigan insoniy umumiylik.

ICHKI NUTQ (*ing.* inner speech, endophasy, *rus.* внутренняя речь, эндофазия) Nutq faoliyatining ovozsiz turi. Grammatik struktura va mazmun jihatdan kengligi bilan xarakterlanadi. Ichki nutq tafakkurning asosiy quroli bo'lib hisoblanadi.

IDIOMA (*ing.* idiom, idiomatic expression, *nem.* Idiom, Idiotismus, *rus.* идиома, идиоматизм, идиоматическое выражение) Turg'un ibora, birikma. Ma'nosi o'z tarkibidagi so'zlarning ma'nolariga bog'liq bo'lmagan, yaxlit holda bir ma'no beruvchi, ixcham ibora.

IDROK (*ing.* perception, *nem.* Wahrnehmung, *rus.* Восприятие) Narsa, hodisalarning sezgi organlariga bevosita ta'sir qilish jarayonida kishi ongida aks etishi.

JAHON TILI (*ing.* world language, *nem.* Weltsprache, *rus.* мировой язык) Jahon xalqlari uchun aloqa vositasi bo'lib xizmat qiluvchi til.

JARGON (*ing.* jargon, *lingo cont. nem.* Rotwelsch) Faqat ma'lum guruh kishilari tushuna oladigan shartli til, argo.

KLASSIFIKATSIYA (*ing.* classification, *nem.* Klassifikation, *rus.* Классификация) Narsa va hodisalarni ularning o'ziga va xususiyatlariga qarab tur, xil, turkum va shu kabilarga ajratish, tasnif qilish, turkumlash, klassifikatsiya qilish. Dunyo tillarini turlarga, oilalarga, guruhlarga ajratish.

KO'P A'ZOLI ZIDDIYAT A'zolari ikkitadan ortiq bo'lgan ziddiyat

KO'P O'LCHAMLI ZIDDIYAT Birdan ortiq belgiga asoslanuvchi lisoniy ziddiyat

KO'P SOSTAVLI TILLAR (*ing.* polysynthetic languages, *rus.* языки полисинтетические, (языки многосоставные) So'zlar birga qo'shib talaffuz qilinadi. Gapda so'zlarning chegarasi sezilmaydi. Ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi va xolni ifodalab kelgan so'zlar bilan fe'l birlashib bir butun gapni o'z ichiga oluvchi ko'p sostavli so'z yasaladi.

KOMBINATOR O'ZGARISHLAR (*ing.* combinative change, *nem.* kombinatorische Veranderungen) Tovushlarning kombinatsiyasi (qaysi tovush bilan yonma-yon kelishiga) ko'ra o'zgarishi.

LEKSEMA Asosan denotativ, ba'zan faqat grammatik ma'noga ega lisoniy birlik

LEKSIKOGRAFIYA (*ing.* lexicography, *nem.* Lexikographie)
1. Lug'at tuzish haqidagi fan. 2. Tildagi so'zlar lug'atini tuzish. 3. Tildagi yoki ma'lum sohaga oid lug'atlar yig'indisi.

LEKSIKOLOGIYA (*ing.* lexicology, *nem.* Lexikologie) Tilshunoslikning tilning lug'at sostavini o'rganadigan bo'limi.

LILGVISTIK BILIM (*ing.* linguistic science, *nem.* linguistisches Wissen, *rus.* лингвистическое знание) Tillarga va tilshunoslikka oid bo'lgan bilim.

LINGVISTIK ATAMA (termin) (*ing.* linguistic termin. *nem.* linguistisches Fachwort, *rus.* лингвистический термин) Tillarga va tilshunoslikka oid bo'lgan terminlarni ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasi.

LINGVISTIK MEXANIZMLAR (*ing.* linguistic mechanisms, *nem.* Linguistische Mechanismen, *rus.* лингвистические

механизми) Nutqning shakllanishi va sodir bo'lishida ishtirok etadigan lingvistik birliklar: tovush, bo'g'in, so'z, so'z birikmalari va matn.

LISON Bir tilga xos lisoniy birliklar va lislniy munosabatlar majmui

LISONIY BIRLIK Biror lisoniy sathga mansub birlik

LUG'AT (*ing.* vocabulary, *nem.* Wortschatz, *rus.* slovar. 2. in. dictionary, word-book, *nem.* Worterbuch) 1. So'z. Tildagi barcha so'zlar majmu'i. So'z boyligi. 2. Biror tildagi so'zlarni ma'lum tartibda jamlab, izohlab yoki boshqa tilga tarjima qilib berilgan kitob.

ME'YOR Lisoniy birlikning nutqiy birlikka aylanishidagi oraliq filtr chegara bo'lib, unda lisoniy birliklar "tanlov"dan o'tadi

MILLIY TIL (*ing.* national language. *nem.* Nationalsprache. *rus.* национальный язык) Bir millat kishilariga hos bo'lgan aloqa vositasi. Bir millatga hos bo'lgan til.

NAZARIY LEKSIKOLOGIYA Lison va nutqni farqlash asosida leksemalar tadqiqi bilan shug'ullanuvchi tilshunoslik bo'limi

NAZARIY YONDASHUV Narsa va hodisalarni umumlashtirish asosida ular zamiridagi UMISlarni ochuvchi bilish usuli

NOMEMA Leksemaning fonetik strukturasi

NUTQ APPARATI (*nem.* Sprechapparat, *rus.* recheviy apparat) Nutq a'zolari majmui

NUTQ ORGANI (*nem.* Sprechorgane, *rus.* органи речи) Nutq tovushlarini talaffuz qilishda ishtirok etadigan a'zolar.

NUTQ TOVUSHLARI TASNIFI (*ing.* classification, *nem.* Klassifikation der Sprechlaute, *rus.* классификация речевых звуков) Nutq tovushlarini belgi va xususiyatlariga ko'ra turlarga ajratish.

NUTQ MEXANIZMLARI (*ing.* mechanism of speech, *nem.* Mechanismen der Rede, Sprechmechanismen, *rus.* механизмы речи) Nutqning shakllanishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan vositalar, asoslar, qismlar, ichki tuzilish. Nutqning fiziologik, psixologik, lingvistik mexanizmlari mavjud.

NUTQIY BIRLIK lisoniy birliklarning voqelanishi bo'lgan, bevosita kuzatishda berilgan AHVO tabiatli birlik

NUTQNI IDROK QILISH (*ing.* perception of speech, *nem.* Wahrnehmung der Rede, *rus.* восприятие речи) Og'zaki yoki yozma shakldagi nutqni eshitish yoki ko'rish a'zolari yordamida qabul qilish: tinglab tushunish va o'qish.

O'LIK TILLAR (*ing.* dead language, *nem.* tote Sprachen, *rus.* мёртвые языки) Muomala sifatida iste'moldan chiqib ketgan tillar. Masalan: qadimgi grek tili, lotin tili (cherkov va fan tili), klassik arab tili (Qur'on tili).

O'ZAKLI TILLAR (*ing.* amorphous languages, *sin.* qo'shimchasiz tillar. (*rus.* изолирующие, аморфные) Bunday tillarda so'z tartibi qat'iy, yordamchi so'zlar keng ishlatiladi, har bir bo'g'in ma'noga ega, har bir bo'g'in ohang bilan harakterlanadi, affikslar mavjud emas. (Xitoy, vietnam birma tillari).

ONG (*ing.* consciousness, thinking, *nem.* Denken, *rus.* Сознание) Voqelikning kishi miyasida uning butun ruhiy faoliyatini o'z ichiga olgan va ma'lum maqsadga yo'nalgan holda aks etishi.

PARADIGMA "Namuna" ma'nosida bo'lib, nutqiy birliklarning umumlashtirilishi natijasida hosil bo'lgan lisoniy birliklar sistemasi

PARADIGMATIK MUNOSABAT Bir paradigmaga kiruvchi birliklarning o'xshashlik va farqlilik asosidagi munosabatlari

PARTONIMIK MUNOSABAT Lisoniy birliklar orasidagi qism-butun munosabati

POG'ONALI MUNOSABAT Til birliklarning "...ga kiradi", "...dan iborat" tamoyili asosidagi munosabati

POZITSION O'ZGARISHLAR (*ing.* positional change, *nem.* positionelle Veranderungen) Tovushlarning joylashuviga ko'ra o'zgarishi: Anlaut, Inlaut, Auslaut.

PRIVATIV ZIDDIYAT Ziddiyat belgisiga a'zoldan biri aniq, boshqasi noaniq munosabatda bo'ladigan ziddiyat

PROPORTSIONAL ZIDDIYAT A'zolari ziddiyat belgisiga o'ziga xos xususiyati asosida teng munosabatda bo'ladigan ziddiyat

QO'SHIMCHA Morfemaning AHVO tabiatli ko'rinishi

QOLIP Yasama so'z, so'z birikmasi va gaplarni hosil qilishda namoyon bo'ladigan nutqiy malaka asosidagi model

RASMIY TIL (*ing.* official language, *nem.* offizielle Sprache, *rus.* официальный язык) Muomala vositasi sifatida davlat, yoki davlatlar tomonidan qabul qilingan til.

REDUKTSIYA (*ing.* reduction, *nem.* Reduktion, *rus.* Редукция) Tovushning nutq jarayonida miqdor va sifat jihatdan o'zgarishi; tovushning nutqdagi qorishuvi.

SEMA Sememaning tashkil etuvchisi

SEMASIOLOGIYA Ma'nolar haqidagi ta'limot

SEMASIOLOGIYA (*ing.* semasiology, *nem.* Semasiologie, *rus.* семантика, сематология, сигнифика, учение о значении) Tilshunoslikning so'z va iboralar ma'nosini va ular o'zgarishini o'rganadigan sohasi.

SEZGILAR (*ing.* feeling, sensation, *nem.* Gefühl, *rus.* Чувства) Narsa va hodisalarning ayrim xususiyatlari aksi, moddiy qo'zg'atuvchilarning tegishli retseptorlarga bevosita ta'sir etishi bilan organizmda hosil bo'ladigan ichki holat. Sezgining eshitish, ko'rish, motor, hid bilish, tam bilish turlari mavjud.

SINTAGMATIK MUNOSABAT Lisoniy va nutqiy birliklarning gorizantal yo'nalishdagi, birikish munosabati

SNEKDOXA (*ing.* synecdoche, *nem.* Synekdoche) Metonimiyaning tarkibiy qismi, butun orqali qismni yoki qism orqali butunni ifodalash va tushunish.

SO'Z (*ing.* word, *nem.* Wort, *rus.* слово, глосса) Tovush yoki tovushlardan iborat, ma'no anglatuvchi nutq birligi, gap bo'lagi.

SO'Z MA'NOSI (*ing.* word meaning, *nem.* Bedeutung eines Wortes, *rus.* Значение слово) So'z anglatgan tushuncha.

SODDALASHISH Yasama so'zlarning shaklan o'zgarmasdan lisoniy sathga o'tishi

SUBSTANSIAL O'ZBEK TILSHUNOSLIGI O'zbek tilshunosligining nazariy bosqichi bo'lib, lison va nutqni farqlash va lisoniy substansiyalarni ochish va tavsiflash bilan shug'ullanadi

SUBSTRAT (*ing.* Substratum) Turli-tuman hodisalarning umumiy asosi. Hodisalar o'rtasidagi umumiylik yoki o'xshashlikning negizi. Bir tilning ikkinchi tildagi ta'siri, izi. Bir tilni boshqa til ta'sirida o'rganish.

TABU (*ing.* taboo, *nem.* Verbot, Tabu) Turli sabablarga: diniy qarashlarga, afsonalarga, davlat nazoratiga va boshqalarga ko‘ra qo‘llanilishi ta‘qiqlangan yoki chegaralangan so‘z.

TASNIF Borliq hodisalarini barqaror belgilariga ko‘ra ma‘lum tamoyillar asosida guruhlash

TENG QIYMATLI (EKVIPOLENT) ZIDDIYAT Bir ziddiyat belgisi a‘zolar tomonidan teng “bo‘lib” olinadigan ziddiyat

TIL (*ing.* Language, *nem.* Sprache, *rus.* Yazik) Kishilar o‘rtasidagi aloqa vositasi.

TIL Lison, meyor va nutq yaxlitligidan iborat ko‘p sathli mavjudlik

TIL, NUTQ VA NUTQ FAOLIYATI (*ing.* language, speech and speaking activity, *nem.* Sprache, Rede und Sprechtaetigkeit, *rus.* язык, речь и речевая деятельность) Til-fikr ifodalash va o‘zaro aloqa quroli bo‘lib xizmat qiladigan tovushlar, so‘zlar va grammatik vositalar tizimi; Nutq-fikrni so‘z orqali og‘zaki yoki yozma ravishda ifodalash qobiliyati, mahorati; Nutq faoliyati-tildan foydalanish jarayoni.

TILLAR O‘RTASIDAGI ALOQA (*ing.* connection between languages, *nem.* Sprachkontakte, *rus.* языковые связи) Tillarning bir-biriga munosabati, ta‘siri. Bu ta‘sir salbiy yoki ijobiy bo‘lishi mumkin.

TILNI O‘RGANISH (*ing.* learning of language, *nem.* Spracherlernen, *rus.* изучение языка) Muayyan tilga oid bilimlarni o‘zlashtirish va shu tilda o‘zgalar fikrini yozma yoki og‘zaki ravishda tushunish va o‘z fikrini og‘zaki yoki yozma ravishda bayon qilishga oid ko‘nikma va malakalarni mashqlar yordamida egallash.

TILNING IJTIMOIIY FUNKSIYASI (*ing.* social functional of language, *nem.* soziale Funktion der Sprache, *rus.* социальная функция языка) Tilning jamiyatda qo‘llanish darajasi, maydoni. Bu soha keng yoki tor bo‘lishi mumkin, masalan: rus va avar tillarini solishtiring. Ingliz tilining ijtimoiy funksiyasi o‘zbek tilining ijtimoiy funksiyasiga qaraganda juda katta va keng.

TILNING RIVOJLANISHI (*ing.* development of language, *nem.* Sprachentwicklung, *Entwicklung der Sprache*, *rus.* развитие языка) Tilning bir holatdan ikkinchi, yuqori holatga o‘tishi, o‘sishi, yuksalishi, taraqqiyoti, ravnaqi, ravnaq topishi.

TILNING FUNKSIYALARI (VAZIFALARI) (*ing.* functions of language, *nem.* Sprachfunktionen, *rus.* функция языка.) Aloqa, muomala qilish vazifalari.

TILSHUNOS (lingvist) (*ing.* linguist, *nem.* Linguist, *rus.* Языковед) Tillarni umumiy, ilmiy jihatdan o'rganadigan xodim.

TILSHUNOSLIK (lingvistika) (*ing.* linguistics, *nem.* Sprachwissenschaft, Linguistik, Sprachkunde, *rus.* языкознание, языковедение, *turkcha* dil bilimi) Til haqidagi mustaqil va aniq fan bo'lib, tilning kelib chiqishi, tarixiy taraqqiyot jarayonlari va qonuniyatlarini ilmiy asosda o'rganuvchi fan.

TIPOLOGIK KLASSIFIKATSIYA (*sin.* morfologik klassifikatsiya. *ing.* typological classification of languages, *nem.* typologische Klassifikation, *rus.* типологическая классификация) Tillarni turlarga ajratish. Tillarni turlarga ajratish eng avvalo grammatik nuqtai nazardan qiyoslash yo'li bilan amalga oshiriladi. Bu klassifikatsiyada tillarni kelib chiqishi hisobga olinmaydi.

TIPOLOGIYA (*ing.* typology, *nem.* Typologie, *rus.* Типология) 1. Tillarni qarindoshligidan qat'i nazar turlarga, guruhlariga, qatorlarga ajratish. 2. Tilshunoslikning tillarni turlarga, guruhlariga ajratish bilan shug'ullanuvchi bo'limi.

TOTONIM Partominik munosabatda uya mohiyatli birlik

UMIS Umumiylik, mohiyat, imkoniyat, voqelik

UMUMIY TILSHUNOSLIK (*ing.* general linguistics, *nem.* allgemeine Sprachwissenschaft, *rus.* общее языкознание) Barcha tillarga xos bo'lgan qonuniyatlarni o'rganadigan fan.

Wpm Gapning eng kichik qurilish qolipi bo'lib, kesimga teng keladi.

XUSUSIY TILSHUNOSLIK (*rus.* Частное языкознание) Tilshunoslikning alohida tillarni (jumladan, o'zbek, rus, ingliz, fransuz, nemis, ispan va h.), ularning xususiyatlarini o'rganuvchi sohasi. Muayyan tilni o'rganuvchi mutaxassislar ilmiy tadqiq etuvchi tilning nomi bilan rusist, turkolog, germanist, afrikanist va h.k. deb ataladi.

ZIDDIYAT Lisoniy birliklarning o'ziga xos belgilar asosida qarama-qarshi qo'yilishi

ZOHIRIY BELGI Lisoniy birliklarning nutqiy alomatlari

CEMEMA Denotativ mohiyatli, leksemaning alohida sinonimik qaiorga kirishini ta'minlaydigan ma'no turi

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB. O‘ZBEK TILI MORFOLOGIYASINING SISTEM- STRUKTUR BOSQICHI.....	5
1-mavzu: Lison va nutqning farqlanishi	5
2-mavzu: Grammatik ma’no va grammatik kategoriya	14
3-mavzu: So‘zlarning morfologik guruhlari va kategoriyalari	23
4-mavzu: So‘z yasalishi.....	36
II BOB. O‘ZBEK ZAMONAVIY MORFOLOGIYASINING YANGI AMALIY BOSQICHI MASALALARI.....	46
1-mavzu: Kompyuter va korpus lingvistikasida so‘z turkumlari va grammatik kategoriyalar.....	46
2-mavzu: Morfologik lug‘atlarning yaratilishi	57
3-mavzu: Morfologik analizatorni yaratish	65
4-mavzu: Morfologik teglash vazifalari	83
MAVZUGA OID TAYANCH TUSHUNCHALAR.....	90

Fazliddin Sharipov

**HOZIRGI O‘ZBEK
ADABIY TILI**
(O‘zbek morfologiyasining taraqqiyoti)

O‘quv qo‘llanma

“Bookmany print” nashriyoti

Nashriyot tasdiqnoma raqami № 022246. 28.02.2022-y.

Bosishga ruxsat etildi: 22.01.2024.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 ¹/₁₆

Nashriyot bosma tabog‘i 5,7. Shartli bosma taboq 6.

Adadi 100 nusxa. ofset bosma usulida bosildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

“BOOKMANY PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22-mavze, 17-b uy.

E-mail: bookmany_print@mail.ru

t.me/ Bookmanyprint ☎ +998 99 180 97 10